

**Zokirov M.T.,  
Alimova Z.V.**

**O‘ZBEK VA TOJIK LISONIY  
ALOQASI ASOSLARI**

Oliy o‘quv yurtlari filologiya fakulteti  
talabalari uchun darslik

**Farg‘ona - 2024**

**Zokirov Muxtorali Turdalievich, Alimova Zarifa Vaxobovna.**  
O‘zbek va tojik lisoniy aloqasi asoslari. Oliy o‘quv yurtlari  
filologiya fakulteti talabalari uchun darslik

**Mas’ul muharrir:**

M.Hakimov – Farg‘ona davlat universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori

**Taqrizchilar:**

T.Vahobov – Xo‘jand davlat universiteti professori,  
filologiya fanlari doktori

S.B.Inoyatov – Xo‘jand davlat universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi

E.Ibragimova – Farg‘ona davlat universiteti dotsenti,  
filologiya fanlari nomzodi

*Darslikda tipologik jihatdan o‘zaro farqlanuvchi o‘zbek va tojik tillarining shakllanishi, ularning asrlar osha aloqasi tufayli yuzaga kelgan lisoniy o‘zgarishlar va bu o‘zgarishlarning til sathlaridagi amali haqida ma’lumot beriladi.*

*Kitob oliy o‘quv yurtlarining filologiya fakulteti talablariga, shuningdek, pedagogik yo‘nalishdagi kollejlarda, gimnaziyalar, akademik litsey va umumta’lim maktablarining ona tili o‘qituvchilariga mo‘ljallangan.*

*Mazkur darslik O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023-yil 22-dekabrdagi 537-sonli buyrug‘iga asosan nashrga tavsiya etilgan. Ruxsatnoma raami*  
**537500**

## Mundarija

Soʻz boshi	5
<b>Birinchi qism. Tillar aloqasining umumnazariy masalalari.</b>	
1.1. Kontakt lingvistikaning alohida fan sifatida shakllanishi.	9
1.2. Til kontakti haqida umumiy maʼlumot.	12
1.3. Til kontaktining turlari	16
1.4. Til kontakti tufayli vujudga keluvchi sotsiolingvistik hodisalar	18
1.5. Til kontakti va ikki tillilik (bilingvizm).	20
1.6. Oʻzbek til kontaktlari tarixidan	26
1.7. Interferensiya va uning oʻzbek va tojik tillari kontaktiga aloqasi.	32
1.8. Oʻzbek va tojik ikki tilliligining oʻziga xos xususiyatlari	39
1.9. Oʻzbek tili va uning shakllanish asoslari	41
1.10. Tojik tili va uning shakllanish asoslari	44
<b>Ikkinchi qism. Oʻzbek va tojik lisoniy aloqasining til sathlariga koʻra aloqalari.</b>	
2.1. Oʻzbek va tojik tillarining fonetik-fonologik sathga xos aloqasi	48
2.2. Oʻzbek va tojik tillarining lugʻaviy sathga xos aloqasi	52
2.3. Oʻzbek va tojik tillarining morfem sathiga xos aloqalari	59
2.4. Oʻzbek va tojik tillarining soʻz yasalishi sathiga xos aloqasi	62
2.5. Oʻzbek va tojik tillarining grammatik sathga xos aloqasi	68
2.5.1. Oʻzbek va tojik tillarining morfologik sathga xos aloqasi	69
2.5.2. Oʻzbek va tojik tillarining sintaktik sathiga xos aloqasi	72
<b>Foydalanilgan adabiyotlar</b>	<b>143</b>
<b>Shartli qisqartmalar</b>	<b>151</b>

## Мундариҷа

<b>Қисми аввал. Масъалаҳои умумии муоширати забон.</b>	
1.1. Мавзӯъ, ҳадаф ва вазифаҳои курси “Робитаи забони тоҷикӣ ва ўзбекӣ”	76
1.2. Маълумоти умумӣ дар бораи робитаи забон.	79
1.3. Намудҳои муоширати забони	83
1.4. Падидаҳои иҷтимоии лингвистие, ки аз робитаи забон бармеоянд	86
1.5. Контактҳои (алоқа) забон ва дузабонӣ (билингвизм)	87
1.6. Аз таърихи робитаҳои забони ўзбекӣ	89
1.7. Интерференсия ва алоқаи он дар робитаи забонҳои ўзбекӣ ва тоҷикӣ.	96
1.8. Дузабонии ўзбекӣ ва тоҷикӣ ва хусусиятҳои он	103
1.9. Забони ўзбекӣ ва асосҳои ташаккули он	106
1.10. Забони тоҷикӣ ва асосҳои ташаккули он	108
<b>Қисми дуюм. Муносибатҳои забонҳои ўзбек ва тоҷик аз рӯи сатҳҳои забон.</b>	
2.1. Робитаи забонҳои ўзбекӣ ва тоҷикӣ дар сатҳи фонетикӣ-фонологӣ	112
2.2. Пайвасти лексикӣ забонҳои ўзбекӣ ва тоҷикӣ	116
2.3. Пайвасти морфемавии забонҳои ўзбекӣ ва тоҷикӣ	127
2.4. Пайвасти забонҳои ўзбекӣ ва тоҷикӣ дар сатҳи калимасозӣ	131
<b>2.5. Алоқаи грамматикӣ забонҳои ўзбекӣ ва тоҷикӣ</b>	<b>135</b>
2.5.1. Робитаи забонҳои ўзбекӣ ва тоҷикӣ дар сатҳи морфологӣ	136
2.5.3 Робитаи забонҳои ўзбекӣ ва тоҷикӣ дар сатҳи синтаксисӣ	138
<b>Адабиёти истифодашуда</b>	<b>143</b>
<b>Ихтисороти шартӣ</b>	<b>151</b>

## SO‘Z BOSHI

Ma'lumki, insoniyat tarixida xalqlar o'rtasida turfa aloqalar mavjud bo'lib, ular mazkur xalqlar tillarida ham o'z aksini topgan. Shuning uchun muayyan bir davrga xos bo'lgan til aloqalarining eng nozik jihatlarini kuzatish, tavsiflash, u yoki bu tildagi hodisalarning boshqacha tus olishi sabablari haqida to'g'ri hukm chiqarish mazkur qo'llanmaning nazariy jihatdan dolzarbligini belgilaydi.

Xalqaro munosabatlarning intensivlashuvi til aloqalarining yanada jadallashuviga olib kelishi tabiiy hol. Mazkur jarayon to'xtovsiz sodir bo'lib boradi, hech qanday chegara, cheklovlarni tan olmaydi, chunki u jamiyat ehtiyojlari rivojlanishining ob'ektiv qonunlariga asoslanadi. Yuqoridagi faktorlar turli tillarda har xil shakl va darajada sodir bo'ladi. Til kontaktlarining qamrov doirasi jamiyatning rivojlanish va muloqot sur'atiga bog'liqdir.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo respublikalarida til aloqalari masalalari davlat ahamiyatiga ega bo'lgan jiddiy ijtimoiy muammolardan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. O'zbekiston hamda Tojikiston Respublikalarining mustaqil davlatlar sifatida jahon siyosiy hamda iqtisodiy maydonidagi o'rni, zamonaviy ilm-fan, texnikaning tez sur'atlar bilan rivojlanishi, elektron pochta, uyali aloqa vositalari, internet tarmoqlarining hayotimizga kirib kelganligi o'zbek va tojik xalqlarining boshqa xalqlar bilan iqtisodiy, madaniy, siyosiy aloqaga kirishuvi til aloqalarining jadallashuviga imkoniyat yaratmoqda. V.Yu.Rozensveyg ta'kidlaganidek, «... qiyosiy-tarixiy tadqiqotlar munosabati bilan tilshunoslar e'tiborini o'ziga jalb qilgan til aloqalari bugungi kunda nafaqat lingvistikaning sof nazariy masalasi, balki jamiyat va davlat darajasidagi siyosiy masalalardan biriga aylandi, Osiyo va Afrikaning ko'p davlatlari uchun esa hozirgi kunda barchani qiziqtiradigan asosiy masala bo'lib qoldi<sup>1</sup>.»

Sobik Ittifoq tarkibida yetmish yil «umr ko'rgan» va «Ittifoqdosh Respublikalar» nomi bilan atalgan mamlakatlar Mustaqillikka erishgach, ularning siyosiy, iqtisodiy, madaniy,

---

<sup>1</sup> Розенцвейг В.Ю. Основные вопросы теории языковых контактов. -В кн: «Новое в лингвистике», вып. VI, М., 1972, стр.5.

diniy va ma'naviy olamida kutilmagan tub o'zgarishlar yuz berdi. Ijtimoiy hayotning barcha jabhasida xos bunday o'zgarishlar tarixning faqat ijobiy bahosiga sazovor bo'la oladi. Bag'rida ana shunday tub o'zgarishlar yasalgan Tojikiston, O'zbekiston va Markaziy Osiyoning boshqa Respublikalarida o'z milliy ruhini ardoqlab shakllantiruvchi imkoniyatlar vujudga keldi. Bunday beminnat va benazir imkoniyat shu Respublikalarning, jumladan, O'zbekiston hamda Tojikistonning ta'lim-tarbiya sohasida ham paydo bo'ldi. Har bir Respublika o'zining asosiy tili - Davlat tili maqomini qo'lga kiritdi; ularda yashovchi boshqa millatlarga mansub aholining tili ham kamsitilmadi. Ularning rivojlanishiga keng imkoniyatlar yaratildi. Buni Tojikistonda o'zbek tili va uning amali uchun yaratilgan va yaratilayotgan imkoniyatda ham ko'rish mumkin.

O'zbek millatiga mansub aholi Tojikistonda tojik millatidan keyingi ikkinchi mahalliy aholi sanaladi. Bu Respublikaning ayrim tumanlarida faqat o'zbek millatiga mansub aholi istiqomat qiladi. Shu hududlarda ta'lim-tarbiya jarayoni, vaqtli matbuot va uning shaxobchalarida o'zbek tili asosiy aloqa aralashuv vositasi hisoblanadi. Tojikistonning pedagogik yo'nalishdagi oliy o'quv yurtlarida, kasb-hunar kollejlari va akademik litseylarida ta'lim-tarbiya o'zbek tilida ham olib boriladi. Ularning filologiyaga ixtisoslashgan fakultetlarida o'zbek tili va adabiyotni ilmiy o'rganuvchi bo'limlari mavjud. Akademik Bobojon G'afurov nomidagi Xujand davlat universiteti ham keksa, yirik oliygohlardan biri hisoblanadi. Bu oliygohda bir necha yildirki, o'zbek filologiyasi mustaqil fakultet sifatida faoliyat yuritadi. Unda fanning ish sohasi bo'yicha yuqori ilmiy darajali, tajribali mutaxassislar ta'lim-tarbiya ishlari bilan shug'ullanadi. SHuningdek, 1993-yil respublikadagi eng keksa oliygohlardan Sadriddin Ayniy nomidagi Tojikiston davlat pedagogika universiteti tojik filologiyasi fakulteti qoshida o'zbek tili va adabiyoti bo'limi tashkil etildi. Bu bo'limda ham ilmiy darajali va tajribali mutaxassislar ishlab kelmoqda. O'zbek filologiyasi fakulteti va bo'limini har yili bir necha o'nlab yoshlar tugatib, pedagogik yo'nalishdagi maskanlarga ravona qilinadi.

Jamiyatimiz hayotidagi ijtimoiy o'zgarishlar oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida olib boriladigan ta'lim saviyasiga ham o'z ta'sir kuchini o'tkazmay qolmadi. Ularning davlat tomonidan

belgilangan, ma'qullangan o'quv rejalariga sezilarli darajada o'zgartishlar kiritildi. Oliy o'quv yurtlarining pedagogik yo'nalishi bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan fakultet va bo'limlarda ta'lim predmeti sifatida o'qitiladigan « Milliy va rus adabiyoti aloqasi», «Milliy tillar va rus tili aloqasi» singari fanlar o'rnida shu hududda yashovchi asosiy aholilarning adabiyoti va tillari aloqasini o'rganishni ko'zda tutgan yangi fanlar tiklandi. «O'zbek va tojik lisoniy aloqalari asoslari» ham ana shunday maqsadni nazarda tutgan yangi fan, yangi predmetdir.

O'zbek va tojik tillari aloqasi masalalarini o'rganish, uni zamonaviy ilmiy o'lchovlar bilan takomillashtirish – shu kunlar talabi. Negaki o'zbek xalqining tarixini, turmush tarzini, madaniyatini, ma'naviy va ruhiy olamini unga qardosh, qondosh va hududdosh bo'lgan tojik xalqining tarixisiz, turmush tarzisiz, madaniyatisiz, ma'naviy va ruhiy olamisiz to'g'ri va to'liq tasavvur etish mumkin emas. Bu ikki xalq juda qadimiy, uzoq tarixiy taqdirdosh va maslakdosh xalqlar hisoblanadi. Bu taqdirdoshlik va maslakdoshlik negizida ularning madaniyati, ma'naviyati, adabiyoti, tili va boshqa milliy qadriyatlari keng miqyosda rivojlangan.

Tilni «ijtimoiy hayot ko'zgusi» deb bekorga aytmaganlar. Xalq ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy olami bilan bog'liq nimalar bo'lsa, ular tilda o'z in'ikosiga ega bo'ladi. Ijtimoiy hayotning lisonda aks etgan in'ikosi tilning lug'at boyligi sifatida yuksak baholanadi.

Qo'shni va qo'shni bo'lmagan, qardosh va qardosh bo'lmagan har xil tillarning o'zaro aloqasi dastlab tilning lug'at tarkibida ko'zga tashlanadi. Shu bois bir tilning lug'at tarkibida ikkinchi boshqa tilning lisoniy birliklari o'ziga xos qatlamni tashkil qiladi. Bu hol o'zbek tili leksikasidagi ko'plab tojik (fors) so'zlarining, tojik tili leksikasida esa shunday miqdordagi o'zbek (turkiy)cha so'zlarning mavjudligi va ularning real amali bilan ham isbotlanadi.

Muayyan xalq, millat tilining boshqa xalq yoxud millat tiliga ta'siri lug'aviy sathdan tashqari boshqa sathlarda ham ko'zga tashlanadi. Ana shu lisoniy aralashuvlar tufayli tillararo aloqa vujudga keladi. Qo'lingizdagi darslikning asosiy maqsadi o'zbek va tojik tillarining fonetik-fonologik, lug'aviy-frazeologik, morfem

va soʻz yasalishi, shuningdek, grammatik qurilishi jabhalariga oid aloqalarni oʻrganish va oʻrgatishdan iborat.

Mazkur darslik ikki qismdan tashkil topgan. Birinchi qism tillar aloqasining umumnazariy masalalarini oʻz ichiga qamrab oladi. Ikkinchi qism esa oʻzbek va tojik lisoniy aloqalarining til sathlariga koʻra amaliylashuviga bagʻishlangan. Bu qism talabalarga tushunarli boʻlishi uchun, har bir sathning qisqacha ilmiy bayoni ham berilgan. Ularda oʻzaro qiyoslanayotgan sathning asosiy birliklari, ularning xarakteri, oʻzbek va tojik tillarining shu sath birliklari boʻyicha oʻzaro munosabati kabi muhim masalalari oʻrganilgan.

Mualliflar darslikning qoʻlyozma nusxasi bilan tanishib, uning nashr etilishiga xayrixohlik bildirgan Fargʻona davlat universitetining tilshunoslik kafedrasida ilmiy jamoasiga, muharrir sifatida tanishib, qimmatli fikrlar aytgan Fargʻona davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori, M.Hakimovga, shuningdek, rasmiy taqrizchilar sifatida ishni yuqori baholagan Xoʻjand davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori T.Vahobovga, mazkur universitet dotsenti, filologiya fanlari nomzodi S.B.Inoyatov, Fargʻona davlat universiteti dotsenti, filologiya fanlari nomzodi E.Ibragimovalarga samimiy minnatdorchilik bildiradilar, ularning qimmatli fikrlari darslikning keyingi nashrlarida hisobga olinadi.

«Oʻzbek va tojik lisoniy aloqalari asoslari» mualliflarning koʻp yillik tajribalari asosida yaratilgan dastlabki va yagona qoʻllanma boʻlganligi uchun, unda ayrim kamchilik va nuqsonlarning boʻlishi tabiiy. Qoʻllanma yuzasidan bildiriladigan qimmatli fikr va mulohazalar samimiyat va minnatdorchilik bilan qabul qilinadi.

/



## BIRINCHI QISM

### TILLAR ALOQASINING UMUMNAZARIY MASALALARI.

#### 1.2. Kontakt lingvistikaning alohida fan sifatida shakllanishi.

Tillarni qiyosan o'rganish bo'yicha tajribalar eng qadim zamonlarda boshlangan bo'lishiga qaramay, Jahon tilshunosligida til kontaktlari muammolari bilan tilshunoslar XIX asr oxiri-XX asr boshidan shug'ullana boshlaganlar. Xususan, G.Shuxardt va I.A.Boduen de Kurtene bir-biridan mustaqil ravishda «tillarning aralashuvi» degan tushunchani tilshunoslikka olib kirganlar<sup>1</sup>. G.Shuxardtning fikricha, «til aralashuvining imkoniyatlari hech qanday cheklanishlarni bilmaydi; u tillar orasida ham maksimal, ham minimal farqlanishga olib kelishi mumkin»<sup>2</sup>. Boduen de Kurtene qarindosh tillarni qiyosiy-tarixiy metod asosida tavsiflash bilan bir qatorda genetik jihatdan bog'lanmagan, geografik va ijtimoiy-tarixiy yondosh tillarni tavsiflashni til nazariyasining printsiptial vazifasi deb hisoblagan<sup>3</sup>.

G.Paul ham tillarning aralashuvi terminini qo'llaydi. U mazkur termin ostida bir tilning boshqa tilga ta'siri, bir shevaning o'zga shevaga ta'siri, shuningdek, rivojlanishining oldingi bosqichlarida yo'qotgan materialni tilda yana qayta o'zlashtirilishi kabi hodisalarni tushunadi. G.Paul tillarning o'zaro ta'siri haqidagi fikrlarga munosabat bildirgan holda, o'z navbatida bilingvizmning paydo bo'lish jarayoni, sabab va oqibatlari, ta'sir darajasi xususida atroflicha to'xtalgan. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, u diqqatini tilning leksik sathiga qaratgan<sup>4</sup>. Til aloqalarining boshqa sathlarga ta'siri haqida esa umumiy fikrlarni aytish bilan chegaralangan.

---

<sup>1</sup> Шухардт Г. Избранные статьи по языкознанию. М., 1950, стр. 175. Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию.1,М.,1963, стр. 362-372.

<sup>2</sup> Шухардт Г. Избранные статьи по языкознанию. М., 1950, стр.177.

<sup>3</sup> Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные труды по общему языкознанию.1,М.,1963, стр. 362-372.

<sup>4</sup> Пауль Г. Принципы истории языка. М., 1960, стр.459-473.

L.Blumfild ham G.Paul kabi asosiy diqqatini bilingvizm sharoitidagi olinmalarga qaratadi<sup>5</sup>. Substrat hodisasiga oid tanqidiy fikrlar bayon qiladi, ya'ni fonetik sistemaga tashqi ta'sir haqidagi fikrlar zaifligini alohida ta'kidlaydi. Biroq tildagi ob'ektiv faktlar uning bu fikri to'g'ri emasligini ko'rsatadi. L.Blumfild bilingvizmning tabiati, turlari kabi masalalarga, negadir, e'tibor bermaydi.

**Tillar aralashuvi** termini o'zining mavhumligi sababli ko'p tilshunoslar tomonidan tanqid qilinadi<sup>6</sup>.

Hozirgi zamon jahon tilshunosligida **tillarning aralashuvi** termini o'rnida **til kontaktlari** birikmasi keng qo'llanib, ushbu termin tilshunoslikka A.Martine tomonidan birinchi marta kiritildi, U.Vaynrayx tomonidan esa ommalashtirildi<sup>7</sup>.

L.V.Shcherba til kontaktlariga aloqador nazariy ishlarida tillarni qiyosiy aspektda o'rganishning ahamiyati nihoyatda katta ekanligi, bilingvizmning umumiy-nazariy jihatlari, mohiyati, ko'rinishlari, turli hududlardagi o'ziga xos xususiyatlari, bilingvizmning individ uchun ahamiyati yuqori bo'lishi haqidagi qarashlarini bayon qiladi<sup>8</sup>. Bu ishlarda rus va fransuz tillari tadqiqot ob'ekti sifatida tahlil qilinadi

Turkologiya, jumladan, o'zbek tilshunosligida tillarni qiyoslab tadqiq qilish ishlari XI asrda Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk» hamda XV asrda Alisher Navoiy tomonidan yozilgan «Muhokamatul lug'atayn» asarlaridan boshlangan. Mahmud Koshg'ariy bir oilaga mansub turkiy tillarni qiyoslab, ularning umumiy va farqli jihatlari ko'rsatib bergan bo'lsa, Alisher Navoiy turli til oilalariga, turli til sistemalariga mansub bo'lgan turkiy va fors tillarini chog'ishtirib o'rgangan. A.Nurmonov o'z qarashlarida Alisher Navoiyni chog'ishtirma (kontrastiv) tilshunoslikning otasi, Mahmud Koshg'ariyni esa qiyosiy-tarixiy tilshunoslikning asoschisi deb e'tirof etadi.

Turkologiyada o'zbek va tojik tillarining o'zaro aloqalari va ta'siri masalalariga M.Stavrulli, E.D.Polivanov, V.V.Reshetov, A.K.Borovkov va bir qator tilshunoslar umumiy tarzda qisqacha munosabat bildirganlar.

---

<sup>5</sup> Блумфилд Л. Язык. М., 1968, стр.506-522.

<sup>6</sup> Звегинцев В.А. Очерки по общему языкознанию. М., 1962, стр.239.

<sup>7</sup> Новое в лингвистике. Вып VI, Языковые контакты, М., 1972, стр.5.

<sup>8</sup> Щерба Л.В. Языковая система и речевая деятельность. Л., 1968, стр. 506-522.

E.D.Polivanov bu masalani o'zbek shevalariga tojik tilining ta'siri nuqtai nazaridan yondashgan bo'lsa<sup>9</sup>, M.Stavruli o'zbek tilining tojik shevalariga ko'rsatgan ta'sirini tavsiflaydi<sup>10</sup>. A.K.Borovkov tillar rivojlanishi ichki imkoniyatlar asosida yuz berishini ta'kidlash bilan chegaralanadi. Tillarda yuz bergan o'zgarishlarni ularning ichki taraqqiyoti bilan bog'laydi.<sup>11</sup>

O'zbek tilshunosligida mazkur masalaning qo'yilishi, yoritilishi, o'rganish doirasi haqida quyidagilarni aytish mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, g'arb va rus tilshunosligida masalaning nazariy jihatdan yoritilish, o'rganish darajasi keng qamrovli bo'lsa, o'zbek tilshunosligida mazkur masala yuqoridagi mezonlar nuqtai nazaridan tor va faqat tavsifiy xarakterga ega. Bunday oddiy tavsiflar K.Yusupov, H.G'ulomov, K.Rahmonberdievlar ishlarida ko'zga yaqqol tashlanadi<sup>12</sup>.

K.Yusupov «O'zbek va tojik tillarining o'zaro ta'siri» mavzusiga bag'ishlangan monografiyasida Farg'ona shahri atrofida yashovchi tojiklar tilini o'zbek tiliga qiyoslagan, shuningdek, ishda tillarning o'zaro ta'siri va uning darajasini tavsiflashga e'tibor berilgan. Mazkur ish, asosan, o'zbek va tojik tillarining o'zaro munosabatini ularning tarixi bilan bog'liq holda tadqiq etishga qaratilgan. Farg'ona, Quvasoy, Toshloq tumanlarida yashovchi tojik aholisining tili hududiy nuqtai nazardan tadqiqot ob'ekti sifatida olingan.<sup>13</sup> Ishning kirish qismida G.Shuxardt, L.V.Shcherba, V.Bogoroditskiy, N.K.Dmitriyev, N.V.Yushmanov, Yu.D.Desheriev, E.I.Ubryatovalarning til aloqalari nazariyasi bilan bog'liq qarashlariga o'z munosabatini bildirgan<sup>14</sup>. Shuningdek, "o'zbek" va "tojik" etnonimlarining etimologik tahlili berilgan.

---

<sup>9</sup> Поливанов Е.Д. Материалы по грамматике узбекского языка. Т., 1934, стр-34;

<sup>10</sup> Узбекская диалектология и узбекский литературный язык. Т., 1933, стр-10-11, 22-23.

<sup>11</sup> Боровков А.К. По поводу «иранизации» узбекского языка. Известия АН Узбекской ССР, Т., 1956, №8, стр-79-92.

<sup>12</sup> Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. Т., 1974; Гулямов Х. Ўзбекско-таджикские языковые связи. Т., 1983; Раҳмонбердиев К. Ўзбек тили контактлари. Т., 1989.

<sup>13</sup> Юсупов К. Ўзбек ва тожик тилларининг ўзаро таъсири. Т., 1974, б.4

<sup>14</sup> Кўрсатилган асар, б.7-12.

H.G'ulomovning «O'zbek-tojik til aloqalari» nomli monografiyasida o'zbek va tojik tillari uchun umumiy bo'lgan leksik qatlamning ba'zi jihatlari yoritilgan<sup>15</sup>.

Tojikiston hamda Afg'oniston hududlaridagi o'zbek shevalarini o'rganishga bag'ishlangan bir qator ilmiy tadqiqotlarda<sup>16</sup> mazkur shevalar o'zbek adabiy tilining turli sathlari (fonetik, leksik, grammatik) bo'yicha qiyoslangan. Lekin Tojikiston va Afg'onistondagi o'zbek shevalariga bag'ishlangan bu ishlarda ularning mahalliy til va shevalari bilan o'zaro aloqasi, ta'siri borasida hech qanday fikr bildirilmagan. Vaholanki, bugungi kunda mazkur shevalar o'zbek adabiy tili bilan aloqalarini deyarli yo'qotib, mahalliy eroniy tillarning kuchli ta'siriga uchragan. Yuqoridagi ishlarda mahalliy til hisoblangan eroniy tillarning o'zbek shevalariga ta'siri to'g'risida hech qanday ma'lumot berilmaydi. Bizningcha, bir ijtimoiy muhitda yashayotgan o'zbek shevalari va eroniy tillarning o'zaro aloqasi batafsil tahlil qilinishi zarur. Bularning tilshunoslar etiboridan chetda qolishi to'g'ri nazariy xulosalar chiqarish uchun xatoga yo'l qo'yishga sabab bo'ladi.

## **1.2.Til kontakti haqida umumiy ma'lumot.**

Sotsiolingvistika o'rganadigan asosiy masalalardan biri «til kontakti» tushunchasidir. Kontakt lotincha «contactiss» so'zidan olingan, «bevosita aloqa», «bevosita bog'lanish» ma'nolarini bildiradi.

Ikki va undan ortiq tillarning fonetik, leksik-semantik hamda sintaktik tuzilishiga ta'sir qiluvchi tillarning o'zaro aloqalari va munosabatlari **til kontaktlari**<sup>17</sup> hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan ikki va undan ortiq tillarning til sathlari o'rtasidagi o'zaro munosabati va ta'siri tushunchasi ostida til aloqalari ifodalagan tushunchalar anglanadi. Shu o'rinda til kontakti va kontakt til atamalarini o'zaro farqlash lozim.

---

<sup>15</sup> Гулямов Х. Ўзбекско-таджикские языковые связи. Т., 1983.

<sup>16</sup> Абдуллаев Н. Фонетические особенности ўзбекских говоров Северо-Западного Афганистана. Диссертация на соискание ученой степени канд. фил. наук. Т., 1982; Йўлдашев Т. Тожикистондаги ўзбек шеваларининг морфологик курилиши. Фил. фан. доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. Т.,1968

<sup>17</sup> Лингвистический энциклопедический словарь. М., 1990, стр. 237.

Kommunikat va kommunikant o'rtasidagi o'zaro lingvistik munosabatni yuzaga chiqaruvchi til **kontakt til**<sup>18</sup> deb hisoblanadi. Bunda ikki holat o'zaro farqlanadi:

1. Kontakt til - aloqaga kirishgan millatlardan birining tili. Mazkur jamiyatdagi lingvokommunikativ muloqot vaziyatga ko'ra birinchi yoki ikkinchi millat tilida bo'lishi mumkin.

2. O'zaro aloqaga kirishuvchi har ikki millatning tillari ham kontakt til hisoblanmasligi mumkin. Bunda kommunikativ munosabat uchinchi til orqali amalga oshiriladi. Bunday holatlarda kontakt til **vositachi til**<sup>19</sup> deb yuritiladi.

«**Til kontakti**» atamasi fanga fransuz tilshunosi Andre Martine tomonidan olib kirilgan. Uriel Vaynrayx uni sotsiolingvistik tushuncha atamasi sifatida ommalashtirgan. Til kontakti tilning amali bilan bog'liq tushunchadir.

Til kontaktining tilning amali bilan bog'liqligi shundaki, u nutqiy jarayonda sodir bo'ladi. Ma'lumki, nutqiy jarayonning asosini muloqot tashkil qiladi. Muloqot ikki shaxs o'rtasidagi fikr almashinuvdir. Muloqot jarayonining ishtirokchilaridan birini so'zlovchi, ikkinchisini tinglovchi deyiladi.

So'zlovchi fan tili bilan adresant, tinglovchi esa adresat deyiladi. Fikr so'zlovchi-adresant tomonidan til ashyolari vositasida uzatiladi. U (fikr) tinglovchi-adresant tomonidan qabul qilinadi. Ana shu jarayonni muloqot deyiladi. Bu jarayon individual-psixik xarakterda bo'ladi. Tilning psixik hodisa xarakteri ham nutq, nutq faoliyati orqali belgilanadi.

So'zlovchi-adresant va tinglovchi-adresat bir til jamoasi vakillari bo'lsa, muloqotda til kontakti bo'lmaydi. Muloqotning til kontaktiga asoslanishi uchun so'zlovchi-adresant va tinglovchi-adresat har xil til jamoalariga qarashli bo'lishi shart. Bundan tashqari, tinglovchi-adresant tinglovchi-adresat mansub bo'lgan, tinglovchi-adresat so'zlovchi-adresant mansub bo'lgan jamoaning tilini bilishi, albatta, zarur. Aks holda, til kontakti vujudga kelmaydi. Masalan, tojik til jamoasiga mansub biror-bir shaxs bilan o'zbek til jamoasiga mansub biror-bir shaxs muloqotga kirishadigan bo'lsa, muloqot vositasi vazifasini yo o'zbek tili, yo tojik tili bajarishi kerak. Shuning uchun so'zlovchi-

---

<sup>18</sup> Розенцвейг В.Ю. Языковые контакты. Л., 1972, стр. 3.

<sup>19</sup> Розенцвейг В.Ю. Языковые контакты. Л., 1972, стр. 3. Джозеф Гринберг. Изучение языковых контактов в Африке. В кн: «Новое в лингвистике», вып. VI, М., 1972, стр.130.

adresant o'zbek til jamoasiga mansub bo'lsa, u tojik tilidan ham yaxshi xabardor bo'lishi kerak. So'zlovchi-adresant tojik til jamoasiga mansub bo'lsa, u o'zbek tilini ham yaxshi bilishi kerak. SHuning uchun muloqot til kontaktiga asoslanishi uchun, muloqotga kirishuvchi shaxslar o'z tilidan tashqari, muloqot vositasiga aylanuvchi o'zga tilni ham bilishi zarur. Muloqot vositasi vazifasini bajargan tilni kontakt til deyiladi. Tojik va o'zbek til jamoalariga mansub ikki shaxsning muloqoti o'zbek tilida olib borilsa, o'zbek tili kontakt til hisoblanadi; tojik tilida olib borilsa, tojik tili kontakt til vazifasini bajaradi.

Bordi-yu, so'zlovchi-adresant tinglovchi-adresatga qarashli bo'lgan, tinglovchi-adresat so'zlovchi-adresantga qarashli bo'lgan jamoaning tilini bilmasa, unda muloqot vositasi vazifasi uchinchi boshqa bir til zimmasiga yuklanadi. Muloqot vositasi vazifasini bajargan va so'zlovchi-adresant ham, tinglovchi-adresat ham mansub bo'lmagan uchinchi boshqa tilni vositachi til deyiladi. Masalan, tojik va o'zbek til jamoalariga mansub ikki shaxsning muloqoti rus yoki ingliz tilida amalga oshsa, rus yoki ingliz tili vositachi til hisoblanadi.

Til kontakti uchun ikki yoki uch har xil til jamoasining bir umumiy hududda yashashi shart emas. Ikki yoki uch til jamoalarining bir umumiy hududda yashashiga asoslangan til kontakti bevosita amalga oshadi. O'zaro hududiy yaqin bo'lmagan til jamoalari orasidagi til kontakti odatda o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim jarayonlarida o'quvchi va studentlarning biror-bir chet tilni o'rganishi orqali vujudga keladi. Masalan, turli bosqichdagi ta'lim maskanlarida o'quvchi yoki talabalarning ingliz, nemis, fransuz, ispan, arab yoki xitoy tillaridan birini o'rganish orqali vujudga kelgan til kontakti ana shunday xarakter kasb etadi. Yana: o'zbek tiliga arab tilidan o'zlashgan ko'p miqdordagi so'zlar evaziga o'zbek-arab til kontakti vujudga kelgan. Bu til kontakti ham diniy ta'lim va fors-tojik tili vositasida paydo bo'lgan.

Tillar kontakti tufayli substrat hamda superstrat deb ataluvchi lisoniy vaziyatlar paydo bo'lishi mumkin. Mazkur atamalar lotin tiliga qarashli bo'lib, «tag» ma'nosidagi «sub», «ust» ma'nosidagi «sureg» va «qatlam» ma'nosidagi «stratum» so'zlaridan tashkil topgan. Ikki tilning o'zaro chatishuvi natijasida mag'lub til elementlarining g'olib til strukturasi

belgilari **substrat** va **superstrat** hodisalari deb yuritiladi. Substrat keng etnik aralashuv va ikkitillilik orqali mahalliy xalq tilining kelgindilar tiliga singib ketishidir. Masalan, miloddan avvalgi III-II asrlarda rimliklar Iberiya (bugungi Ispaniya) hamda Galiyani (bugungi Frantsiya) bosib olishgan. Mazkur hududlarda mahalliy til-lotin tili bilingvizmi vujudga keladi. Rimliklar ta'sirida mahalliy til-lotin tili bilingvizmi davri mahalliy xalqlarning to'liq lotin tiliga o'tishlari bilan yakunlanib, lotin tili negizida hozirgi zamon ispan va fransuz tillari shakllangan. Mazkur tillarda mavjud iber (ispan tilida) va gal (fransuz tilida) tillarining elementlari substrat hodisasiga misol bo'la oladi<sup>20</sup>. Kelgindi etnik guruhlar tilining mahalliy tilda qoldirgan belgilari superstrat deb yuritiladi. Milodiy V asrda frank qabilalari hozirgi Frantsiya hududlarini bosib olishgan. Mahalliy xalq bilan aralashuvi natijasida franklar mahalliy xalq urf-odatlarini, yashash tarzi va tilini qabul qilishgan. Turkiy bulg'or urug'lari Bolqon yarim orolida slavyan qabilalarini bo'ysundirganda o'xshash hodisa sodir bo'lgan. Hozirgi Bolgariya hamda Frantsiya davlatlarining nomi ham superstrat hodisasining faktidir<sup>21</sup>. Superstrat va substrat hodisalari, asosan, tilning fonetik, grammatik, qisman leksik sathlarida namoyon bo'ladi. Biroq mazkur tushunchalarni tildagi o'zlashma so'zlar qatlami tushunchasidan farqlash zarur bo'ladi. Chunki so'z o'zlashtirishdan farqli ravishda, substrat va superstrat hodisalari ikki tildan biri mag'lub bo'lishi hamda barcha til sathlarini qamrab oluvchi til aloqalari bilan bog'liqdir. Substrat nazariyasi XIX asr boshida Ya.Bredsdorf qarashlari asosida paydo bo'lib, hind-evropa tilshunosligi tarixida katta rol o'ynadi. Boshqa til oilalari tillarini o'rganishda bu nazariya hozirda ham o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q.

«Til kontakti» sotsiolingvistikaning asosiy tushunchasi sifatida tor va keng ma'nolardagi talqinga ega. Til kontakti atamasi keng ma'noda uqilganda, muloqot vositasi vazifasini ikki mustaqil tildan tashqari, bir til doirasidagi ikki sheva ham bajaradi. Ya'ni so'zlovchi-adresant va tinglovchi-adresatlar umumxalq tilining har xil shevasiga mansub shaxslar bo'ladi. Masalan, o'zbek tilining «j»lovchi shevasiga mansub shaxs bilan uning «y»lovchi shevasiga mansub shaxsning o'zaro

---

<sup>20</sup> Перетрухин В.Н. Введение в языкознание. Белгород, 1966, стр.65

<sup>21</sup> Перетрухин В.Н. Введение в языкознание. Белгород, 1966, стр.65

muloqotiga yo «j»lovchi sheva, yoki «y»lovchi sheva materiallari vosita vazifasini bajarishi mumkin. Muloqot «j»lovchi shevada amalga oshsa, «j»lovchi sheva kontakt sheva hisoblanadi; «y»lovchi shevada amalga oshsa, kontakt sheva vazifasi «y»lovchi sheva zimmasiga tushadi. Bundan tashqari, shaxsning adabiy til, yo shu adabiy tilga qarashli biror-bir sheva vositasidagi muloqoti ham keng ma'nodagi til kontaktiga misol bo'ladi.

«Til kontakti» atamasi tor ma'noda qaralganda, muloqotning ikki har xil milliy til amalidagi shakli tushuniladi.

Sotsiolingvistika uchun «til kontakti» tushunchasining tor ma'nodagi shakli ko'proq ahamiyatli hisoblanadi. Chunki bu jarayonda shevalar emas, balki milliy tillar aloqaga kirishadi. Bir milliy til ikkinchi milliy tilga nimasi bilandir ta'sir qiladi. Bu jarayon fonetik, lug'aviy va grammatik qurilishda farq qiluvchi biror-bir tilning lisoniy vositalari vositasida amalga oshadi. «Kontakt»ning bir til doirasidagi shevalararo amalga oshishida «ta'sirdoshlik» bir til doirasidagi lisoniy unsurlar bilan cheklanadi.

### **1.3.Til kontaktining turlari.**

Turli tillarning muloqot vositasiga aylanishi bilan bog'liq xususiyatlar ham murakkab sotsiolingvistik hodisalar hisoblanadi. Bu jarayonda bir til ikkinchi tilga (yoxud «kontaktlashayotgan» har ikki til o'zaro) turli darajada ta'sir qiladi. Shu bois tillar kontakti tufayli turli xarakterdagi natijalar ko'zga tashlanadi. Bu xususiyat asosida tillar kontaktining har xil tur va ko'rinishlari belgilanadi.

Sotsiolingvistik xarakterdagi ilmiy manbalarda til kontaktining ikki asosiy turi qayd etiladi:

1) proksimal til kontakti;

2) distal til kontakti.

1. Proksimal til kontakti.

Til kontaktining proksimal shakli odatda etnik jihatdan farq kiluvchi har xil til jamoalarini uyushtirgan ko'p millatli mamlakat yoki davlatlarda amal qiladi. Bunday mamlakat yoxud davlatlarda ikki tillilik (bilingvizm) yoxud ko'p tillilik (polilingvizm) sharoiti hukm suradi. Proksimal til kontaktida fonetik, lug'aviy va grammatik tizimi farq qiluvchi ikki yoki undan ortiq til vakillari o'z



ona tili bilan bir qatorda, qo'shni boshqa etnik jamoaning tilini ham o'zlashtirgan bo'ladi. Muloqot shaxsning o'z ona tili va o'zga til vositasida amalga oshaveradi. Proksimal til kontaktiga O'zbekiston hamda Tojikistondagi o'zbek va tojik, tojik va o'zbek, rus va tojik, tojik va rus, o'zbek va rus, rus va o'zbek, shuningdek, shu xarakterdagi boshqa ikki tilliklarga asoslangan muloqot shakllari misol bo'la oladi.

Proksimal til kontakti tufayli bir tildan boshqa tilga lisoniy birliklar o'zlashishidan tashqari, bir tilning ta'sirida boshqa tilning fonetik, grammatik qurilishida modifikatsiyalashish holati sodir bo'lishi, hatto sifat jihatdan farq qiluvchi yangi til tizimi vujudga kelishi mumkin.

## 2. Distal til kontakti.

Til kontaktining distal shakli odatda o'zaro hududdosh bo'lmagan etnik jamoalarining tillari munosabatiga asoslanadi. Til kontaktining bu shakli turli etnik jamoa tillarining bevosita aloqada bo'lmagan holatlarida amal qiladi. Shuning uchun distal til kontakti bir tillilik sharoiti uchun xos xususiyatdir. Bu jarayonda bir tildan boshqa tilga lisoniy birliklar (odatda so'zlar) o'zlashadi, xolos. Masalan, o'zbek va arab, o'zbek va xitoy, o'zbek va mo'g'ul tillari munosabatida til kontaktining distal shakli amal qilgan. Chunki o'zbek tili lug'at tarkibida xitoy, mo'g'ul, arab tiliga xos lug'aviy o'zlashmalar uchraydi. Ayniqsa, arab lug'aviy o'zlashmalari o'zbek tili leksikasida katta salmoqli qatlamni tashkil qiladi. Ularning qo'pi hozirgi o'zbek tilining o'z lisoniy mulkiga aylangan.

Arab lug'aviy o'zlashmalari o'zbek tili so'z yasalishi jarayonlarida ham faol ishtirok etib, o'zbek tili lug'at tarkibining boyishiga ikkinchi marta samarali xizmat qilayotir. Biroq O'zbekistonda yoki ikkinchi mahalliy aholisi o'zbeklar bo'lgan Tojikiston, Qirg'iziston yoki Qozoqistonda «o'zbek va arab» yoki «arab va o'zbek» ikki tilliligi mavjud emas. Bunday xarakterdagi ikki tillilikka imkon yaratuvchi til vaziyati ham yo'q.

Til kontaktining bu ikki turidan tashqari, uning zamon va makon umumiyiligiga ko'ra farqlanuvchi yana ikki turi ham mavjud. Ular:

- a) bevosita til kontakti;
- b) bilvosita til kontakti.

## 1. Bevosita til kontakti.

Bevosita til kontakti har xil til jamoasiga mansub shaxslarning yuzma-yuz mulokotiga asoslanadi. Yuzma-yuz mulokot jarayonida amalga oshgan muloqot makon va zamon umumiylikiga ega bo'ladi: adresant va adresant yuzma-yuz muloqotda bo'ladi. Bevosita til kontakti faqat nutqning og'zaki shakliga asoslanadi.

## 2. Bilvosita til kontakti.

Bilvosita til kontaktida har xil til jamoasiga mansub ikki shaxsning muloqoti yo telefon, yo internetga qo'shilgan kompyuter vositasida amalga oshadi. Bunda muloqotga kirishayotgan shaxslardan birining tili kontakt til vazifasini bajaradi. Muloqotga kirishayotgan shaxslar makon umumiylikiga ega bo'lmaydi.

Bilvosita til kontakti ikki shaklda amalga oshadi:

- a) og'zaki;
- b) yozma.

Bilvosita kontaktning og'zaki shakli telefon yoki internet tarmog'i orqali amalga oshadi. Yozma shakli esa, maktub, telegramma, telefaks, internetdagi «bildirish» vositalarida amalga oshadi. Yozma muloqotda adresant (yozuvchi) o'z maqsadini batafsil bildirmoqchi bo'lsa, maktubdan foydalanadi. Shunchaki xabar xarakterida bo'lsa, u telegramma, faks yoki telefon vositasida amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtda bilvosita muloqotning ogzaki shakli faolroq bo'lib, asosan mobil telefonlaridan keng ko'lamda foydalaniladi. Bunda vosita til vazifasini muloqotga kirishayotgan shaxslardan biri mansub bo'lgan til bajarishi mumkin.

### **1.4. Til kontakti tufayli vujudga keluvchi sotsiolingvistik xodisalar.**

Turli etnik jamoa tillarining kommunikatsiya jarayonidagi navbatma-navbat amali til kontaktiga shart-sharoit yaratar ekan, buning oqibatida etnik jamoa tillarida har xil sifat o'zgarishlari vujudga keladi. Etnik jamoa tillarida yuz beruvchi bunday sifat o'zgarishlari sotsiolingvistika o'rganadigan muhim masalalardan biri hisoblanadi. Lisoniy kontaktlashuv natijasida munosabatdosh tillar o'zaro uzoqlashishi yoki yaqinlashishi mumkin. Kontaktdosh tillararo uzoqlashish «divergensiya», yaqinlashish esa, «konvergensiya» deyiladi.

Kontaktlashgan tillardan birida sodir bo'luvchi yaqinlashish (konvergensiya) natijasida tillardan biri boshqasining tarkibiga singishib, o'zining kommunikativ amalini susaytira borib, yo'qqa chiqarishi mumkin. Bu jarayon fan tilida *assimilyatsiya* deyiladi.

Assimilyatsiya tufayli kontaktdagi tillardan biri boshqasining tarkibiga singishib «yutib yuborilishi» ham mumkin. O'zaro kontaktdagi tillardan birining bunday sharoitni boshdan kechirishi konvergensiya tufayli yuz beradi. Tarixdan, ilmiy manbalardan ma'lum bo'lishicha, qadimgi Xorazmda eron tillariga mansub lisonda so'zlashuvchi etnik jamoa (xalq) bo'lgan. Bu jamoa tili shu o'lka nomi bilan «xorazmiy» tili deb atalgan. Hozir Xorazmda bu til yo'q. U o'zbek tili bilan kontaktlasha borib, lug'aviy va grammatik qurilishidan bora-bora uzoqlashgan va o'zbek tilining tarkibiga singishib ketgan, assimilyatsiyalashgan. Bu haqda Aburayhon Beruniy asarlarida ham ma'lumot berilgan<sup>22</sup>.

Konvergensiya, ya'ni kontaktdagi tillardan birining boshqasi tarkibiga singishib, «assimilyatsiyalashuvi» slavyan tillarida ham uchraydi. Masalan, qadimda rus, belorus va ukrainlar orasida o'z mustaqil lisoniga ega bo'lgan muroma, chud, tork, qora klobuk singari mayda etnik guruhlar bo'lgan. Shu xalqlar bilan bir hududda yashab, shular tilida muloqot qila borishi natijasida, ularning tillari rus, belorus va ukrain tillari tarkibiga singishib, assimilyatsiyalashib ketgan<sup>23</sup>.

Konvergensiya tufayli, yuqorida ham aytilganidek, ikki yoki undan ortiq qarindosh va qarindosh bo'lmagan tillarga xos ayrim lisoniy xususiyatlar o'zaro uyg'unlashadi, ularning har biriga xos ayrim lisoniy xususiyatlar «so'nib», neytrallashadi. Zero, konvergensiya atamasi lotin tilidagi «yaqinlashmoq», «o'xshab ketmoq» ma'nosidagi «convergo» so'zidan olingan.

Konvergensiyaning «glottogonik» va «struktur-diaxronik» singari ikki turi mavjud. Glottogonik konvergensiya ikki har xil tilning fonologik tizimida ayrim mushtarakliklar vujudga keladi. Masalan, shaxslar jinsini farqlovchi – «ov», «-ov», «-ova», «-eva» singari qo'shimchalar o'zbek tili affiksial tizimiga rus tilidan o'zlashgan. O'zbek tilining fonemalar tizimida shu qo'shimchalar tarkibidagi «-v-» fonemasining ruscha talaffuzi yo'q edi. Shu

---

<sup>22</sup> Абурайхон Беруний. Танланган асарлар. 1-жилд. Тошкент, 1968

<sup>23</sup> Леонтьев А.А. Что такое язык. – М., 1976. 26-бет

affikslar o'zbek tilida ham rasmiy lisoniy birlikka aylangach, o'zbek tiliga xos «-v-» fonemasining talaffuzi rus tilidagi shu qo'shimchalar tarkibiga xos «-v-» fonemasining talaffuziga muvofiqlashdi. Shuningdek, fabrika, fevral, farfor tipidagi so'zlar tarkibidagi ruscha «-f-» ning talaffuziga o'zbekcha «-f-» fonemasining talaffuzi ham muvofiqlashgan.

Struktur-diaxronik konvergensiya ikki har xil tilga xos ayrim hodisalardagi lisoniy farqlar tugal barham topadi. Struktur-diaxron konvergensiya xos jarayonlarni «paradigmatik neytralizatsiya» yoki «sinxron neytralizatsiya» deb ham ataladi.

Sotsiolingvistikaning zamonaviy tushunchalaridan biri *attraksiya* dir. Attraksiya «uziga jalb qilish», «ta'sir kuchini ko'rsatish» ma'nolarini bildiradi. Tillarning ta'sirdoshligi bilan bog'liq substrat, superstat hodisalarining sharhida attraksiya muhim rol o'ynaydi. Masalan, 1066-yili normandlar Angliyani bosib olgach, mamlakat hududida uch til—ingliz, fransuz va lotin tillariaro raqobat vujudga keladi. Bu jarayonda ingliz tilining ta'sir kuchi g'olib kelib, attraktorlik vazifasini bajaradi. Shuningdek, tarixda xalqaro til sifatida musulmon mamlakatlarida arab tili, xristian olamida lotin tilining ta'sir kuchi sezilarli bo'lgan, attraktorlik rolini o'ynagan. Hozirgi globallashuv davrida ingliz tilining ta'siri attraksion xarakter kasb etmoqda.

### **1.5. Til kontakti va ikki tillilik (bilingvizm).**

Kontakt lotincha *contactiss* so'zidan olingan. Bevosita aloqa, bevosita bog'lanish degan ma'noni bildiradi. Bu atama ostida ayni bir shaxsning ikki yoki undan ortiq har xil tillardan navbati bilan foydalana olish imkoniyati tushuniladi. Kontakt atamasi bilan tilning amaliga asos tushunchalardan biri ham nomlanadi. Til amaliga xos bu tushuncha aloqa aralashuv (kommunikatsiya) jarayoni, ya'ni nutqning ma'lum bir holati (vaziyati)ga asoslangan lahzasi bilan aloqadordir. Ma'lumki, nutqiy aloqa aralashuvning ma'lum bir lahzasida ikki xil xarakterdagi shaxsning muloqoti amalga oshadi. Ulardan biri – so'zlovchi yoki adresant deb atalsa, boshqasi – tinglovchi yoki adresat deyiladi. Agar so'zlovchi – adresant bilan tinglovchi – adresat bir til jamoasining vakillari sanalsa, unda til kontakti haqida so'z yuritilishi ortiqcha bo'ladi. Til kontakti o'ziga xos

lisoniy-nutqiy imkoniyat sifatida har xil til jamoasiga mansub shaxslar tomonidan amalga oshiriladi. Har xil til jamoasiga qarashli shaxslarning o'zaro muloqoti til kontakti zaminida vujudga keladi.

Til kontakti keng va tor ma'nolarda ishlatiluvchi tushunchadir. U tor ma'noda ishlatilganda, ikki mustaqil til vakillari o'rtasidagi muloqot tushuniladi, keng ma'noda ishlatilganda esa, bir tilning ikki lahjasi yoki shevasi vakillari o'rtasidagi muloqot ham anglashilaveradi. Masalan, o'zbek va tojik millatiga mansub ikki shaxsning o'zaro muloqotini keng ma'nodagi til kontaktiga kiritish mumkin. Bunday jarayonda muloqot yo o'zbek, yo tojik tilida (bu ikki tilning birida) amalga oshiriladi. Bir tilning ikki lahjasiga mansub shaxslarning muloqoti keng ma'nodagi til kontakti sanaladi

Kommunikativ muloqot amalga oshirilgan tilni kontakt til deb yuritiladi. Kontakt til vazifasini so'zlovchi (adresant) va tinglovchi (adresat) mansub bo'lmagan boshqa (uchinchi) til ham bajara oladi. Masalan, o'zbek va tojik jamoalariga mansub ikki shaxsning (so'zlovchi va tinglovchining) o'zaro muloqoti rus yoki ingliz tillarida amalga oshishi ham mumkin. Bunday hollarda rus yoki ingliz tili kontakt til vazifasini o'taydi. Bu til vositachi til deb ham ataladi.

Til kontaktlari tufayli tillar bir-biridan uzoqlashishi yoki yaqinlashishi mumkin. Tillarning til kontakti natijasida uzoqlashuvshi divergensiya (divergensiya jarayoni) deyiladi. Bunday jarayonlarda tillarning o'zaro yaqinlashuviga nisbatan konvergensiya (konvergensiya jarayoni) atamasi ishlatiladi.

Til kontaktining amalga oshishi uchun kommunikativ lahzani tashkil etuvchi shaxslarning (so'zlovchi – adresant va tinglovchi – adresat) yoki ulardan birining o'z tilidan tashqari, muloqot vositasiga aylangan o'zga tilni ham bilishi shart. Muloqot so'zlovchi ham, tinglovchi ham mansub bo'lmagan boshqa uchinchi tilda, ya'ni vositachi tilda amalga oshirilsa, so'zlovchining ham, tinglovchining ham ana shu – vositachi tilni bilishi talab qilinadi. Aks holda, kommunikatsiya jarayoni vujudga kelmaydi.

Til kontakti bilingv, bilingvizm, polilingv, polilingvizm atamalari anglatgan tushunchalar bilan chambarchas bog'liqdir. Muloqotning ikki har xil tilda amalga oshishi bilingvizm deyiladi.

Bilingvizm ikkitillik demakdir. Bilingvizm lotin tilidan olingan, bi – ikki, lingua – til ma'nolarini anglatgan. Ikki tilda so'zlasha oluvchi shaxsga nisbatan bilingv atamasi ishlatiladi. Bilingvizm (ikki tillilik) va bilingv (ikki tilni biluvchi) atamaları anglatgan tushunchalarni til kontakti hodisasiga daxldor monoglossiya (grekcha monos – bir, glossa - nutq, til) va diglossiya (grekcha di – ikki, glossa – til, nutq) atamaları anglatgan tushunchalardan farqlash kerak. Monoglossiya tushunchasi bilingvizm tushunchasining aksi bo'lib, bir tilning nutqiy amalini bildiradi. Diglossiya atamasi ostida esa bir tilning turli vazifaviy yoki hududiy shakllariga xos nutqiy amali tushuniladi. Masalan, ayrim olingan shaxslar o'zbek tilining adabiy shaklidan ham, uning ma'lum bir hududiy (shevaga xos) shaklidan ham bir xil foydalana oladi. Ana shunday imkoniyat diglossiya deyiladi. Demak, bir til yoki uning biror shevasining amaliga nisbatan monoglossiya atamasi ishlatilsa, uning har xil uslub va hududiy ko'rinishlari amaliga nisbatan diglossiya atamasi qo'llanadi.

Bilingvizm atamasi anglatgan nutqiy imkoniyat interferensiya, assimilyatsiya atamaları bilan nomlanuvchi tushunchalar bilan bog'lanadi. Interferensiya jarayonida bilingv (ikki tilni biluvchi) bir tilga xos lisoniy xususiyatlarni boshqa ikkinchi tilga beixtiyor «ko'chirib» qo'yadi. Bu jarayonda bir tilning ikkinchi tilga ta'siri ko'zga tashlanadi. Bir tilga xos lisoniy unurning yoki uning ayrim qonun-qoidalarining boshqa til tomonidan o'zlashtirilishi va singdirilishi assimilyatsiya deb yuritiladi. Masalan, o'zbek va tojik tili kontakti amalining natijasi o'laroq, tojik tilining ta'sirida o'zbek tili singarmonizm hodisasidan xoli bo'ldi (interferensiya). Hozirgi o'zbek adabiy tili turkiy tillarning singarmonizmsiz turiga aylandi, unda singarmonizm fonetik qonuniyat sifatida barham topdi (assimilyatsiya). interferensiya jaryoni mushtarak hududda yashovchi o'zbek yoki tojik tillari jamoasiga mansub shaxslar nutqida yanada faolroq ko'zga tashlanadi. Boshqa tilga xos ayrim tovushlar, morfemalar, so'z yoki iboralar, ularning andaza (model)lari interferensiya jaryoniga uchrashi mumkin. Ayniqsa, so'z yoki ibora, ularning interferensiyalashuvi alohida xususiyatga ega. Masalan, Shimoliy Tojikistonda Isfisor degan katta bir qishloq bor. U G'afurov shahri bilan tutashib ketgan, Xo'jand shahriga ancha yaqin. Isfisorning aholisi – o'zbeklar.

Ularning nutqiy muomalasida tojik tilining ayni shu hududlarga xos *asyoq, yaxshi bormisiz? (Yaxshimisiz?)* singari lisoniy unsurlari faol qo'llanadi. *Yaxshi bormisiz?* Shimoliy Tojikiston (aniqrog'i, Xo'jand atrofi)ning shu hududida amal qiluvchi *Nag'z hayitmi?* iborasi andazasi (modeli)da hosil qilingan. Bunday interferensiyaning shunchaki oddiy ko'rinishlaridan biri, xolos. Xo'jand va uning atrofi tojiklari nutqida o'zbek tiliga xos lisoniy unsurlarning interferensiyasi ham yo'q emas. Ma'lumki, o'zbek va tojik tillari tipologik jihatdan farq qiladi. Ular grammatik qurilishi har xil tillardir. O'zbek tilida grammatik ko'rsatkichlar (masalan, ko'makchilar, kelishik qo'shimchalari) lug'aviy birliklardan keyin qo'shiladi. Tojik tilida esa, aksincha (old qo'shimcha – peshoyand), mustaqil ma'noli lug'aviy birliklar ortiga qo'shiladi. O'zbek tilida kelishik kategoriyasiga xos barcha qo'shimchalar so'z oxiriga qo'shiladi. Masalan, jo'nalish kelishigi qo'shimchasini olaylik: *maktabga bordi, dalaga jo'nadi*. O'zbek tili grammatik qurilishiga xos bu xususiyat – Xo'jand va uning atrofi tojiklari tiliga interferensiya bo'lgan: *maktabba raftan, sahroba ravona shudan* va b.

Interferensiyaning ommaviy tus olishi tufayli assimilyatsiyaga keng yo'l ochiladi. Aburayhon Beruniy ishlari va boshqa manbalardan ma'lumki, qadimgi Xorazmda eron tillari guruhiga mansub xorazmiy tili va shu tilda so'zlashuvchi xalq bo'lgan. Hozir esa, Xorazmda bunday til yo'q. U o'zbek tiliga singishib, assimilyatsiyalashib ketgan.

Ba'zan shunday hollar ham bo'ladiki, turli tillarda so'zlashuvchi qo'shni xalqlarning tillarida qo'shni xalq tiliga xos lisoniy unsurlar paydo bo'ladi. Bu hodisa adstrat deyiladi. Masalan, o'zbek va tojiklar qo'shni xalqlar hisoblanadi. Ularning biri (o'zbeklar) O'zbekistonda, boshqasi (tojiklar) Tojikistonda yashaydi. Shunga qaramay, bu ikki xalqning tillarida adstrat tushunchasi bilan aloqador lisoniy xususiyatlar mavjud. Janubiy O'zbekiston aholisi tilida tojik adstrati, Shimoliy Tojikiston aholisi tilida esa o'zbek adstrati sezilarli amal qiladi. Bu hodisa o'zbek va qirg'iz, o'zbek va qozoq, o'zbek va qaraqolpoq, o'zbek va turkman, tojik va qirg'iz, tojik va turkman va h.k. tillari munosabatida ham ko'zga tashlanadi.

Til kontaktlari superstat degan tushuncha bilan ham aloqadordir. Superstat atamasi anglatgan tushuncha

hududdosh xalqlarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy mavqelaridagi baland-pastlikka asoslanadi. Bunda bir xalqning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy mavqei boshqa xalqnikidan ustun bo'ladi. Mavqesi ustun xalq mavqesi past bo'lgan xalqni o'ziga buysindiradi. Buning oqibatida mavqe jihatidan past bo'lgan xalqning tili mavqe jihatidan ustun bo'lgan xalqning tili tarkibiga singishib, bora-bora yo'qoladi. Hozirgi ingliz tilning shakllanishida superstat hodisasi yaqqol ko'zga tashlanadi. Bunda norman tili anglosakson tilini o'ziga bo'ysindirgan. Ingliz tilining shakllanishida norman tili superstatlik vazifasini bajargan.

Ilmiy manbalarda til kontaktlarining distal va proksimal kabi ikki turi e'tirof etiladi. Til kontaktlarining bu har ikki turi ta'sirdosh tillarning rivojlanishida muhim vazifa bajarsa-da, ularning hududiy amali xarakteriga ko'ra, farq qiladi. Ahamiyati jihatidan proksimal kontakt distal kontaktdan ustunroqdir. Chunki proksimal kontaktda tillarning fonetik-fonologik, lug'aviy-frazeologik, morfem, so'z yasalishi va grammatik tizimlarida sezilargi ijobiy o'zgarishlar bo'ladi. Til kontakti tufayli bir tildan boshqa til ixtiyoriga o'tgan lisoniy unsurlar o'zga tilning o'z mulkiga aylanadi, ikki tillilikka ravon yo'l ochadi. O'zbek va tojik tillarining o'zaro aloqasi proksimal xarakterdagi til kontaktiga asoslanadi. Distal tavsifdagi til kontaktda har xil tillarning o'zaro aloqasi biridan boshqasiga so'z o'zlashtirish bilan cheklanadi. Til kontaktining bu turiga o'zbek va arab tillari aloqasini kiritish mumkin.

Proksimal til kontaktlari bilan distal til kontaktlarining o'zaro farqi yana shundaki, proksimal til kontaktlari ikki tillilik (bilingvizm) sharoitida amal qiladi, distal til kontaktlari esa bir tillilik (monolingvizm) sharoitiga xos bo'ladi. Proksimal til kontaktda ikki va undan ortiq tillarning aloqasi vujudga keladi, demak, uning amali polilingvizm (ko'p tillilik) sharoiti bilan bog'lanadi. Proksimal til kontaktda o'zaro aloqadagi tillardan biri modifikatsiyalashib, oldingilaridan farq qiluvchi yangi bir sistemaning yaratilishi uchun imkoniyat paydo bo'ladi.

Proksimal xarakterdagi til kontaktlariga O'rta Osiyo va Eron xalqlari tillariga xos o'zaro ta'sirdoshlikni misol keltirish mumkin. Chunki bu hudud xalqlari tillarida substrat–adstrat munosabatlarning anchagina murakkab ko'rinishlari amal qilgan. G'arbiy Eronda forsiyzabon kelgindilar eramizdan oldingi



1-ming yilliklardan boshlab Hind-Ovrupo lisoniga mansub bo'lmagan tillarga tazyiq o'tkaza boshlagan. Keyinchalik Hind-Ovrupo tillariga turkiy superstatning ta'siri kuchaygan (eramizning VI asridan boshlab). Turkiyzabon superstatning bu ta'siriga dastlab Yettisuv va Farg'ona, keyinroq Xorazm aholisi duch keladi. Forsiyzabon (eroniyzabon) aholini turkiylashtirish (o'zbeklashtirish) bir necha yuz yillar davom etdi va hozir ham bu jarayon tugal nuqtaga yetgan emas. Forsiyzabon (tojik-fors) lisonining asoratlari shaharlardagina uzoq saqlandi. Shunisi ham borki, forsiyzabon (eron) substratning turkiy-o'zbek tilga ta'siri ham katta bo'ldi: o'zbek tili turkiy tillar ichida singarmonizmdan xoli bo'lgan yagona tilga aylandi.

Turkiyzabon aholining forsiy (eron)lashuvi jarayoni ham bo'lgan, albatta. Surxon vodiylarida forsiyzabon aholining anchagina qismi o'zlarini turkiy urug'laridan kelib chiqqan tojiklar deb hisoblaydi<sup>24</sup>. Ikki tillilik bilan bog'liq jarayonlar faqat tilshunoslikning ob'ekti bo'lish bilan cheklanmaydi. Bu jarayon jamiyatshunoslik (falsafa) va ruhshunoslik (psixologiya) fanlarining ham o'rganish ob'ektidir. Demak, seziladiki, ikki tillilikning sof lingvistik, ijtimoiy-iqtisodiy va ruhiy-psixik jabhalari mavjuddir. Mana shu jabhalarning o'zaro munosabatidan ikki tillilik bir butun hodisa xarakterini kasb etadi.

Ikki tillilik o'z navbatida til vaziyati deb ataluvchi tushuncha bilan organik bog'liqlikka ega. Rus ijtimoiy tilshunoslik (sotsiolingvistik) tormog'ining asoschisi, taniqli rus olimi V.A.Avroring e'tiroficha, til vaziyati – bu xalq hayotining muayyan tarixiy taraqqiyoti bilan bog'liq ijtimoiy-lisoniy jarayondir. Bu jarayonda tillar ta'sirdoshligining konkret tipi va muayyan vazifaviy (amaliy) ko'rinishi nazarda tutiladi<sup>25</sup>. Yana boshqa bir rus sotsiolingvisti L.B.Nikolskiy til vaziyati tushunchasini til, uning lahja va vazifaviy uslublarining muayyan etnik guruhga xos mazmuniy-hududiy amallari tizimi (majmuasi) sifatida baholaydi<sup>26</sup>.

---

<sup>24</sup> Журавлёв В.К. Внешние и внутренние факторы языковой эволюции. – М.: Наука, 1982, 165-б.

<sup>25</sup> Аврорин В.А. Соотношение субъективных объективных факторов в языке. – М.: Наука, 1975, 25-б.

<sup>26</sup> Никольский Л.Б. Синхронная социоллингвистика. Теория и проблемы – М.: Наука, 1976, 79-80-б.

Til vaziyati o'zaro bog'liq uch holat asosida shakllashadi: 1) til amaliy-vazifasining ijtimoiy shart-sharoitlari; 2) tildan foydalanishning chegarasi va ko'lami; 3) tilning amaliy-vazifaviy shakli.

Til vaziyati makrolingvistikaning tekshirish ob'ekti sanaladi. U ikki tillilik (bilingvizm) va ko'p tillilik (polilingvizm) tushunchalarini o'z ichiga oladi.

Ikki tillilik (bilingvizm) va ko'p tillilik (polilingvizm) tushunchalarining individual ikki tillilik yoki ko'p tillilik, ommaviy ikki tillilik yoki ko'p tillilik kabi ikki turi mavjud. Individual ikki tillilik yoki ko'p tillilikda muayyan til jamoasiga qarashli ayrim shaxslarning o'z tilidan tashqari, boshqa ikki va undan ortiq tillarda so'zlasha olish imkoniyati tushuniladi. Ommaviy ikki tillilik yoki ko'p tillilikda muayyan til jamoasining o'z tilidan tashqari, boshqa ikki va undan ortiq tillarda so'zlashma olish imkoniyati nazarda tutiladi.

Tojikistonning ayrim hududlarida ko'p tillilik (polilingvizm) vaziyati ham mavjud. Shimoliy Tojikistonning deyarli barcha tumanlarida qirg'iz millatiga mansub aholi ham istiqomat qiladi. Ular o'zbek tilida ta'lim oladi, tojik tilida esa bema'lol so'zlashadi. Shu aholiga mansub ko'pgina shaxslar esa rus tilini ham biladi. Ana shunday aholi yashaydigan hududlarda ko'p tillilik vaziyati amal qiladi.

### **1.6.O'zbek til kontaktlari tarixidan**

O'zbek tili qadimiy tillardan biridir. U xalq tili asosida shakllangan bo'lib, asrlar osha o'z lug'at boyligini shakllantira va boyita borib, fonetik, grammatik va uslubiy qurilishini hozirgacha takomillashtirib kelmoqda.

O'zbek tili o'zbek etnik jamoasining aloqa-aralashuv vositasidir. U o'ttiz milliondan ortiq o'zbek xalqining milliy lisoniy boyligidir.

O'zbek xalqi ko'p asrlar mobaynida qadimgi O'zbekiston hududida ko'pgina turkiy urug' va qabilalarning birlashuvi va o'troqlashuvi natijasida tarkib topgan. Mazkur jarayonda bu etnik jamoa juda murakkab ijtimoiy-tarixiy jarayonlarni boshdan kechirgan. Bu murakkab jarayon uning til jihatdan mustaqil shakllanishi va rivojlanishida ham yuz bergan.

O'zbek millati, til nuqtai nazaridan, quyidagi uch yirik etnik komponentning birikuvidan tashkil topgan.

1) Janubi-sharqiy til. Bunga ko'pchilik shahar o'zbeklarining tili, «qarluq» deb ataluvchi lahjalar, eski o'zbek tili va hozirgi o'zbek adabiy tili kiradi;

2) Janubi-g'arbiy til. Bunga o'zbek tilining o'g'uz lahjasi kiradi;

3) Shimoli-g'arbiy til. Bunga asosan «j»lovchi shevalarni o'zida birlashtiruvchi qipchoq lahjasi kiradi.

Ana shu va shu kabi ijtimoiy-lisoniy shart-sharoitlar o'zbek tilining turkiy tillar oilasidan mustaqil lison sifatida ajralib chiqishi va shakllanishiga sabab bo'lgan.

O'zbek tilining turkiy tillar oilasidan mustaqil lison sifatida ajrab chiqishi shu til jamoasining umumturkiy jamoadan alohida etnik guruh sifatida ajrab chiqqan davridan boshlanadi. Bu davr, olimlarning e'tirofiga qaraganda, o'zbek tilining qadimgi davri hisoblangan va o'ninchi asrgacha davom etadi.

O'zbek tilining qadimgi davri boshqa turkiy tillarga ham tegishli bo'lgan urxun yodnomalari, uyg'ur va boshqa yozuvlarda bitilgan yodnomalarni o'z ichiga oladi. Shu davrdan e'tiboran, o'zbek tili unga qardosh va qardosh bo'lmagan tillar bilan turli darajada aloqaga kirisha boshlagan. O'zbek tilining boshqa tillar bilan turli darajadagi aloqasi o'zbek til kontakti va uning o'ziga xos ko'rinishlari uchun sabab bo'ladi.

Keltirilgan bu yodnomalarda uchrovchi boshqa chet til o'zlashmalaridan ma'lum bo'ladiki, o'zbek tili ham mansub bo'lgan qadimgi turkiy til xitoy, sanskrit va so'g'd tillari bilan lisoniy kontaktda bo'lgan. Bunga mazkur yodnomalarda uchrovchi shu tillarga (xitoy, sanskrit, so'g'd) xos so'zlarining mavjudligi guvohlik beradi.

1969-yili Leningradda «Qadimgi turkiy lug'at» (Drevnetyurkskiy slovar) nashr etiladi. Unda turkiy tillarga o'tib qolgan o'zga xalq tillariga tegishli so'zlar ham berilgan. Jumladan, *luchan* (*nuroni*), *luchanta* (*yaltiroq*), *maxaraj* (*hokim*), *maxaruk* (*mifik mavjudodning bir turi*), *namo* (*ibodat*), *prat* (*dev*) va boshqa o'nlab diniy tushunchalarga oid; *ansmar* (*tutqanoq*), *livang* (*qalampirmunchoq*), *lodur* (*o'simlik turi*), *matulung* (*limon*) singari bir qator tibbiyot va o'simliklar olamiga tegishli sanskritcha so'zlar ham keltirilgan.

Mazkur lug'atda qadimgi turkiy yodnomalarida uchrovchi *an* (*sud ishi*), *ban* (*o'n ming*), *ban* (*yozuv taxtasi*), *tsang* (*xazina*), *bugung* (*tilxat*), *buda* (*uzum*), *bulang* (*ayvon*), *bo'k* (*devor*), *bau* (*pul*), *chan* (*piyola*), *xua* (*gul*), *chuan* (*bahor*), *chug'* (*loyqa*), *mir* (*asal*), *yan* (*barg*), *tetsa* (*o'quvchi*), *to'* (*atala*), *chusum* (*tut*), *to'y* (*o'simlik nomi*) singari turli sohalarga oid bir necha o'nlab xitoycha so'zlar berilgan.

Mahmud Qoshg'ariyning mashhur «Devonu lug'otit-turk» asarida «chinliklarning (ya'ni xitoyliklarning) alohida tillari bor bo'lsa ham, shaharliklari turkchani yaxshi biladilar» degan fikr uchraydiki, bu qadimgi turkiy til bilan xitoy tilining bevosita kontaktda bo'lganligidan dalolatdir.

Qadimgi turkiy xalqlar so'g'dlar bilan yaqin aloqada bo'lganlar. Bu aloqa, hech shubhasiz, qadimgi turkiy tilning so'g'd tili bilan bevosita kontaktiga sabab bo'lgan. Buning natijasida o'sha davrda turk-so'g'd ikki tilliligi shakllangan, bu ikki tilning biridan ikkinchisiga son-sanoqsiz so'zlar o'tib, o'zlashgan. Masalan, qadimgi turkiy tilda uchrovchi *ajun* (*dunyo*), *badir* (*idish*), *mag'* (*oy*), *vaxshik* (*baxt*), *ruch* (*kun*), *rushan* (*yorug'lik*), *sarvag'* (*saroy*), *kand* (*shahar*), *shamnu* (*shayton*) va shu kabi boshqa o'nlab so'g'dcha so'zlar buning guvohidir.

Arab tilidan o'zbek va boshqa turkiy xalqlar tiliga ko'plab so'zlar o'zlashgan bo'lsa-da, eng qadimgi turkiy yodnomalarida negadir arab lisoniy birliklari uchramaydi. Buning sababi shundaki, so'z yuritilayotgan o'sha davrda turkiy tillar arab tili bilan bevosita aloqada bo'lgan emas.

Turkiy tillarning arab tili bilan aloqaga kirishuvi o'n birinchi asrdan boshlanadi. Bu davrda qadimgi turkiy til o'rnini eski turkiy til egallay boshlaydi. Ayni davrda fors tilining ijtimoiy mavqei yuqorilab, so'g'd tilining iste'moliga mone'lik qila boshlaydi. Qisqa muddat ichida fors tili mukammal shakllanib, boshqa tillarga, shu jumladan, turkiy (o'zbek) tillariga ham o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi. Natijada turkiy-fors til kontaktiga lisoniy sharoit paydo bo'ladi.

Qadimgi turkiy til ma'lum darajada arab tili bilan ham lisoniy kontaktda bo'lgan. O'rta Osiyoda arablar hukmronligi davrida o'zbek-arab til kontakti vujudga keldi. Bu davrda arab tili davlat va fan tili, fan va rasmiy yozishmalar tili sifatida keng tarqaldi.

O'zbek tili, bir tomondan, arablarning oddiy so'zlashuv tili bilan, ikkinchi tomondan, arab yozma adabiy tili bilan to'qnashdi.

Arab tili mahalliy aholiga davlat va fan tili, ayniqsa, din tili sifatida o'qitildi va singdirildi. Natijada mahalliy aholi vakillari o'z ona tili bilan bir qatorda, arab tilida ham yozadigan va gapiradigan bo'ldi. O'rta Osiyolik mashhur olimlar Abu Rayhon Beruniy (973-1048), Xorazmiy (795-857), Abu Ali ibn Sino (980-1037), Abu Nasr Farobiy (873-950), Ahmad Farg'oniy (861-yili vafot etgan) va boshqalar o'z ilmiy asarlarini arab tilida yozganlar. Shunday kilib, o'zbek-arab bilingvizmi, o'zbek-arab til kontakti vujudga keldi va arab tilidan o'zbek adabiy tiliga, qisman uning mahalliy shevalariga ham arabcha so'zlar kirib kela boshlagan.

Arab tilining o'zbek adabiy tiliga ta'sirini Alisher Navoiy ijodidagi arabcha so'zlar salmog'idan ham bilsa bo'ladi. Navoiy asarlari tilining 30-33 foizini arabcha so'zlar tashkil kiladi.

Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'otit turk», Yusuf xos Xojibning «Qutadg'u bilik» («Saodatga yo'llovchi bilim») asarlari eski turkiy tilning xususiyatlarini o'zida aks ettiradi. «Qutadg'u bilik»da diniy, axloqiy va falsafiy tushunchalarga oid arab so'zlari ko'plab uchraydiki, bu eski turkiy va arab tillari kontakti amalidan darak beradi. Chunonchi, *zuljalol* (*Allohga nisbatan: ulug'vorlik*), *kamol* (*yetuklik*), *qodir* (*qudratli*), *rasul* (*payg'ambar*), *xaloyiq* (*xalqlar*), *salom* (*salom*), *malik* (*podshoh*), *mashriq* (*sharq*), *xazina* (*xazina*), *meros* (*meros*), *hakim* (*faylasuf*), *amorat* (*amirlik*), *ajab* (*qiziq*), *baqo* (*doimiylik*), *xarob* (*buzuq*), *raiyyat* (*aholi*), *sano* (*maqto'v*), *ofiyat* (*esonlik*) va shu kabi yuzlab arabcha so'zlar buning yorqin dalili bo'la oladi.

O'zbek tilida arab lug'aviy o'zlashmalari o'n beshinchi asrdan boshlab ko'paya boshladi. O'zbek adabiy tilida arab lug'aviy o'zlashmalari fan va texnikaning deyarli barcha tarmoqlarida uchraydi. Masalan,

- 1) falsafaga oid *abad*, *azal*, *zamon*, *makon*, *ma'rifat*;
- 2) mantiqqa oid *qiyos*, *ma'qulot*, *had*, *homil*, *maxmul*;
- 3) etikaga oid *sadoqat*, *axloq*, *adovat*, *munofik*;
- 4) psixologiyaga oid *his*, *hissiyot*, *aql*, *rag'bat*, *iroda*;
- 5) siyosatga oid *siyosat*, *jamiyat*, *jamo'a*, *mamlakat*, *davlat*, *targ'ibot*, *tashviqot*;

- 6) tilshunoslikka oid *ma'no, mazmun, ism, jumla, fe'l, imlo, ohang, ravish*;
- 7) adabiyotshunoslikka oid *she'r, shoir, nazm, nasr, ruboiy, qofiya, g'azal, vazn, marsiya, masal, mubolag'a, murabbo, majoz*;
- 8) astronomiyaga oid *falak, fazo, sayyora, sarv, asad, sunbula, mezon, qavs, shams, qamar*;
- 9) maorifga oid *maktab, madrasa, ta'lim, tarbiya, savod, muallim, mudarris, dars* va b.q.

Bularning ko'pi fan va texnikaning ana shu sohalarida o'zgarishsiz ishlatiladi.

Ayrim olimlarning kuzatishlaridan ma'lum bo'ladiki, o'zbek tili leksikasidagi arab so'zlari miqdori o'tgan asrning yetmishinchi yillari arafasida yana ko'paygan. Masalan, professor M.Mirzayev «Qizil O'zbekistoni» gazetasining 1947-1948-yillarda chiqqan 4-sonini kuzatganda, undagi so'zlarning 18,7 foizi arab tiliga tegishli bo'lgan. 1966-yili «Toshkent oqshomi» gazetasida «Festival qo'shiqlari yangraydi» sarlavhasi bilan bosilgan maqolada 26,9 foiz arab so'zlari ishlatilgan. Hatto texnikaga oid maqolalar matnida ham arab so'zlarining salmog'i kam bo'lmagan. Chunonchi, «Sovet O'zbekistoni» gazetasining 1967-yil 18-yanvar sonida bosilgan «Texnika remonti» sarlavhali maqola leksikasining 22 foizini arab so'zlari tashkil etgan<sup>27</sup>.

Hozirgi davrda arab tilining o'zbek tiliga ta'siri ancha susaygan, chunki endilikda o'zbek va arab tillari orasida bevosita kontakt mavjud emas, u barham topgan.

O'zbek va rus tillari kontakti alohida yirik mavzu bo'lib, rus tilining turkiy tillarga, xususan, o'zbek tiliga ta'siri masalasi muhim sotsiolingvistik ahamiyat kasb etadi. Turkiy va rus tillarining aloqasi Rossiya bilan O'rta Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy va madaniy aloqalar zaminida paydo bo'lgan.

Ma'lumki, rus va O'rta Osiy xalqlarining o'zaro aloqasi uzoq tarixga ega. Buni turkiy tillar, xususan, o'zbek tiliga kirib o'zlashgan rus so'zlaridan bilish mumkin. Rus va o'zbek tillari

---

<sup>27</sup> Мирзаев М. Бухоро ўзбек ва тожик шеваларининг ўзаро муносабати тўғрисида //Ўзбек диалектологиясидан материаллар. 1-том. -Тошкент, 1961.

aloqasi O'rta Osiyoning Rossiyaga qo'shib olinishidan keyin yanada kuchaydi. Muqimiy, Furqat, Avaz, Ibrat singari o'zbek ma'rifatparvarlari ijodida qo'llangan ruscha so'zlar buning yaqqol dalilidir. Shuningdek, chorizm davrida Turkistonda nashr etilgan «Turkiston viloyati gazetasi»da ham bir qator ruscha so'zlar uchraydiki, bu ham yuqorida aytilgan fikrni tasdiqlaydi.

Professor A.K.Borovkovning ko'rsatishicha, 1905-yilgi birinchi rus inqilobidan keyin o'zbek tiliga rus so'zlari va rus tili orqali lotin-yunon va yevropacha so'zlar kira boshlagan<sup>28</sup>. Bu davrda rus va boshqa tillarga mansub so'zlar asosan nutqning og'zaki shakli orqali o'tgan. Ular o'sha davr imlosida ham shu shakllarini saqlagan holda yozilgan. Masalan, *iskalod (sklad)*, *inastran (inostranets)*, *pirakuror (prokuror)*. Shuningdek, fransuz va italyan tillariga qarashli *ko'ng'ira (kongress)*, *qumita (komitet)*, *teatru (teatr)*, *sug'urta (straxovanie)* singari ayrim so'zlar o'zbek tiliga rus tili orqali o'tgan.

O'zbek tiliga 1905-1907-yillar birinchi rus inqilobidan keyin o'tgan so'zlar qishloq va shaharlarning turmushidagi yangi tushunchalarni ifodalagan. Chunonchi, *zavod, fabrika, gastinitsa, konka (tramvay), mashina, poyezd, vokzal, vagon, pochta, kvartir. zalog, podryad; uprava (upravlenie), bo'lis (volost), guberniya, zakaz, firma, birja, arbitraj, bank, rasxod, oborot, partiya, miting, дума* va b.

Rus tili so'zlarining o'zbek tiliga kirib kelishi, ayniqsa, Oktyabr inqilobidan keyin faollashdi. O'zbek va rus lisoniy kontakti ikki xalq o'rtasidagi do'stona munosabat, siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarning yaqin bo'lishi, ham yozma, ham og'zaki nutqning ijobiy ta'siri tufayli yuzaga keldi (Bu haqda keyingi mavzularda atroflicha ma'lumot beriladi).

Turkiy urug' va qabilalar tili juda qadimiy davrlarda O'rta Osiyoda azaldan yashab kelgan eroniy tillar bilan aloqada bo'lgan. O'rta Osiyoda, jumladan, hozirgi O'zbekiston hududida yashagan xalq eroniy tillar guruhiga kiruvchi mahalliy til lahjalarida gaplashgan. Bu urug' – qabilalar, xalqlar – so'g'dlar, saklar, massagetlar, baktiryaliklar, parfiyaliklar, parikaniylar, xorazmiylar va boshqalarning tili bo'lgan. Shuningdek, qadimiy Baktiriya podshohligida yunon tilidan, shuningdek, yunon va

---

<sup>28</sup> Боровков А.К. Изменения в лексике узбекского литературного языка и новый алфавит // Изв. Уз ФАН ССР, №7.

eroniy tillar qorishmasidan iborat bo'lgan tildan ham foydalangan.

Ma'lum tarixiy sabablarga ko'ra, tojik-fors tili, xususan, uning adabiy tili o'zbek tilining adabiy tili rivojida arab tiliga nisbatan ham muhimroq ahamiyat kasb etadi. Buning sababi o'zbek va tojik xalqlarining asrlar davomida bir umumiy hududda yashab, bir xil tarixiy sharoitda turmush kechirishlaridir. Buning natijasida bu ikki xalqning urf-odatida, dunyoqarashida, san'at, adabiyot, musiqa singari madaniy hayotida ko'pgina mushtarak unsurlar yuzaga keldi.

Adabiyot va uning turli janrlarida, rasmiy hujjatlar, ilmiy-falsafiy va diniy asarlar tilida, uslubida ozmi-ko'pmi umumiy nuqtalar shakllandi. Bu umumiylik hatto she'riy-aruz vaznidan foydalanishda ham mavjud edi.

Fors-tojik tilining o'zbek tiliga ta'siri, ayniqsa, Somoniylar sulolasi davrida ancha sezilarli bo'lgan. Bu davrda fors-tojik tili davlat maqomidagi adabiy til sifatida keng tarqala boshlagan edi. Natijada barcha ijtimoiy sohada hukmron bo'lgan arab tilining mavqei susayib, iste'moli so'na boshlagan. XIV–XV asrlarda turkiy (o'zbek) ziyolilar, shoirlarning ko'pi tojik tilini yaxshi bilganlar. Har ikki tilda bir xil saviyada ijod qilganlar. Alisher Navoiy bu borada shunday yozgan edi: «Turk shuarosikim, forsiy til bila rangin ash'or va shirin guftor zohir qilurlar... Turkning ulug'idin kichigiga degincha va navkaridin begiga degincha sart tilidan bahramanddurlar».

Tojik tilining o'zbek tiliga ta'siri adabiy tilning ham yozma, ham og'zaki shakllarida amalga oshib, o'zbek tili leksikasida katta salmoqda tojik so'zlari qatlami vujudga keladi. Bu ta'sir o'zbek tilining grammatik qurilishida ham o'z ijobiy iziga ega bo'ldi. O'zbek tili fonetik tizimida tojik tilining ta'siri ancha sezilarli bo'ldi.

### **1.7. Interferensiya va uning o'zbek va tojik tillari kontaktiga aloqasi.**

Interferensiya – tilshunoslik fanida nisbatan yangi tushuncha. Shuning uchun bo'lsa kerak, O.S.Axmanovanning «Lingvistik atamalar lugati»da bu atama va uning fanniy tushunchasi haqida ma'lumot berilmagan<sup>29</sup>.

---

<sup>29</sup> O.S.Axmanovanning «Словарь лингвистических терминов». – М., 1969



S.M.Lokshina tomonidan tuzilgan «Chet soʻzlar qisqacha lugʻati»da «interferensiya» atamasi va uning sharhi berilgan. Maʼlum boʻlishicha, bu atama lotincha *inter* va *ferens* soʻzlaridan olingan, tarjimasi “oʻzaro taʼsir» iborasiga toʻgʻri keladi.

Interferensiya keng va tor maʼnolarda qoʻllaniladi. Keng maʼnodagi tushunilishi interferensiyaning nolingvistik tomonlari boʻlib, tilshunoslik fani uchun muhim emas.

Interferensiyaning lingvistik sharhi va mohiyati U.Vaynrayx, V.V.Alimov, E.Xaugen, E.M.Vereshchagin, V.Yu.Rozensveyg, L.M.Uman, V.V.Klimov, Yu.D.Desheriyev, I.F.Protchenko, V.A.Vinogradov, Yu.K.Jluktenko, L.I.Barannikova, Z.U.Blyagoz, R.K.Minyar-Beloruhev, N.G.Mixaylovskaya, L.V.Shcherba, M.T.Zokirov asarlarida berilgan. U.Vaynrayx tomonidan aytilgan sharh interferensiyaning lingvistik jabhadagi amaliga bevosita tegishli. U «bilingv nutqida bir necha tillarni bilish natijasida vujudga kelgan til meʼyorlaridan ixtiyoriy ravishda chekinish holatlari» interferensiya deb tushunsa, M.T.Zokirov esa «interferensiya – bu ona tilida mustahkamlangan til koʻnikmalarini oʻrganilayotgan ikkinchi tilga ixtiyorsiz ravishda olib oʻtish natijasidir», deydi<sup>30</sup>.

Demak, shunisi muhimki, interferensiyaning amali nolingvistik xarakterdagi hodisalarda ham mavjud. Shuningdek, bu tushunchaga xos xususiyatlar tabiat hodisalari va ularning oʻzaro munosabatlarida ham uchraydi. Shu bois interferensiya lingvistik xarakterga nisbatan koʻproq ijtimoiy-psixologik tavsif ham kasb etadi.

E.M.Axunzyanov, I.A.Zimnyaya, A.A.Leontev, N.M.Kurmanbaev, A.A.Zalevskayalar kabi olimlarning ishlarida interferensiya psixologiyaga qarashli hodisa sifatida oʻrganilgan: bir ish-harakatga xos xususiyatlarning ikkinchi boshqa ish-harakat tarkibiga bir xil koʻnikma va malaka bilan oʻtkazilishi interferensiya deb tushuniladi.

Tilshunoslikda interferensiya, uning sotsiolingvistik yoʻnalishiga oid tushuncha sifatida qaraladi. Bir tilga xos xususiyatning boshqa til qurilishi yoki uning biror-bir ichki tizimiga lisoniy jihatdan taʼsiri interferensiya deyiladi.

---

<sup>30</sup> Зокиров М. Лингвистик интерференция ва унинг ўзбек-тожик билингвизмида намоён бўлиши. НДА. Тошкент, 2007.

Boshqacha ta'bir bilan aytganda, interferensiya bir tilga xos xususiyatning boshqa til qurilishi yoki uning biror-bir hodisasiga beixtiyor o'tkazilishidir.

Interferensiya bilingv (ikki har xil tilda so'zlasha oluvchi shaxs) va bilingvizm (ikki tillilik) tushunchalari bilan uzviy bog'liq sotsiolingvistik jarayon hisoblanadi. Zero, interferensiya bilingv nutqiy faoliyati bilan aloqador va nutq jarayonida vujudga keluvchi hodisa sanaladi.

Lingvistik interferensiya til sistemasining barcha sathlarida uchraydi. Shunga ko'ra uning «fonetik, leksik-semantik, morfologik, sintaktik» turlari ajratilgan.

Interferensiya jarayonda bir tilning fonetik yoki g'rammatik qurilishiga xos xususiyatlar ta'sirida boshqa ikkinchi bir tilning fonetik yoki grammatik qurilishiga xos rasmiylashgan me'yor unutiladi yoki hisobga olinmaydi, to'g'rirog'i, ikkinchi boshqa tilning fonetik yoki grammatik me'yoriga rioya qilinmaydi. Chunonchi, har bir tilning fonologik tizimi uning fonetik tizimi bilan uyg'unlikda amalga oshadi. Har bir fonema, u unli yoki undoshligidan qat'iy nazar, adabiy tilning orfoepik me'yoriga rioya qilinishi talab etiladi. Chunki har bir fonemaning adabiy nutqqa xos rasmiy ohangi (intonemasi) bo'ladi. Bir til jamoasiga mansub shaxs boshqa tilda yozilgan matnni o'qiganda, u o'sha tilning fonemalarini o'z tiliga xos talaffuzda o'qiydi. Natijada nutqiy lahzada ikkinchi tilning orfoepik me'yori «buziladi». Bu interferensiyaning til fonemalar sathiga xos ko'rinishlaridan biridir. Masalan, o'zbek til jamoasiga mansub o'quvchi yoki talaba tojik yoki rus tilida bitilgan matnni o'qiganda, u shu tillarga xos fonemalarni, ularning adabiy til orfoepik me'yorlarini bilmaganligi uchun, o'zbek tili fonemalarining orfoepik qonun-qoidalari ta'sirida o'qiydi: tojikcha yoki ruscha fonemalarni o'zbekcha tovushlar bilan talaffuz qiladi. Rus tilidan o'tib o'zlashgan *direktor, kollektor, diktator, senator, elevator* tipidagi so'zlarni qanday yozilgan bo'lsa, o'zbekcha talaffuz ko'nikmasiga binoan o'shanday talaffuz qiladi (rus adabiy talaffuzida: *direktir, kallektir, senatir, diktatir, elevatir*). Bunda chetdan o'zlashgan so'zlarning o'zbek tiliga xos talaffuzi rus nutqiga nisbatan interferensiyaning namoyon bo'lishidir.

Interferensiyaning til grammatik tizimiga xos ko'rinishlari ham mavjud. Masalan, o'zbek yoki tojik til jamoasiga mansub

shaxs rus tilining grammatik qonun-qoidalaridan me'yoriy nazariy ma'lumotga ega bo'lmasa, u ruscha gapirganda yoki yozganda, o'zbek yoki rus tilining grammatik-qonun qoidalariga amal qiladi: «Moya sestra»ni «Moy sestra»; «Sestra prishla»ni «Sestra prishyol» tarzida rus tilining rod kategoriyasi qonun-qoidalarini stixiyali tarzda «paymol qiladi».

Interferensiya jarayoni, o'zga tilda ro'y beradigan o'zgarishning xarakteriga ko'ra, ikki xil bo'ladi:

- a) salbiy interferensiya;
- b) ijobiy interferensiya.

Interferensiyaning salbiy xarakterlisi bir til jamoasi vakilining ikkinchi tilning lisoniy me'yorlarini bilmaslighi oqibatida vujudga keladi. Unda ikkinchi tilning muayyan sathiga xos lisoniy me'yoriga amal qilinmaydi. Bu jarayonda so'zlovchi mansub bo'lmagan tilda nutqiy g'alizlik paydo bo'ladi. Biroq bu g'alizlik «gapiruvchi»chining o'ziga sezilmaydi. Yuqorida keltirilgan misollar salbiy xarakterdagi interferensiya ko'rinishlaridan biriga tegishlidir.

Ijobiy interferensiyada tilda ikkinchi tilning fonetik yoki grammatik qurilishiga xos ayrim lisoniy xususiyatlar paydo bo'ladi. U ikkinchi til rivojlanishidagi tashqi omillaridan biriga aylanadi. Uning «ijobiy interferensiya» deb nomlanishi ham shundan.

O'zbek tili unli fonemalari miqdorining sakkiz-to'qqiztadan oltitaga ixchamlashishi ijobiy interferensiyaning o'zbek tili fonemalari tizimiga xos ko'rinishlaridan biridir. Bu interferensiya tojik-fors tilining o'zbek tiliga ta'siri o'laroq vujudga kelgan. Shuningdek, o'zbek adabiy tili fonetik tizimida singarmonizm hodisasining tugal barham topishi ham tojik-fors tili ta'sirida amal qilgan ijobiy interferensiyaga misol bo'ladi.

Rus tilining fonologik tizimiga xos ayrim unsurlar ham o'zbek tilining fonologik tizimida belgili iz qoldirib, ijobiy interferensiya amaliga sabab bo'ladi. O'zbek adabiy tili va uning talaffuziga singishgan lab-lab «v», lab-tish «f», qorishiq «ts» undoshlari o'zbek-rus bilingvizmi ta'sirida paydo bo'lgan interferentiv hosilalardir. «F» fonemasining o'zbek tili fonemalar tizimida paydo bo'lishiga arab va fors tillari va ulardan «f» tovushi mavjud so'zlarning o'zlashishi ham sabab bo'lgan, albatta. Biroq rus tili ta'sirida vujudga kelgan «f» bilan arab va

fors tillari ta'sirida vujudga kelgan «f» tovushi talaffuzida qisman farq borligini unutmasligimiz kerak, albatta: *fartuk, sharf, shkaf, fabrika, filosofiya; farishta, fuqaro, fason, sarf, sharaf, shaftoli, sifat, safar* va sh.k.

Interferensiyaning nutq tovushlari va ularning o'zga til talaffuzi ta'sirida o'zgarishi *d i a f o n i k* o'zgarish, o'zga til talaffuziga «ko'chirilgan» tovushlar esa *d i a f o n e m a* deyiladi.

Tilning lug'aviy-semantik sathiga xos interferensiyaga nisbatan esa, *d i a s e m i y a* yoki *d i a l e k s i y a* atamaları ishlatiladi. Bu terminlar umumfanga D.Djounz tomonidan nolingvistik tavsifdagi boshqa tushunchalar ifodasi uchun olib kiritilgan. E.I. Xaugen uni sotsiolingvistik tushuncha sifatida tilshunoslik faniga ham ham tatbiq etgan.

Interferensiyaning bir qator ko'rinishlari mavjud. Ularning asosiylari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

1) o'zga til tovushlari o'z til tovushlari o'rnini egallaydi. Masalan, Tojikiston o'zbeklari nutqida unlilar talaffuzi tojikcha unlilar talaffuzi bilan almashgan: o'zbek tili tovushlari o'rnini tojik tili unlilari «egallagan»;

2) so'z ma'nolarida torayish hisobiga o'zgarish yuz beradi. Masalan, rus tiliga turkiy tillardan «балык» («baliq») so'zi o'zlashgan. Biroq bu so'z turkiy tillardagi «baliq va uning turlari» ma'nosini bildirmaydi, balki u rus tilida «dudlab quritilgan baliq» ma'nosida lisoniy «rasmiylashgan»;

3) o'zga til o'zlashmalari o'z tilning grammatik qonun-qoidalariga bo'ysunadi. Masalan, turkiy tillarda rod (grammatik jins) kategoriyasi yo'q. Shuning uchun turkiy so'zlar rod bilan turlanmaydi. Biroq rus tiliga o'zlashgan turkcha va forscha o'zlashgan «lapsha», «arba», «alycha», «surma», «syuzma», «paranja» singari so'zlar «jenskiy rod»ga, «buran», «uryuk», «saksaul», «barxan», «utyug», «karpich» singari so'zlar «mujskoy rod»ga kiritiladi. Shuningdek, rus tilidan yoki u orqali Evropaning boshqa tillaridan o'zlashgan so'zlar o'zbek tilining grammatik qonun-qoidalariga bo'ysunadi. Rus tilidan o'zlashgan *zavod, shkaf, fabrika, auditoriya, klass* singari so'zlar o'z tilda kelishiklar bilan turlanganda, kelishik shakllariga *v, s, k, pod, za* va h.k. predloglar «hamrohlik» qiladi. Keltirilgan bu tip so'zlar o'zbek tilida kelishik qo'shimchalarini predlogsiz olib turlanadi: «v shkafe» «shkafda», «v auditoriyu» «auditoriyaga» kabi.

4) badiiy ijodda, ayniqsa, sharq nazmining «shir-u shakar» janrida o‘z tilda yozilgan she’rda o‘zga tilga xos so‘z va so‘z shakllari, hatto gaplar kiritiladiki, bu interferensiyaning badiiy nutqqa xos xususiyati sanaladi.

Badiiy matnlarda boshqa til lisoniy unsurlarining ishtirok etishi maqsadli bilingvizmning uslubiy xarakterdagi ko‘rinishlaridan biridir. Masalan, taniqli bolalar shoiri Sultonmurod Hojiboevning «Tojik do‘stim» she’rida shu holni ko‘rish mumkin:

*Mening tojik do‘stim bor,  
Uning bilan o‘sgim bor.  
Dilash chashma barin sof,  
Yuzi-ko‘zida oftob.  
Hamroh bozi mekunem,  
Aspbozū mekunem.  
Lola tergani qirga  
Chiqamiz birga-birga.  
Dars tayyorlash, o‘qishda,  
Hamkordirmiz har ishda.  
Eh, qisqasi, bu do‘stim  
Bachayi dono-yu nag‘z,  
Bizni ahil ko‘rgan der,  
Bir danakda qo‘sha mag‘z.*

Ijtimoiy-nolingvistik va sof lingvistik nuqtai nazardan qaraganda, interferensiya va uning jarayoni ikki yo‘l bilan amalga oshadi. Birinchisi, muayyan til jamoalari yoki ularning ayrim ijtimoiy qatlamlarining o‘zaro kontaktdagi aloqasi natijasida interferensiya uchun sharoit vujudga keladi. Ikkinchisi, o‘zga tilni maqsadli o‘rganish jarayonida o‘z va o‘zga til tizimlariaro vujudga kelgan lisoniy munosabatlar natijasida interferensiya uchun imkoniyat paydo bo‘ladi.

Interferensiya, funktsional amali doirasiga ko‘ra ham, uch xil bo‘ladi:

1) har xil etnik jamoalarga xos mustaqil tillar doirasida vujudga keladi (masalan, o‘zbek va tojik yoki o‘zbek va rus tillari doirasidagi interferensiya);

2) bir tilga qarashli lahja va shevalar doirasida vujudga keladi. Interferensiyaning bu xususiyati adabiy til va uning

rivojlanishi uchun muhim emas. U til fanining dialektologiya tarmog'iga aloqador ijtimoiy-lisoniy hodisa hisoblanadi.

3) adabiy til bilan uning mahalliy lahja yoki shevalari doirasida vujudga keladi. Bu xususiyat odatda adabiy til ta'sirida lahja va shevalar tizimida yuz beruvchi lisoniy o'zgarishlar bilan xarakterlanadi. Biroq nafaol tarzda buning aksi ham bo'lishi mumkin. Bu odatda tilning lug'aviy sathiga xos bo'ladi.

Tilni chet lisoniy unsurlardan «tozalashda», inkor etilgan chet so'zlar o'rniga lahja yoxud shevalardan ularga muvofiq muqobillar tanlanadi. O'zbek tilida ruscha «ostanovka», «ikra» so'zlari o'rniga shevalardan «bekat», «uvildiriq» so'zlarining olinganligi bunga misol bo'ladi.

Interferensiyaning mazkur xususiyati asosida bu atamaning ifoda ko'lamini belgilanadi, ya'ni «interferensiya» tor va keng ma'nolarda qo'llanuvchi sotsiolingvistik atama hisoblanadi.

Interferensiya tor ma'noda «har xil etnik jamoaga qarashli mustaqil tillardan birining boshqasiga ta'siri tufayli sodir bo'luvchi lisoniy o'zgarish»ni bildiradi.

Bu atama keng ma'noda «adabiy tilning ta'siri tufayli uning lahja yoki shevalarida paydo bo'lgan o'zgarish» hamda «bir til doirasidagi lahja yoki sheva ta'sirida shu tilning boshqa lahja yoki shevasida sodir bo'lgan lisoniy o'zgarish»larga nisbatan ham ishlatilaveradi. Masalan, shevalarda mavjud-u, lekin adabiy tilda o'sha tushunchani ifodalovchi so'z bo'lmasligi mumkin. Buni o'zbek tili qarindoshlik nomlari tizimida ham ko'rsa bo'ladi. Chunonchi, o'zbek adabiy tilida «nabira – evara – chevara»dan keyingi avlodni atovchi so'zlar yo'q. Biroq ular «zuvola – uvora – begona» tartibida shevalarda uchraydi. Agar keyingi 5-, 6- va 7-avlod nomlarini bildiruvchi yuqoridagi so'zlar (zuvola, uvora, begona) adabiy tilga qabul qilinsa va ular ommalashib, lisoniy rasmiylashsa, sheva va adabiy til munosabatidagi ijobiy interferensiyaga ishonchli misol bo'la oladi.

Xullas, interferensiya keng ko'lamli murakkab ham ijtimoiy-nolinii va ham sotsial-lisoniy hodisadirki, u bir qator monografik rejalarda jiddiy o'rganilishi zarur.

## **1.8. O‘zbek va tojik ikki tilligi va uning o‘ziga xos xususiyatlari**

O‘zbek va tojik ikki tilliligi Tojikistonda yashovchi mahalliy aholi uchungina xos bo‘lmay, u O‘zbekistonning turli hududlarida yashovchi mahalliy aholi uchun ham xosdir. Buning tarixiy ildizlari uzoq o‘tmishga – XI asrga borib taqaladi. Mashhur qomusiy olim Mahmud Koshg‘ariy turkiy tillarni dastlab ikki guruhga ajratadi. Ularning birini sof turkiy tillar, boshqasini sof bo‘lmagan turkiy tillar deb ataydi. Sof bo‘lmagan turkiy tilga Sharqiy Turkistonning Janubiy hududlari, Chuv hamda Talas vodiylari aholisining tilini kiritadi. Bu hududlarda so‘g‘diylar qaramog‘idagi shaharlar aholisi yashagan. Ular ikki tilda gaplashar edilar. Sof turkiy bo‘lmagan til egalari Bolosog‘un, Talas (Avliyoota, hozirgi Janbul shahri) va Oqshahar (Isfijob, Sayram) shaharlari aholisi bo‘lib, ular so‘g‘d (eroniy) va turk tillarida barobar so‘zlasha olganlar.

O‘zbek va tojik ikki tilliligi (bilingvizmi) nutqning og‘zaki va yozma kabi ikki xil shakli orqali amalga oshgan. Shu bois ham o‘zbek va tojik ikki tilliligi ikki tillilikning boshqa ko‘rinishlaridan o‘z faolliligi va keng hududliligi bilan alohida ajralib turadi. Masalan, o‘zbek va arab, o‘zbek va rus, tojik va arab, tojik va rus va boshqa ikkitilliliklar o‘zbek va tojik ikki tilliligi darajasida faol emas, shuningdek, ularning amaliy hududi ham keng emas.

O‘zbek va tojik ikki tilliliginiing ta‘siri natijasi bo‘lsa kerak, o‘zbek tili lug‘at tarkibining o‘n foizdan ortiqrog‘ini tojik tilidan o‘zlashgan lug‘aviy birliklar tashkil qiladi. Tojik tilining lug‘at tarkibida ham o‘zbek tilidan o‘zlashgan lug‘aviy birliklar miqdori kam emas. Bulardan tashqari, o‘zbek tilining morfem va so‘z yasalishi tizimlarida ham tojik tilning samarali ta‘sirini sezish qiyin emas. Tojik tiliga qarashli grammatik ko‘rsatkichlar o‘zbek tilining so‘z va shakl yasovchi vositalari sifatida faol qatnashadi. Bularning barchasi yuqorida tilga olingan interferensiya hodisasining ko‘rinishlaridir.

O‘zbek va tojik ikki tilliligi (bilingvizmi) o‘zining uzoq tarixiga ega. O‘zbekiston hududida yashovchi xalqlar, jumladan, o‘zbeklar orasida ikkitillilik qadimdan mavjud. O‘z ona tilidan tashqari, o‘z tili uchun qardosh bo‘lmagan arab va tojik tillarida

soʻzlasha olish qobiliyati hamma xalqda ham bir xil boʻlavermaydi.

Ikki til – oʻzbek va tojik tillarida gaplasha oluvchi aholi VI asrdan boshlab Movarounnahrda (Amudaryo va Sirdaryo oraligʻida) istiqomat qila boshlagan. Shuningdek bunday aholi Shosh viloyati (qadimgi Binkent – hozirgi Toshkent atroflari)da yashagan. Ular oʻzbekcha-turkiy va tojikcha-forsiy tillarda bir xil soʻzlasha olgan. Bunday ikki tillilik fors-tojik va eski oʻzbek adabiy til kontaktlarning amali sifatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Oʻzbek va tojik ikki tilliligining samarali amali natijasida oʻzbek va arab ikki tilliligi barham topdi. Somoniylar dinastiyasi davrida (IX-X asrlar) fors-tojik mumtoz adabiy tili keng tarqala boshladi. Fors-tojik adabiy tili bu davrda (VII-VIII asrlar) fan va adabiyot sohasida, shuningdek, yuridik sohada hukmronlik qilgan arab tilini siqib chiqara boshlaydi. Bunday kurash dastlab XI asrda fors-tojik tili taʼsirida arab tilining sheʼriyatdan siqib chiqarilishiga sabab boʻladi<sup>31</sup>. Navoiy davriga kelib, oʻzbek va tojik ikki tilliligi keng tarqalgan hodisaga aylandi. Bu davrda oʻzbek va tojik ikki tilliligi xalq tili jabhasi (aspekti)da ham, adabiy til jabhasida ham mustahkam mavqeni qoʻlga kiritgan edi.

Oʻzbek va tojik ikki tilliligi oʻzbek va tojik boʻlmagan boshqa ikki tilliliklardan oʻziga xos sifatli va miqdoriy xususiyatlari bilan ajralib turadi. Oʻzbek va tojik ikki tilliligi oʻzaro kontaktli ikki tillilikdir. Kontaktli ikki tillilik hodisasining siyrak uchrovchi noyob turiga kiradi. Bunday xarakterdagi ikki tillilikka sabab boʻlgan til kontaktini proksimal kontakt deyiladi. Proksimal kontakt taʼsirida vujudga kelgan ikki tillilikda bir tilga xos lisoniy xususiyatlar u bilan aloqadagi boshqa tildan koʻproq va sezilarli oʻrin oladi. Shu jihatdan qaraganda, oʻzbek va tojik ikki tilliligi proksimal til kontaktining samarasi sifatida faqat bir tildan boshqa tilga soʻz oʻzlashishi bilan cheklanuvchi distal xarakterdagi til kontaktiga xos ikki tillilik (shartli ravishda)dan farqqiladi.

Oʻzbek va tojik ikki tilliligi Oʻzbekiston va Tojikiston respublikalari aholisi orasida hamon mavjud. Samarqand, Buxoro, Surxondaryo viloyatlari, Fargʻona vodiysining baʼzi

---

<sup>31</sup> Бегматов Э. Хозирги ўзбек адабий тилининг лексик қатламалари. – Тошкент: Фан, 1985, 108-б



tumanlari aholisi hozir ham o'zbek va tojik tillarida bir xil so'zlasha oladi. Tojikistonning So'g'd, Qo'rg'onteppa viloyatlari, Dushanbe shahrining atrof tumanlarida istiqomat qiluvchi aholi ham tojik va o'zbek tillarida gaplasha oladi.

Ilmiy manbalarda e'tirof etilishga qaraganda, tojik (eroniy) tilining o'zbek (turkiy) tilga ta'siri ikki bosqich (davr)ni o'z ichiga oladi. Bu ta'sirning birinchi bosqichi o'zbek tilining xalq tili maqomida shakllanishigacha bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Bu davrda o'zbek (turkiy) tili O'rta Osiyo va O'zbekiston hududidagi eroniy qabila va xalq (so'g'dlar, xorazmiylar, toxarlar, saklar, massagetlar va h.)larning tillaridan bahramand bo'lgan. Tojik (eroniy) tilining o'zbek (turkiy) tiliga ta'siri bilan bog'liq ikkinchi bosqich somoniylar davriga to'g'ri keladi. Bu davrda o'zbek (turkiy) tili tojik xalq va adabiy tilidan, shuningdek, uning shevalari lug'aviy birliklaridan barakali oziqlangan.

XV-XVI asrlarga kelib, tojik tili Buxoro, Qo'qon xonliklarining rasmiylashgan davlat tili sifatida shuhrat topgan. Bu xonliklarning hujjat ishlari ana shu tilda rasmiylashtirilgan<sup>32</sup>.

O'zbek va tojik tillari asosida vujudga kelgan ikki tillilik yozma adabiyot – badiiy asarlarda ham o'z aksini topgan. Qarshi shahrida topilgan va taxminan temuriylar davrida tarjima qilingan «Qo'rg'on» tafsirida ham bu hol ko'zga tashlanadi. O'zbek va tojik ikki tilliligiga doir dalillar, ayniqsa, badiiy adabiyotda yanada yorqinroq namoyon bo'ladi. Bu jarayonni badiiy adabiyotning ham yozma, ham og'zaki shakllarida bir xil me'yorda uchratish mumkin. Abdurahmon Jomiy, Alisher Navoiy singari mumtoz adiblarimizning ijodida o'zbek va tojik ikki tilliligining yorqin namunalari berilgan. Bu jarayon an'anaviy tus olib, keyinchalik Gulxaniy, Maxmur, Muqimiy, Sadriddin Ayniy, Boqi Rahimzoda, Mirzo Tursunzoda, G'afur G'ulom, O'lmas Jamol kabi o'zbek va tojik shoirlarining ijodini bezagan. Xullas, o'zbek va tojik ikki tilliligi o'zbek va tojik adabiy aloqalarining muhim shakli sifatida yuksak qimmatga ega.

### **1.9. O'zbek tili va uning shakllanishi haqida.**

O'zbek tili Markaziy Osiyodagi mahalliy aholilardan birining aloqa aralashuv vositasi hisoblanadi. U turkiy tillarning G'arbiy

---

<sup>32</sup> Абдурахмонов Д. Ўзбек шевалярнинг тараққиёт манбалари ва улардаги лексик фарқлар//Ўзбек шевалари лексикаси. – Тошкент: Фан, 1991.

xunn tarmog'iga qarashli. O'zbek tili shu tarmoq (G'arbiy-xunn)ning Janubiy-Sharqiy shahobchasi (areali)ga mansub bo'lib, uyg'ur tili bilan bir guruhni tashkil qiladi. Turkiy tillarga kiruvchi bu shoxobcha qarluq guruhi deb ham nomlanadi<sup>33</sup>.

O'zbek atamasi o'zi bek, o'zimizning bek, o'ziga mustaqil – o'zi xon, ma'nolari bilan paydo bo'lgan. O'zbek so'zining bu ma'nolari ko'pchilik tilshunos va tarixchi (masalan, Bo'riboy Ahmedov) olimlar tomondan e'tirof etilgan. Ular o'zbek so'zining lug'aviy ma'nosi sifatida tan olingan. Professor Xudoyberdi Doniyorovning yozishiga qaraganda, o'zbek so'zi, ayrim tarixchi olimlar e'tirof etganidek, XVI yoki XIV asrdan emas, bilki XI asrdan, hatto undan oldinroq qo'llana boshlangan, turkiy xalqlarning katta bir qismini tashkil etuvchi el nomiga nisbalangan.

O'zbek atamasining kishi ismiga nisbatlanishi V.V.Bartold, V.I.Masamskiy singari mashhur sharqshunoslarning e'tirofi mavjud. Uni Oltin O'rda xoni O'zbekxon (1312-1342) nomi bilan bog'laydilar.

Mashhur «Devonu lug'otit turk» asarida Mahmud Qoshg'ariy o'zbek atamasini ishlatmagan bo'lsa-da, keyinchalik shu nom bilan ataluvchi xalqni qipchoqlarning katta bir guruhi sifatida qaragan. Professor X.Doniyorovning qat'iy ishonch bilan aytishiga qaraganda, o'zbek atamasi kishi nomi sifatida ham, xalq nomi sifatida ham XI asrda yuzaga kelgan<sup>34</sup>.

Statistik ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda yer kurrasida o'zbeklarning umumiy soni 50 millionga yaqin kishini tashkil qiladi. Ularning aksariyati O'zbekistonning asosiy aholisi hisoblangan. O'zbek millatiga mansub aholi Tojikiston, Qazoqiston, Qirg'iziston, Turkmaniston Respublikalarida ham mavjud. Bundan tashqari Afg'oniston, Xitoy Xalq Respublikasi (Sintszyan-Uyg'ur avtonom viloyati) aholining ma'lum bir qismini o'zbeklar tashkil qiladi. O'zbek tili O'zbekiston Respublikasining yagona davlat tili hisoblanadi.

Hozirgi o'zbek tilining shakllanishi uch yirik – qarluq, qipchoq va o'g'iz lahjalariga asoslanadi. Bu lahjalarning har biri ko'pgina shevalarni o'z ichiga oladi.

---

<sup>33</sup> Баксаков Н.А. Алтайская семья языков и её изучение. – М.: Наука, 1981, 48-б.

<sup>34</sup> Х.Дониёров. Ўз тарихимизни биламизми? «Ўзбекистон», 15 июль, №114

O'zbek tili tarixini davrlashtirish masalasida har xil qarashlar mavjud. Shular ichida nisbatan ishonarlisi quyidagi to'rt davrni o'z ichiga oladi: 1) eski o'zbek tili (XII-XIV asrlar); 2) oraliq davr o'zbek tili (XIV-XVI asrlar, A.Navoiy asarlari tili shu davrga to'g'ri keladi); 3) yangi davr o'zbek tili (XIX asrdan – XX asr boshlari); 4) hozirgi o'zbek adabiy tili<sup>35</sup>.

O'zbek tili o'z tarixiy taraqqiyoti jarayonida Eron tillari guruhiga mansub tojik tili va uning lahja hamda shevalari bilan yaqin aloqada bo'lgan. Shu bois hozirgi o'zbek tilining lug'aviy va morfem tizimida tojik tilidan o'zlashgan ko'plab leksik va morfem unsurlarni uchratish mumkin. Bundan tashqari, o'zbek tili arab, rus tillari bilan sezilarli kontaktda bo'lgan. Bularning barchasi o'zbek tilining rivojlanishida tashqi omil vazifasini o'tagan.

O'zbek tili bilan tojik tilining aloqasi o'zbek tilining tojik bo'lmagan boshqa tillar bilan aloqasiga nisbatan muhim ahamiyat kasb etadi. Buning asosiy sabablaridan biri shundaki, o'zbek xalqi bilan tojik xalqi O'rta Osiyoning eng qadimgi mahalliy xalqlari sanaladi. Bu ikki xalqning turmush sharoiti bir xil va ular umumiy hududga ega bo'lganligi sababli, ijtimoiy hayotning turli sohalarida hamkorlik qilib kelganlar. Bu hamkorlik o'zbek va tojik xalqlarining tillarida, uning fonetika, grammatika va lug'at tarkibi qurilishida o'z aksini topgan<sup>36</sup>.

O'zbek tili qadimiy turkiy qabila va urug' tili davrida oltoy-mo'g'ul tillari bilan ham aloqada bo'ldi. Hozirgi o'zbek tili leksikasida uchrovchi bir qator mo'g'ulcha so'zlar yoki turk va mongol tillari uchun umumiy bo'lgan lug'aviy qatlam shu aloqalar natijasidir<sup>37</sup>.

O'zbek tilining xorijiy tillar bilan bo'lgan aloqasi turli daraja va sifatli ko'rinishlarga ega. Professor A.K.Borovkovning ta'kidlashicha fors-tojik tilidan qabul qilingan so'zlar o'zbek tilining lug'at tarkibidan mustahkam o'rin olgan, chunki ular muayyan narsa va predmet nomi sifatida faol ishlatiladi<sup>38</sup>.

---

<sup>35</sup> Хожиев А.П. Ўзбекский язык // Языки Мира. Тюркские языки. Бишкек, 1997. –с. 426

<sup>36</sup> Ўзбек тили лексикологияси. Тошкент, 1981, 78-82-б.

<sup>37</sup> Жуманиёзов О. Ўзбек тилидаги герман тиллари ўзлашмалари. – Тошкент: Фан, 1987.

<sup>38</sup> Боровков А.К. Таджикско-ўзбекское двуязычие и вопросы взаимовлияния ўзбекского и таджикского языков // Ученые записки Института востоковедения. Том IV.–М., 1952., 188-б.

Tojik-fors va arab tillaridan o'zlashgan so'zlar o'zbek tili taraqqiyotining ichki omili jarayonida ham muhim lisoniy ahamiyat kasb etadi. Ular o'zbek tilining o'z mulki darajasida singishib, uning lug'aviy va morfem tizimini kengaytirgan, ayrimlarining xorijiy tilga mansubligi mutlaqo unutilgan. Birgina bajarmoq so'zining o'zbek tilidagi amali bunga ishonarlidalil bo'la oladi. Bu so'z aslida tojik tiliga, aniqrog'i uning sintaktik qurilishiga daxldor *ba jo ovardan* iborasining qisqargan shaklidir. Hozirgi davrda o'zbekcha bajarmoq fe'lining tojik tiliga xos lisoniy xususiyatlari barham topgan.

Tojik-fors o'zlashmalarining o'ziga xos lisoniy ahamiyati shundaki, ular o'zbek tilining so'z yasalishi tizimida faol qatnashadi. Tojik-fors so'zlarining ko'pi o'zbek tilida affiks morfemalar maqomiga kirib, o'zbek tilining so'z yasovchi vositalari tizimini boyitgan. Shunindek, bunday fikrni o'zbek tili frazeologiyasi tizimiga nisbatan ham aytish mumkin. O'zbek tili frazeologik iboralarining salmoqli bir qismi tojik-fors lug'aviy o'zlashmalarining ishtirokida vujudga kelgan. Bular haqida darslikning keyingi qismlarida alohida so'z yuritiladi.

### **1.10. Tojik tili va uning shakllanishi haqida.**

Tojik tili ham Markaziy Osiyodagi mahalliy aholilardan birining aloqa-aralashuv vositasi hisoblanadi. Uning genetik asosi o'zbek tiliniki kabi oltoy tillar oilasiga borib taqalmaydi. Tojik tili Hind-Evropa tillari oilasiga mansubdir. U shu til oilasining eroniy tillar tarmog'iga kiradi. Eroniy tillar tarmog'i eski eroniy va yangi eroniy kabi ikki guruhdan iborat. Yangi eroniy guruhini fors, dari, pushtu, beludj, kurd, tot, talish, gilyan, mazandaron, osetin, yag'nob va pomir tillari tashkil etadi. Ana shu yangi eroniy tillar guruhida tojik tili ham mavjud. Tojik tilining fonetik-fonologik, leksik va grammatik tizimlari yangi eroniy tillar guruhiga qarashli yuqoridagi barcha tillarning fonetik-fonologik, leksik va grammatik tizimlari bilan yaqinlikka ega.

Tojik tili o'zining paradigmatic va sintagmatik xususiyatlariga ko'ra jahon tillarining analitik-flektiv qurilishli guruhiga mansubdir. Shu bois ham tojik tilida so'z turkumlarining guruhlanishi eng avvalo uning lug'aviy-

grammatik xususiyatlariga, shuningdek, soʻz va frazalar hosil boʻlishidagi jihatlarga asoslanadi (Rubinchik Yu.A. – s. 10).

Tojik tilining amaliy faoliyati asosan Tojikiston Respublikasi bilan bogʻlanadi. Bundan tashqari, tojik tili Oʻzbekiston, Qirgʻiziston, Qozoqiston, Eron, Afgʻoniston, Pokiston, hatto Shimoliy Afrikada ham mavjud. Hammasini qoʻshib hisoblaganida jahon aholisining oʻttiz milliondan ortiqrogʻi tojik tilida soʻzlashadi. Shundan sakkiz yarim milliondan koʻprogʻi Tojikiston aholisi hisoblandi.

Hozirgi tojik adabiy tili toʻrt lahja (dialekt) asosida tarkib topgan: 1) Shimoliy lahja (Samarqand va Buxoro; Fargʻona vodiysi; Istaravshan va Panjakent); 2) Markaziy lahja (Yuqori Zarafshon); 3) Janubiy lahja (Qorategin, Koʻlob, Rogʻun va Badaxshon); 4) Janubiy-Sharqiy (Darvoz) lahja<sup>39</sup>.

Tarixiy asarlarda berilgan maʼlumotlarga koʻra, hozirgi tojik xalqining eng qadimgi ajdodi soʻgʻdlar boʻlgan. Soʻgʻdlar Sharqiy Turkistonda, Pomir va Tyan-Shan togʻlari etaklarida yashaganlar va shu yerlardan Fargʻona vodiysi, qadimgi Choch (hozirgi Toshken viloyati) hududi, Chu daryosi va Balxash koʻli boʻylariga tarqalganlar. Davrlar oʻtishi bilan, soʻgʻdlarning bir qismi baktriylar bilan qoʻshilib, hozirgi tojik xalqini shakllantirgan. Soʻgʻdlarning boshqa qismlari turkiy xalqlar bilan qoʻshilib, oʻzbek xalqini shakllantirgan.

Demak, tojik xalqining tarixiy shakllanishida oʻzbek xalqining ajdodlari muhim rol oʻynaganidek, oʻzbek xalqining shakllanishida ham tojik xalqining ajdodlari muhim rol oʻynagan. Diqqatingizni shu masalaga oid bir dalilga qaratamiz. Masalan, Fargʻona vodiysining eng qadimiy shahrlaridan biri Margʻilondir. Unda hozirgi oʻzbek millatiga mansub aholi yashaydi. SHU aholining XV asrgacha boʻlgan ajdodlari asli tojik (sart)lar boʻlgan. Tojikistonning Janubiy hududlarida yashovchi hozirgi tojiklarning tarixiy-etnik tarkibida, soʻgʻdlardan tashqari, baktri tozar va turkiy xalqlar ham boʻlgan<sup>40</sup>.

Har bir millat, xalq shu millat, shu xalqqa nisbatlanuvchi nomga (etnonimga) ega boʻladi. Muayyan millat yoki xalqqa nisbatlanuvchi bunday nom (atama)lar muayyan bir etnik

---

<sup>39</sup> Керимова А.А. Таджикский язык //Лингвистический энциклопедический словарь. – М., 1990, 502-6

<sup>40</sup> Ўзбек халқлари тарихи, 1- том, Тошкент, 1947, 10-б.

qatlam (guruh) shakllangach, paydo bo'ladi. O'zbek etnonimining qaysi ma'nodagi so'zdan paydo bo'lishi yuqorida aytilgan edi.

Tojik so'zining etnonim sifatida vujudga kelishida ham har xil fikrlar mavjud. I.I.Zarubin bu atama (nom)ni o'troqlashib islom diniga kirgan nomusulmon xalqlarga nisbatan ishlatadi. Akademik V.V.Bartold esa tojik etnonimini badaviy qabilalarga mansub va III asrda yashagan tay qabilasining nomi sifatida qaraydi. Tay qabilasi ham mansub bu guruh Eron davlatiga qarashli bo'lgan. Tojik so'zi dastlab tazik shaklida ham ishlatilgan. Tojik so'zining tay qabilasi bilan bog'lanishi haqidagi fikr haqiqatga ancha yaqin. Chunki tazikning tojik shaklida o'zgarishi til qonun-qoidalariga zid emas.

Aytish joizki, tojik etnonim ma'nosida sart so'zi ham ishlatilgan. *Sart* so'zini qaysi xalq nomi sifatida qo'llanishi masalasida ham har xil fikrlar mavjud. V.V.Radlov, V.V.Bartold kabi akademik sharqshunoslar bu so'zni hind tilida savdogar ma'nosida qo'llanuvchi *sart* leksemasi bilan bog'laydi. *Sart* nomi bilan ataluvchi joy nomi ham bo'lgan. *Sart* Chingizxon zabt etgan joylardan biri sifatida Plano Karpinini tomonidan e'tirof etilgan ekan. Professor N.G.Mallitskiyning fikriga qaraganda, *sart* so'zi qadimgi eron tilida hokimiyat, shohlik ma'nolarini anglatgan *xsatra xsarta>sarta>sart* so'zi bilan bog'lanadi, ya'ni uning fonetik jihatidan o'zgarib, ixchamlashgan shaklidir (Reshetov V.V.-s.48). Keyinchalik *sart* so'zi o'zbek xalqi va uning tiliga nisbatan ham ishlatila boshlangan.

Lingvistika va ekstralingvistika oid tarixiy manba va materiallarning guvohlik berishiga qaraganda, o'zbek va tojik tillarining shakllanishi va rivojlanishida har ikki tilning o'zaro bir-biriga ta'siri muhim rol o'ynagan. Xususan, o'zbek tilining shakllanishida «eronlashish» nazariyasi qanday muhim ahamiyat kasb etgan bo'lsa, tojik tilining shakllanishida «turkiylashish» nazariyasi ana shunday muhim ahamiyat kasb etgan. Bu ikki nazariyaning muhimligi, ahamiyati tojik va o'zbek tillarining rivojlanishida ham asosiy omillardan biri sifatida ko'zga tashlanadi. O'zbek va tojik tillarining shakllanishi va rivojlanishi o'ziga xos nolisoniy asoslarga ega, albatta. Bu narsa, eng avvalo, o'zbek va tojik tillarining egasi bo'lmish, o'zbek va tojik xalqlarining tarixi nihoyatda uzoq bo'lgan

do'stligi, qon-qarindoshligi, hamkorligi kabi bir qator ijtimoiy omillar bilan bog'lanadi. Bir umumiy hududda istiqomat qiluvchi o'zbek va tojik xalqlarining o'zaro yaqin aloqasi, hamkorlik eramizning VI asridan boshlangan. Bu hamjihatlik asrlar osha sayqal topdi, mustahkamlandi. O'zbek va tojik tillariaro munosabatdoshlik ham, sho'bhasiz ana shu davrdan boshlangan.

O'zbek va tojik xalqlari, ayniqsa, ularning tillari o'rtasidagi o'zaro munosabatdoshlik juda ko'plab olimlarning e'tiborini o'ziga jalb etgan. E.D.Polivanov, M.Stavrulli, V.Nalivkin va M.Nalivkina, A.K.Borovkov, I.I.Zarubin, V.V.Bartold, V.V.Reshetov, B.Niyozmuhammadov, V.S.Rastorguyeva, S.Usmonov, K.Yusupov, T.Maqsudov, M.S.Andreyev, M.T.Zokirov va boshqa olimlarning ilmiy faoliyatida o'zbek va tojik tillarining o'zaro aloqasi markaziy o'rinda turadi.

## **IKKINCHI QISM**

### **O‘ZBEK VA TOJIK LISONIY ALOQALARINING TIL SATHLARIGA KO‘RA AMALI**

#### **2.1. O‘zbek va tojik tillarining fonetik-fonologik sathga xos aloqasi.**

O‘zbek tili ham, tojik tili ham tovush tiliga mansub lisoniy «olam»dir. Tovush tili tushunchasi odatda tabiiy tilga, ya’ni inson tiliga nisbatan ishlatiladi. Har qanday tilning (tabiiy, inson tilining) tarkibi tovushlardan iborat bo‘ladi. Shu bois nutq tovushlari majmuasi muayyan tilning ifoda jabhasini tashkil qiladi, uning real qurilish materialini bajaradi. Tildagi eng kichik ma’noli qism – morfemadan tortib, uning matngacha bo‘lgan birliklari tovushlardan, ularning lisoniy birikuvlaridan tashkil topadi. Tilning ifoda qurilishini tashkil etuvchi bunday tovushlar inson organizmi a’zolaridan birining amaliy faoliyati tufayli vujudga keladi. Bu organ til deb yuritiladi. U nutq apparatining eng faol a’zosi (organi) hisoblanadi. Nutq apparatida tilning faoliyatiga ko‘maklashuvchi boshqa a’zolar ham bor, albatta. Tovush va ularning tizimi nutq organlarining fiziologik amali natijasida hosil bo‘ladi. Tovush hosil bo‘lish jarayoni tabiiy hodisalarga daxldor bo‘lganligi uchun ham, inson tiliga nisbatan tabiiy lison, tabiiy til atamasi ishlatiladi.

Tilning ifoda jabhasini tashkil etuvchi, uni shakllantiruvchi tovushlar fiziologik jihatdan tashqari, fizik va ruhiy-psixik jihatlarga ham ega. Shu bois tovushlar fizika va ruhshunoslik fanlari tomonidan ham o‘rganiladi. Tilshunoslik fani tovushlarning o‘zidan yirik boshqa lisoniy birliklarini hosil qilish tomonlari bilan shug‘ullanadi.

Tovushlarning o‘ziga xos muhim tomonlaridan biri ularning inson xotirasida saqlanish xususiyatidir. Ularning ruhiy-psixik hodisa sifatida qaralishida ana shu xususiyat nazarda tutiladi. Tovushlarning xotirada saqlanuvchi izlari, simvollari fonema (fonemalar) deb ataladi. Fonemalar tilning ijtimoiy hodisa ekanligini belgilovchi lisoniy birliklar hisoblanadi, shu bois ular zimmasiga ijtimoiylik vazifasi yuklanadi. Fonemalar orqali so‘z va morfemalarning ma’nosi farqlanadi.

Nutq tovushlari, fonemalar yozuvda ham o‘z aksini topadi. Ularning yozuvdagi shakli harf deyiladi, harflarni muayyan



tizimga xos majmuasiga nisbatan alifbo atamasi ishlatiladi. Alifboda aniq (real) ko'rinishlari bilan ishtirok etuvchi harfiy shakllarning umumlashgan tiplari, belgilari (simvollari) beriladi. Harflarning alifboda aks etgan tipik shakllari grafema atamasi bilan nomlanadi. Harf va grafemalar tizimi tilshunoslikning grafika deb ataluvchi bo'limida o'rganiladi. Grafika tilshunoslikning fonetika (fonologiya) bo'limi bilan aloqadordir. Fonetika (fonologiya) ham tovush va ular tizimini o'rganadi, grafika esa tovushlarning yozuvdagi shakllarini o'rganadi. Xullas, fonetikaning ham, grafikaning ham o'rganish ob'ektida tovush va ularning tizimi muhim rol o'ynaydi.

Harfiy birliklar tovushlarga nisbatan ikkilamchi va shartli hodisalardir. Harfiy birliklarning ikkilamchilik xususiyati shundaki, ular tovushlardan keyin sun'iy yo'sinda paydo bo'lgan. Ularning shartli hodisalar ekanligi shundaki, muayyan bir tovush har xil shakllarda harfiy tusga kirishi mumkin. Masalan, [s] tovushi (fonemasi) bir tilning grafik tizimida [s] shaklida, boshqa tillarning grafik tizimida [c] shakllarida qo'llanadi. [S] fonemasining tovush sifatidagi qiymati esa, ayrim individual-prosodik xususiyatlarini hisobga olmaganda, barcha tillarda bir xil namoyon bo'ladi.

Yuqorida tovush, fonema atamaları bilan nomlanuvchi tushunchalar haqida ham qisqacha fikr yuritiladi. Bu atamalar ilmiy-lisoniy tushunchalar bildiradi. Shuning uchun ular (tovush, fonema) o'zaro farq qiladi. Tovushlar aniq (real) tarzda aytiladi, eshitiladi. Ularning tizimi fonetikada o'rganiladi. Fonemalar aniq (real) tarzda aytilmaydi. Fonemalar bilan bog'liq barcha lisoniy xususiyatlar hamda ularning yaxlit tizimi fonologiyada o'rganiladi. Fonetika o'rganadigan lisoniy birliklar (tovushlar) nutqqa tegishli bo'ladi. Fonologiya o'rganadigan lisoniy birliklar – fonemalar tilga qarashli bo'ladi: til va nutq farqlanadi. Bunday farqli xususiyatlar, shubhasiz, harf va grafema tushunchalari munosabatida ham ko'zga tashlanadi.

Bu aytilganlarning barchasi fonetika va fonologiya haqida qisqacha ma'lumot bo'lib, o'zbek va tojik tillariga baravar va bir xil taalluqli xususiyatlardir.

Endi o'zbek va tojik tillari fonetikasi va grafikasi bilan aloqador aniq (real) masalalar xususida fikr yuritamiz. Shunisi muhimki, yaqin vaqtlarga qadar o'zbek yozuvi ham, tojik yozuvi

ham rus alifbosi asosida shakllangan edi. Endilikda o'zbek yozuvi lotin grafikasi asosidagi alfavitga moslashtirildi. Lekin lotin grafikasi asosida shakllantirilgan o'zbek yozuvi faqat O'zbekiston Respublikasi hududida amal qiladi. Unga qo'shni respublikalarda, jumladan, Tojikistonda, hozir ham rus grafikasi asosida vujudga kelgan o'zbek yozuvidan foydalaniladi. Rus grafikasi asosida shakllangan o'zbek va tojik alifbosida «bir tovushga bir harf» yoki, aksincha, «bir harfga bir tovush» mutanosibligi yo'q. Har ikki tilning ham alfavitida *e, ë, ю, я* grafemalari (harflari) mavjud. Bu grafema (harflar) ko'p vazifali. Ularning asosiy vazifasi [-y-] undoshiga tirkalgan [e],[o],[u],[a] fonema (tovush)laridan iborat birikmani ifodalaydi: bir harfiy belgi vositasida undosh va unidan iborat ikki tovush ifodalanadi. *e, ë, ю, я* harflarining yana boshqa vazifasi – so'z tarkibida o'zidan oldin kelgan undoshlarning yumshoqligini bildirishdir.

Alifbo masalasida o'zbek va tojik yozuvidagi farq shundaki, o'zbek tilidagi ikki undosh fonema *jiyda, juda* so'zlaridagi *j*; *jurnal, jirafa, ajdar* so'zlari tarkibidagi *j* bir harf – grafema *j* orqali beriladi. Tojik tilida ham bu ikki fonema bir harfiy shakl orqali ifodalanadi. *Jahon/ҷаҳон, javob/ҷавоб* kabi o'rinlarda esa, bu fonema shakl jihatidan o'zbek tilidagi muqobilidan farq qiladi: *ч* grafemasi bilan yoziladi.

O'zbek va tojik tillarining fonologik (fonemalar) tizimida ham ayrim farqlar ko'zga tashlanadi. Sezilarli farq bu ikki tilning unli fonemalari tizimida mavjud. O'zbek tilining unli fonemalar tizimi olti fonologik birlikdan tashkil topgan: [i], [u], [o'], [a], [o], [e]. Tojik tilning unli fonemalar tizimida ham oltita fonologik birlikdan iborat: [a], [ə], [и//ĩ], [o], [y], [ỹ]. Tojik tilida *i* fonemasi ikki ko'rinish (variant) da qo'llanishi bilan farq qiladi - *u//ũ*, ya'ni odatdagi *u* va cho'ziq *ũ*. Har ikki tilda ham unli fonemalar lablarning ishtiroki, og'izning ochilish darajasi va tilning old va orqa qismi kabi uch xususiyat asosida tasnif qilinadi.

Undosh fonemalar tizimi masalasida o'zbek va tojik tillarida sezilarli farq yo'q. Har ikki tilda undoshlarning artikulyatsion bazasi bir xil, ya'ni farqsiz.

Endi o'zbek va tojik tillari fonetik-fonologik tizimiga xos o'zaro ta'sir masalasidagi ayrim holatlar haqida so'z yuritamiz. Ashyoviy dalillar xarakteridan ma'lum bo'ladiki, tojik tilida o'zbek

fonetik-fonologik tizimiga xos ba'zi xususiyatlar ko'zga tashlanadi. O'z navbatida tojik tilining shu tizimga aloqador ayrim xususiyatlari o'zbek tili fonetik-fonologik tizimidan munosib o'rin olgan. Tojik tilining undosh fonemalar tizimida [q] fonemasi bo'lmagan. Bu fonema *qaburg'a, qabchuq, qovoq, qayroq, qaymoq, qaychi* va h.k. so'zlarning tojik tiliga o'zlashishi va uning lug'at tarkibiga singishishi natijasida tojik tilning undoshlar tizimida [q] undoshi paydo bo'ldi. Bunday ta'sir va uning natijasi urg'u masalasida ham ko'zga tashlanadi. Oldin ham aytilganidek, tojik tili Hind-Evropa tillari oilasiga mansubdir. Shu jihatdan u rus tili bilan genetik yaqinlikka ega. Hind-Evropa oilasiga mansub tillarda so'z urg'usi erkin bo'ladi; so'zning oldimi, o'rtasimi, oxirimi – istalgan pozitsiyadagi bo'g'iniga tushaveradi. Ana shu tillar oilasiga mansub bo'lganligi uchun, tojik tilida ham urg'u so'zning istalgan bo'g'iniga tushishi, ya'ni erkin bo'lishi lozim edi. Lekin tojik tilida urg'u, o'zbek tilida bo'lganidek, so'zning oxirgi bo'g'iniga tushadi. Bu ham, shubhasiz, o'zbek tilining tojik tiliga bo'lgan ta'siridir. Ana shu ta'sir natijasida o'zbek va tojik tillarning fonetik-prosodik tizimida ko'zga tashlanuvchi farq barham topdi.

Bundan tashqari, fonetik sathning diskret birliklari amalida ham o'zbek tilining tojik tiliga o'tkazgan ijobiy ta'sirini ko'rish mumkin. Tojik adabiy tilining undoshlar tizimidan sirg'aluvchi [j] tovushi keyinchalik o'zbek tilidagi portlovchi [j] tovushiga xos prosodik xususiyatlarni kasb etgan, portlovchi [j] tovushiga moyillashgan. Sirg'aluvchi [j]ning portlovchi [j]ga moyillashuvi ayniqsa Shimoliy Tojikiston tojiklari nutqida aniq seziladi.

Endi ikki og'iz so'z tojik tilining o'zbek tili fonetik-prosodik tizimiga ta'siri haqida. O'zbek tilining fonetik va prosodik tizimlarida tojik adabiy tilining ana shunday tizimlariga xos xususiyatlar vujudga kelganki, bu avvalo o'zbek adabiy tilining lug'aviy tizimi va grammatik qurilishida sodir bo'lgan o'zgarishlar bilan bog'lanadi. O'zbek tili fonetik-fonologik tizimiga xos sezilarli va ijobiy o'zgarish mantiqan o'zbek tilining vokalizm tizimidagi evolyutsion jarayonlar natijasidir. O'zbek adabiy tili unlilar tizimida avval (qadimda) unlilar miqdori sakkiz-to'qqiztadan kam bo'lmagan, ular singarmonizmga moil bo'lgan. Tojik tilining ta'sirida o'zbek adabiy tilining unli fonemalari qisqarib, oltitada to'xtagan. Singarmonizm tugal barham topgan.

O'zbek tili unli fonemalari miqdorining qisqarishi til oldi va til orqa unlilarining asta-sekinlik bilan bir-biriga yaqinlashuvi va ayni bir o'rin (pozitsiya)ni egallashi bilan belgilanadi. O'zbek tili fonetik-prosodik tizimidagi bunday ijobiy o'zgarishlar tojik tilining, aniqrog'i, tojik va o'zbek tillari kontaktiga daxldor konvergensiya jarayonining amaliy ta'siri natijasida yuz bergan.

## **2.2. O'zbek va tojik tillarining lug'aviy sathga xos aloqasi**

Oldin ham aytilganidek, o'zbek va tojik xalqlari va ularning ajdodlari bir umumiy hududda qadim-qadimdan birga yashagan. Ularning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy va ma'naviy olamlarida hamma vaqt mushtaraklik bo'lgan. Har ikki xalqning turmush tarzi bilan bog'liq bu xususiyatlar, ularning tillarida ham o'z aksini topgan. Zero til, ayniqsa, uning lug'at tarkibi "hayot oynasi" deb bejiz aytilmagan. Darhaqiqat, o'zbek va tojik xalqlarining uzoq o'tmishidan davom etayotgan ibratli hamkorligi o'zbek va tojik tillarining lug'at tarkibida o'chmas iz bo'lib saqlanib qolayotir.

Ma'lumki, leksika va lug'at tarkibi dublet xarakteridagi atamalardir. Ular bir umumiy tushunchalik – tildagi barcha so'zlar majmuasini anglatadi. Har bir tilning boyligi ana shu majmuani tashkil etgan miqdori bilan o'lchanadi. Hozirgi o'zbek adabiy tilida, keyingi yaqin yillarda olti jildda nashr etilgan «O'zbek tilining izohli lug'atida» sakson mingdan ortiq lug'aviy birliklar qayd etilgan. Hozirgi tojik adabiy tili lug'at tarkibining birliklari ham, shubhasiz, bundan kam emas. O'zbek va tojik tillarining lug'at tarkibida ularning (shu xalqlarning) ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy, maishiy va ma'naviy olami in'ikosini topgan.

Ilmiy manbalarda har bir tilning leksikasi (lug'at tarkibi) ikki katta guruhga ajratiladi. Bu guruhlar qatlam deb ham ataladi. Lug'at tarkibi (leksika)ning bunday guruhlaridan biri o'z qatlam, boshqasi o'zlashgan qatlam atamallari bilan nomlanadi. Bunday bo'linish o'zbek va tojik tillarining ham lug'at tarkibiga xosdir.

Ayrim olingan muayyan tilning rivojlanishi o'zga qatlamga xos lug'aviy birliklar va ularning o'ziga xos tomonlari bilan bog'lanadi. Chunki o'zga qatlam taraqqiyotining tashqi omili sifatida yuqori baholanadi va munosib qadrlanadi. Til

leksikasining o'zga qatlami orqali shu tilning boshqa tillar bilan aloqasi tasavvur etiladi. Tillar o'zaro aloqada bo'lmasa, aralashmasa, uning lug'at tarkibida bunday qatlam shakllanmaydi. Boshqa qo'shni yoxud qo'shni bo'lmagan tillar bilan aloqada bo'lmagan til hech kimi bo'lmagan, birorta bilan do'stlashmagan shaxsga o'xshab qoladi. Til qancha ko'p boshqa tillar bilan aloqada bo'lsa, uning rivojlanish ko'lami ham keng bo'ladi.

O'zbek tili arab, rus, yunon, hind, xitoy va boshqa bir qator tillar bilan, ayniqsa, tojik tili bilan yaqindan aloqada bo'lgan. Bu aloqaning tarixi nihoyatda uzoq. Yuqorida aytilganidek, bu aloqa zamirida ikki buyuk xalqning aloqasi turadi. Darhaqiqat, o'zbek va tojik tillari leksikasidagi aralashuv o'zbek va tojik xalqlarining ibratli aloqasining lisoniy jabhaga xos aksi, in'ikosidir. O'zbek va tojik tillari leksikasidagi aralashuvning ijobiy tomonlari tojik tilshunosligining yirik namoyandalardan biri, akademik B.Niyozmuhammadov tomonidan ham e'tirof etilgan. U shunday yozadi: «O'zbek tilining lug'at tarkibida ko'plab miqdorda fors-tojik so'zlari bo'lganidek, tojik tili leksikasida ham kelib chiqishi turkiy va o'zbekcha so'zlarni ko'plab uchratish mumkin» (Niyazmuxamedov B.N. s.325).

Tarixiy-ilmiy manbalarning guvohlik berishiga qaraganda, tojik tili leksikasida turkiy (o'zbekcha) so'zlar XI asrgacha paydo bo'la boshlagan. XI-XII asrlardayoq tojik tilida *xon*, *xoqon*, *tamg'a*, *ilik*, *alxon* singari turkiy (o'zbekcha) so'zlar ishlatilgan. Rashiddin Fazlulloning «Jome'-ut-tavorix» asarida *oqo*, *yaroq*, *qadoq*, *qudo*, *anda*, *yarg'u*, *qorovul*, *ega*, *esomishi* singari turkiy so'zlar uchraydi. Turkiy (o'zbekcha) so'zlarning tojik badiiy adabiyotida ishlatilishi keyingi asrlarda yana faollashgan. R.Karimxo'jaevning guvohlik berishiga qaraganda, Muhammad G'iyosiddin Rompuriyning «G'iyos-ul-lug'ot» (XIX asr) asarida kelib chiqishi turkiy (o'zbekcha) bo'lgan 195 so'z qo'llangan.

A.Donishning «Navodir-ul-vaqoe'» asarida ham anchagina so'zlar ishlatilgan. Ularni tematik (mavzuiy) jihatidan quyidagicha guruhlash mumkin: 1) ma'muriy tushunchalarni bildiruvchi so'z va atamalar (*tilchi*, *qorovul*, *yasovul*, *bek*, *mingboshi*, *to'qsabo*); 2) harbiy sohaga oid so'z va atamalar (*sochma*, *yurish*, *o'rdu*, *qo'ndiq* va b.); 3) soliq (moliya) sohasiga oid so'zlar (*olug'*, *soq*); 4) joy ma'nolarini bildiruvchi

soʻzlar (*qishloq, qoʻrgʻon* va b.); 5) uy, xoʻjalik, narsa-buyum sohasiga oid soʻzlar (*oʻtun, qoshuq, choruq* va b.); 6) taom nomlarini bildiruvchi soʻzlar (*qaymoq, qazi, qimiz* va b.).

Oʻzbekcha soʻzlar S.Ayniy, A.Lohutiy, M.Tursunzoda, M.Mirshakar, A.Dehotiy, R.Jalil, J.Ikromiy, M.Rahimiy, S.Ulugʻzoda, F.Niyoziy va boshqa bir qator tojik adiblarining asarlarida ham uchraydi.

Professor N.A.Sharopov tadqiqotlarida ham tojik tili leksikasining boyishida oʻzbek tilining samarali taʼsiri eʼtirof etiladi. Uning «Hozirgi tojik adabiy tili leksikasining taraqqiyot yoʻllari» (Пути развития лексики современного таджикского языка. Душанбе: Дониш, 1988) monografisida tojik tili lugʻat tarkibiga oʻrnashib singishgan oʻzbekcha soʻzlar haqida qimmatli fikrlar aytiladi. Olim tojik tili leksikasidagi oʻzbekcha soʻzlarni dastlab «tojik tilida maʼnodosh (sinonimik) muqobiliga ega boʻlgan oʻzbekcha soʻzlar» va «tojik tilida maʼnodosh (sinonimik) muqobiliga ega boʻlmagan oʻzbekcha soʻzlar» kabi ikki guruhga boʻladi. Birinchi guruhga *qishloq (deha), choʻl (biyobon), oʻymoq (angushtpona), qoʻshun (lashkar), oʻrdak (murgʻobū)* kabi lugʻaviy birliklarni kiritadi. *Yoʻrma, miltiq, avul, qimiz* va sh.k. soʻzlar esa ikkinchi guruhda oʻrganiladi. Soʻngra tojik tili leksikasidagi oʻzbekcha soʻzlarning lisoniy – leksik guruhlari beriladi. Bunday guruhlar sifatida tarixiy soʻzlar (*qushbegi, korvonboshi, toʻqsabo, oqsaqol; toʻpchiboshi, qilich, qalqon, yuzboshi; chaqirim; botman, qadoq; koʻmoch, yorma; yorgich, yorgʻuchoq, yogʻlogʻu; boʻz; telpak, chakmon* va b.), antroponimlar (*Toshboy, Toʻxta, Qulbek, Boʻri, Ulugʻbek, Oʻgʻuloy, Yoʻldosh, Temur, Ergash, Berdiboy* va b.), toponimlar (*Qayroqqum, Qoratogʻ, Qoʻrgʻontepa; Konsoy, Qipchoq, Laqaybegi, Uzun* va b.), gidronimlar (*Oqsunon, Yashilkoʻl, Qizil Suv* va b.) ajratiladi.

Oʻzbek lugʻaviy oʻzlashmalari tojik tilining shevalarida ham koʻp uchraydi va ular shu shevalarning lugʻat tarkibidan munosib oʻrin ishgʻol etadi. Fikrimizni tojik tilining isfara shevasida uchrovchi oʻzbekcha lugʻaviy birliklar ham tasdiqlaydi. Isfara shevasida uchrovchi oʻzbek lugʻaviy birliklari filologiya fanlari nomzodi T.Maqsudov tomonidan quyidagicha guruhlarga ajratiladi: 1) tojik adabiy tiliga ham oʻzlashgan oʻzbek lugʻaviy birliklari (*yosh, qaymoq, biqin, qatiq, qaychi, chet,*

*qavurg'a*); 2) So'g'd viloyati tojik shevalarida uchrovchi o'zbek lug'aviy o'zlashmalari (*oqsaqol, es, yuvosh, og'ayni, qayno, o'tkur, buzuq* va b.); 3) faqat Isfara, shevasida uchrovchi o'zbek lug'aviy o'zlashmalari (*ishey «ziyoli», tilgak, jun, xakeiz, beshak, qarosovuq, jumza* va b.).

O'zbek tilining rivojlanishida, uning lug'at tarkibining boyishida tojik (tojik-fors) tilidan o'zlashgan lug'aviy birliklarning ahamiyati cheksiz kattadir. Ular o'zbek tili leksikasining o'zlashgan qatlamidan munosib o'rin olgan. O'zbek tili lug'at tarkibining o'zlashgan qatlamini ularsiz tasavvur etish qiyin. Bu hol o'zbek leksikasini unga qardosh bo'lgan boshqa turkiy tillar leksikasidan farqlash uchun xizmat qiladi. Negaki tojik-fors lug'aviy o'zlashmalari boshqa turkiy tillar leksikasida, o'zbek tilinikida bo'lgani kabi, katta salmoqqa ega emas. Masalan, o'zbek tilida *chorva* va undan yasalgan *chorvachi* so'zlarning ma'nosi qazoq tilida *mol* va *molchi*; *paxta, paxtazor* so'zlarining ma'nosi ozarboyjon tilida *pamuq, pamuqchi*; tatar tilida *mamik, mamikchi* so'zlarni orqali ifodalanadi. O'zbek tilidagi tojikcha-forscha *bahor, barg, qahramon* so'zlari o'rnida tatar tilida *yaz/yoz, yaprak, geroy* singari lug'aviy birliklar ishlatiladi. Bu kabi ashyoviy dalillar tojik tilining o'zbek tili va uning lug'at tarkibiga samarali ta'sirini sezish qiyin emas.

Tojik-fors tiliga mansub lug'aviy birliklarning o'zbek tiliga o'zlashishi ham yozma badiiy adabiyot, ham og'zaki nutq vositasida amalga oshgan. Tojik-fors so'zlarining o'zbek tiliga nutqning og'zaki shakli orqali o'zlashishida, tojik tili amalda bo'lgan hududga yaqin shevalari muhim rol o'ynagan. Ayni shu fikr taniqli shevashunos olim, akademik Sh.Shoabdurahmonov tomonidan ham e'tirof etilgan.

O'zbek tili lug'at tarkibidan mustahkam o'rin olgan tojikcha-forscha so'zlarning lug'aviy-mazmuniy ko'lami nihoyatda keng. Bu holat ularning o'zbek tilidagi tematik guruhlanishida ham yaqqol seziladi. O'zbek tili leksikasidagi tojikcha-forscha so'zlarni tematik jihatdan quyidagicha guruhlash mumkin:

1. Binokorlik va maishiy turmushga oid so'z va atamalar: *poydevor, devor, paxsa, darvoza; ganj, ship, ohak, mix, narvon, zina, palos, panjara; dasturxon, parda, xokandoz, borkash, obdasta, xum, chiroq, gugurt, poyondo, taxta, shisha, g'alvir, kapkir* va b.;

2. Diniy-mifologik tushunchalarni atovchi soʻz va atamalar: *firdavs, bihisht, paygʻambar, xudo, parvardigor, roʻza, salla, par, pari, namoz* va b.;

3. Hayvonot va parrandalar olamiga oid soʻzlar: *sher, jonivor, fil, nor, bulbul, kaptar, zogʻcha, bedona, pashsha, parvona* va b.;

4. Oʻsimlik va uning qismlarini bildiruvchi soʻzlar: *daraxt, chinor, gilos, anjir, paxta, mosh, noʻxat, tok, poliz, piyoz, sabzi, shalgʻam, sholi, shona, don, shox, bodom, meva, shaftolu, gul, barg, tarvuz, turp, murch, kanop, zigʻir* va b.;

5. Yil, fasl, oy, hafta va ularning qismlarini bildiruvchi soʻzlar: *Navroʻz, chilla, saraton, bahor, hafta, yakshanba, dushanba, seshanba, chorshanba, panjshanba, juma, shanba, peshin, asr, bomdod, xuftan, choshgoh* va b.;

6. Musiqa sanʼati sohasiga oid soʻzlar: *soz, gʻijjak, karnay, nay, rubob, tor, dutor, sozanda, tarona, ohang, nagʻma, bastakor, shashmaqom, dugoh, segoh* va b.;

7. Gavda va uning aʼzolarini atovchi soʻzlar: *tana, gardan, jigar, dil, lab, peshona* va b.;

8. Gazlama va kiyim nomlari: *adras, las, movut, shoyi, beqasam, doka, sarpo, yaktak, paytova, dakana* va b.;

9. Qarindoshlik maʼnosini bildiruvchi nomlar: *padar, nabira, farzand* va b.;

10. Mavhum hodisa va tushunchalarni bildiruvchi soʻzlar: *obroʻ, baho, vijdon, gunoh, gumon, hunar, pushaymon, mehr, kirdikor, andisha, armon, orzu* va b.;

11. Savdo-sotiq sohasiga oid soʻz va atamalar: *savdo, rasta, sarmoya, pul, moya, daromad, xarid, xaridor* va b.;

12. Shirinlik va taom nomlari: *shira, navvot, qand, oʻrik, non, shirgurunch* va b.;

13. Shaxs maʼnolarini anglatuvchi soʻzlar: *doʻst, dushman, birodar, oina, yor* va b.;

14. Qimmatbaho tosh va bezak nomlarini bildiruvchi soʻzlar: *gavhar, feruza, yoqut, tilla, zar* va b.

Tojik-fors tilidan oʻzlashgan soʻzlarning aksariyati ot turqumiga mansub lugʻaviy birliklardir. Miqdori nisbatan kam boʻlsa-da, ular orasida sifat: *pok, pokiza, xunuk, vazmin, shod, xurram, xursand, yakka, mayda, sust, soxta, arzon, sof, mard, nomard, nodon, puxta, puch, ximcha, xomush, xira, dagʻal* va



b.; olmosh: *har, hamma, hech, ravish kam, hamon, asta, hanuz* turkumlariga mansub soʻzlar ham bor. *Balki, zero, chunonchi, agar, garchi, magar, yoxud, na, toki* singari yordamchi soʻzlar ham oʻzbek tiliga tojik-fors tilidan oʻzlashgan.

Tojik tilidan oʻzlashgan ayrim lugʻaviy birliklar oʻzbek tilida nihoyatda faollashgan. Bu hol oʻzbek tilidagi baʼzi soʻzlar isteʼmolining cheklanishiga sabab boʻlgan. Masalan, tojik tilidan oʻzlashgan *gʻisht, behi, dazmol* soʻzlari isteʼmolining faollashuvi tufayli, ularning oʻzbek tilidagi *kirpich, ayva, utyug* singari umumturkiy muqobillarining isteʼmoli barham topgan. *Barg, daraxt, gul, meva, darvoza, zahar, pul, goʻsht, peshona, mehmon, dushman* kabi tojik-fors oʻzlashmalarning oʻzbek tilidagi amali tufayli yana boshqa lisoniy holat vujudga kelgan. Ana shu lugʻaviy oʻzlashmalarning oʻzbek tilidagi *yaproq, ogʻoch, chechak, yemish, qopqa, ogʻu, aqcha, et, manglay, qoʻnoq, yov* singari muqobillari boshqa uslubiy qiymat kasb etgan. Ularning qoʻllanishi badiiy uslubga moyillashib, isteʼmol doirasi cheklangan. Misollarga eʼtibor bering. *Ogʻochlarda sadaf yaproqlar koʻngillarga nishta taqadi (Uygʻun).*

*Bahor kulib, chechaklar sochmish,*

*Qiz qalbi gul ekan, yaproqlar sochmish (Uygʻun).*

Tojik-fors lugʻaviy oʻzlashmalarning ayrimlari oʻzbek tili ixtiyoriga oʻtgach, tojik tilida boʻlmagan boshqa maʼnolar kasb etgan, ayrimlarning esa maʼno koʻlamida qisqarish sodir boʻlgan. Masalan, *xunuk* soʻzi tojik tilida *sovuq, salqin, yoqimsiz* maʼnolarida ishlatilgan. U oʻzbek tilida *chiroyi yoʻq, koʻrimsiz, noxush* maʼnolarda qoʻllanadi. *Dumbul* soʻzining maʼno koʻlamida ham bu xususiyatni koʻrish mumkin. Mazkur soʻz tojik tilida *pishgan, tayyor, toza, pishirilgan tuxum, mevaning yaxshi pishgani* maʼnolarini anglatgan. *Dumbul* soʻzi oʻzbek tilida *yaxshi pishmagan don, yetilib pishmagan meva, aqli kam odam* maʼnolarida qoʻllanadi. Misollar: *Hali dumbul shaftolilarning shoxlari yerda. (Oybek.) Yusufbek hoji chala dumbul tabiatli xotinning feʼlini yaxshi bilgani uchun, kelin va qudalarning kelishlaridan xabar berishini lozim topdi. (A. Qodiriy.)*

Tojik tilida bir necha maʼnolarda ishlatiluvchi ayrim soʻzlar oʻzbek tiliga oʻsha maʼnolardan birini saqlagan holda oʻzlashgan. *Partov, magʻiz, darmon, pastkash* singari tojik lugʻaviy oʻzlashmalar ana shunday xarakterga ega.

O'zbek va tojik tillarining ikki tomonlama o'zaro aloqasi shu tillarning lug'aviy sathi bilan cheklanib qolmaydi. Bu ta'sirdoshlik o'zbek va tojik tillarining frazeologik tizimida ham ko'zga tashlanadi. O'zbek frazeologik tizimida tojik tilidan o'zlashgan so'zlar ishtirok etmagan iboralar juda kam. Birgina *jon* so'zi ishtirok etgan o'zbekcha frazeologik iboralar miqdori etmishga yaqin: *jon achchig'ida, jon bermaslik, jon demoq, joni achidi, jonidan to'ymoq, jon fido qilmoq, jon talashmoq, jonini jabborga bermoq* va sh.k. O'zbek lug'aviy birliklari ishtirokida hosil bo'lgan frazeologik iboralar tojik tilida ham mavjud.

Shunisi muhimki, o'zbek va tojik tillari frazeologik tizimidan ko'plab ibora (frazema)lar biri boshqasining tarjimasiga yoxud kalkasiga o'xshaydi: *ko'zingga qarab yur* – *ба чашми худ нигоҳ карда роҳгард*; *biror kishidan ko'ngli qolmoq* – *аз кесе ранчидан*; *dimog'i kuymoq* – *димоғаш сўхтан*; *g'am emoq* – *ғам хўрдан*; *afsus emoq* – *афсус хўрдан*; *jon berib jon olmoq* – *чон дода чон гурифтан*; *burni osmonda* – *фўкаш дар осмон*; *yoqasidan ushlamoq* – *аз гуребонаш доштан, sharti ketib, parti qolmoq* – *шарташ рафта, парташ мондагў*; *oyoq'i osmonda* – *пой дар ҳаво/ осмон*; *to'rt kishi ko'rgudek* – *чор кас меидагў*; *yomon ko'z* – *чашми бад*; *oyoq'ini qo'lga olib chortoq* – *пояшро ба даст гурифта давидан*; *tomog'ini yog'lamoq* – *гулўяшро равған кардан*; *taqdirga tan bermoq* – *ба тақдир тан додан*; *og'zi katta* – *даҳон калон*; *ikki qo'li burunda* – *ду даст дар бинў*; *bir yostiqaqa bosh qo'ymoq* – *ба як болишт сар мондан*; *qaysi shamol uchirdi* – *кадом шамол парронд* va b. Bunday xususiyat o'zbek va tojik maqollari va aforizmlari tizimida ham uchraydi. Masalan: *pashshadan fil yasamoq* – *аз пашша фил сохтан*; *odamgarchilikdan chiqmoq* – *аз одамгарў баромадан*; *o'z do'stim deb sir aytma, do'stingning ham do'sti bor* – *сирратро ба ошноят нагў, ошноят ошно дорад*; *ahmoq do'stdan aqlli dushman yaxshi* – *аз дўсти нодон душмани доно беҳ*; *bosh qashishga ham vaqt yo'q* – *ба сар хоридан вақт надорад*; *hech narsadan har narsa* – *аз ҳеч чиз ҳар чиз*; *to'ydan keyin nag'ora* – *баъд аз тўй нағора*; *bolaga ish buyuru orqasidan chor* – *бачаро кор фармову аз пасаш/ақибаш дав/рав*; *farzand aziz, odobi undan ham aziz* – *фарзанд азиз, одобаш аз вай азизтар*; *ilonning bolasi ilondir* – *бачаи мор мор аст*; *halvo deyish bilan*

*og'iz shirin bo'lmas – az xalvo g'uftan daxon shirin nameshavad* va h.

Tarjima yoxud kalkaga o'xshash frazeologik ibora, maqol va aforizmlar o'zbek va tojik tillarida juda ko'p va ularga xohlagancha misollar keltirish mumkin.

Xullas, o'zbek va tojik tillarining lug'aviy va frazeologik sathlarga xos aloqasi tufayli har ikki til mutanosib yo'sinda rivojlangan, ularning lug'at tarkibi va frazemalar tizimi kengaygan.

### **2.3. O'zbek va tojik tillarining morfem sathga xos aloqalari**

Morfemika – tilshunoslikning fonetika va fonologiya, leksikologiya va frazeologiya, morfologiya va sintaksis kabi mustaqil sohalaridan biri. Bu soha tilning morfemika sathini, uning birliklarini o'rganadi. Morfemikaning asosiy birligi morfemadir. Morfema tilning eng kichik ma'noli birligi sifatida so'z tarkibida mavjud bo'ladi. Har qanday lug'aviy birlik (so'z) tovushlardan tarkib topganidek, ular morfemalardan ham tarkib topadi. So'z tarkibining tovush qobig'i – tovushlardan iborat bo'lishi fonetika (fonologiya)da o'rganilsa, ularning morfemalardan tashkil topishi morfemikada o'rganiladi. So'z tarkibidagi fonetik birlik (tovush)lar va morfem birlik (morfema)lar lisoniy jihatdan farq qiladi: so'z tarkibining fonetik birliklari ma'nosiz, ma'noga ega bo'lmaydi; ularning morfem tarkibiga xos birliklari ma'noga ega bo'ladi. Demak, so'z tarkibining morfem birliklari (morfemalari)ga ifoda va mazmun planlari xosdir. Morfemalarning ifoda planlarini ham tovush va ularning birikmasi tashkil qiladi. Tovush va ularning birikuvini ham morfemalarni, ham yaxlit so'zlarni shakllantiradi, ularning har ikkisi uchun ifoda plani vazifasini bajaradi. Masalan, *maktabdosh* so'zi *m, a, k, t, a, b, d, o, sh* tovushlarining birikuvidan tarkib topgan. Fonema nuqtai nazaridan yondoshilganda, *maktabdosh* so'zining tarkibida [m], [a], [k], [t], [b], [d], [o], [sh] fonemalari mavjud. *Maktabdosh* so'zining morfem tarkibida ikki vazifadosh (funktional) qism mavjud: *maktab* va *-dosh*. Ayni shu tovush va fonemalar *maktab* va *-dosh* morfemalarini ham shakllantirgan.

Soʻzning fonetik tarkibiga xos tovush (va fonema)lar biri boshqasidan farq qilganidek, uning morfem tarkibiga xos birliklar ham oʻzaro farqqiladi. Yuqorida keltirilgan *maktabdosh* soʻzining *maktab* va *-dosh* morfemalari munosabatida ham bu narsani sezish qiyin emas. *Maktab* - *maktabdosh* soʻzining lugʻaviy maʼnoga ega boʻlgan qismidir, u oʻzak morfema ham deyiladi; *-dosh* qismi esa soʻzning lugʻaviy maʼnoga ega boʻlmagan morfemasidir, u affiks morfema deyiladi. Soʻzning yaxlit lugʻaviy maʼnosi oʻzak morfemaning maʼnosiga asoslanadi (*maktabdosh – ayni bir maktabda taʼlim olgan shaxslar*).

Oʻzak morfemaning lugʻaviy maʼnoga ega boʻlishi affiks morfemalarga xos maʼnolarni inkor etmaydi, albatta. Affiks morfemalar ham maʼnoga ega boʻladi. Lekin ularga xos maʼnolar lugʻaviy qiymat kasb etmaydi.

Affiks morfema, vazifasiga koʻra ikki xildir: soʻz yasovchi affiks, shakl yasovchi affiks. Soʻz yasovchi morfemalar yangi soʻz – yangi lugʻaviy birlik hosil qiladi. Ularning tizimi tilshunoslikning soʻz yasalishi boʻlimida oʻrganiladi. Shakl yasovchi affiks morfemalar yangi lugʻaviy birlik hosil qilmaydi, ular soʻzning grammatik (aniqrogʻi, morfologik) shakllarini hosil qiladi. Ularning tizimi morfologiyada oʻrganiladi. Masalan, *borliq* soʻzini olaylik. Bu soʻz tarkibida ikki morfema mavjud: *bor* va *-liq*. *-liq* affiks morfemadir, soʻz yasash vazifasida. Modal soʻz (*bor*)dan ot yasalgan. *Borliq* soʻzini, *-ni* affiksini qoʻshib, kengaytirsak, *borliqni* shakli hosil boʻladi. Endi bu soʻz tarkibida uch morfema bor. Ularning keyingi ikkitasi (*-liq*, *-ni*) affiks morfemadir. *-ni* affiksi (morfema) yangi lugʻaviy birlik yasamagan, balki *borliq* soʻzining tushum kelishigi shaklini hosil qilgan.

Yuqorida ham aytilganidek, morfemalar tizimida oʻzak morfema asliy sanaladi, affiks morfemalar oʻzak morfemaga qoʻshiluvchi yordamchi shakli koʻrsatkichlardir. Tilda koʻmakchi feʼllar, yordamchi soʻzlarning ayrim turlari ham affiks morfemalarga vazifadosh boʻlib, ular tizimini kengaytiradi.

Oʻzbek va tojik tilshunosligida morfema va uning talqinida aytarli farq yoʻq. Farqli xususiyatlar oʻzbek tili morfemalari bilan tojik tili morfemalarning ayrim koʻrinishlarida koʻzga tashlanadi, xolos. Oʻzbek tili morfem tizimida morfemalarning prefiks va, ayniqsa, infiks xarakteridagi turlari boʻlmagan. Shunga

qaramay, prefiks xarakteridagi affiks morfemalarning o'zbek tilidagi amali anchagina faol. Ular o'zbek tiliga tojik tilidan o'zlashgan.

Prefiks xarakteridagi affiks morfemalarning o'zbek tiliga o'zlashishi ikki yo'sinida amalga oshgan:

a) yasama so'z tarkibida derivat orqali o'zlashgan;

b) analogiya qonuniyati ta'sirida yakka holda o'zlashib, o'zbekcha lug'aviy birliklarga qo'shilgan: *notinch*, *noo'rin*, *beish* kabi.

O'zbek tilining morfem tizimida infiks (qo'shma so'zlar hosil bo'lishida ikki o'zak morfemani, ular o'rtasida kelib, qo'shuvchi affiks morfema turi: *sar-o-sar*, *dar ba dar* kabi) xarakteridagi affiks morfemalar umuman yo'q.

O'zbek va tojik tillarining morfem sathga ko'ra aloqasi masalasida shuni aytish joizki, o'zbek tili morfemalar tizimining shakllanishida tojik tili benazir va samarali ta'sir ko'rsatgan. O'zbek tili uchun azaldan xos bo'lmagan prefiks tavsifidagi morfemalar tojik tilidan o'zlashgan. Hozirgi o'zbek tilida prefiks xarakteridagi affiks morfemalar amali o'zbek tili morfem tizimidagi odatdagi hodisaga aylangan. Shu bois o'zbek tilida so'zlarning tarkibi «o'zak morfema + affiks morfema» tartibidagi andozaga ega bo'lgan bo'lsa, endilikda ular «prefiks + o'zak morfema»//«affiks + o'zak morfema» ko'rinishidagi andozani ham qo'lga kiritdi. O'zbek tili morfemalarining «*affiks//prefiks morfema + o'zak morfema*» andozasidagi tarkibi tojik tilining o'zbek tili morfem qurilishiga bo'lgan ijobiy ta'siri natijasida vujudga keldi. Bulardan tashqari, tojik tilidan o'zlashgan son-sanoqsiz holat ham tojik tilining o'zbek tili morfemalar tizimining boyishi, kengayishidagi ijobiy ta'siridir.

Tojik lug'aviy birliklari o'zbek tilining morfem qurilishida o'zak morfemalar vazifasida faol ishtirok etadi. Tojik tilining samarali ta'siri, ayniqsa, o'zbek tili affiks morfemalari tizimida yaqqolroq ko'zga tashlanadi. Tojik tilidan o'zlashgan suffiks xarakteridagi affiks morfemalarning o'zbek tilidagi faol amali buning yorqin dalilidir *-bon*, *-kor*, *-boz*, *-paz*, *-xo'r*, *-do'z*, *-soz*, *-xon*, *-shunos*, *-dor*, *-furush* va b. Yana muhimi shundaki, tojik tilida mustaqil lug'aviy birlik sifatida ishlatiluvchi ayrim so'zlar o'zbek tiliga o'zlashib, affiks morfema sifatida ham vazifa bajaradi. Masalan, *-xon* yordamida yasalgan *gazetxon*,

*kitobxon*; *-vachcha* yordamida *amakivachcha*, *xolavachcha*; *-xona* yordamida *ishxona*, *emxona*, *omborxona*; *-furus* yordamida *choponfurus*, *o'tinfurus* hokazolar bunga misol bo'la oladi.

Bundan tashqari, tojik tilidan o'zlashgan affiks morfemalar o'zbek tilining ayrim affikslari bilan qo'shib, murakkab tarkibli yangi affiksial morfemalarning vujudga kelishida faol ishtirok etib, o'zbek tilining affiksial morfemalar tizimini boyitishda muhim rol o'ynadi. Masalan, tojikcha-forscha *-gar* affiksi yordamida *-garlik* (*tayyorgarlik*, *sipohigarlik*); *-garchilik* yordamida (*odamgarchilik*, *ahmoqgarchilik*, *tayyorgarchilik*); *-dor* affiksi ishtirokida *-dorlik*, *-dorchilik* (*dimog'dorlik*, *mehmondorchilik*, *do'kondorchilik*); *-voz* affiksi ishtirokida *-vozlik* (*diqqatvozlik*, *maynavozlik*, *masxaravozlik*); *-soz* affiksi ishtirokida *-sozlik* (*mashinasozlik*, *avtomobilsozlik*); *-xon* affiksi ishtirokida *-xonlik* (*bedilxonlik*, *she'rxonlik*, *gazetxonlik*); *-go'y* affiksi ishtirokida *-go'ylik* (*latifago'ylik*) singari va h. qo'shma affikslar vujudga kelgan.

#### **2.4. O'zbek va tojik tillarining so'z yasalihi sathiga xos aloqasi**

So'z yasalihi ham tilshunoslikning morfemika va leksikologiya oralig'idagi mustaqil sohalardan biridir. So'z yasalihi til taraqqiyotining ichki omillaridan biri sifatida qaraladi. Bu soha yangi so'z hosil qilish jarayonini o'rganadi. So'z yasalihi tilshunoslikning alohida mustaqil sohasi sifatida keyin ajratilgan. Bu soha bilan aloqador masalalar asosan morfologiyada qaralgan. Ot, sifat, fe'l, ravish singari leksikogrammatik kategoriyalarni o'rganishga bag'ishlangan bobda so'z yasalihi - otlarning yasalihi, sifatlarning yasalihi, fe'l yasalihi, ravishlarning yasalihi kabi mavzusi ham bo'lgan. Shuningdek, morfemika ham morfologiyaning «So'z tarkibi» deb ataluvchi bo'limida o'rganilgan.

So'z yasalihi morfemika va leksikologiya oralig'idagi mustaqil soha ekanligi qisqacha sharh talab qiladi. Bunda so'z yasalihi morfemikaga ham, leksikologiyaga ham daxldor tomonlari nazarda tutiladi.

So'z yasalihi morfemikaga daxldor tomoni shundaki, morfemikada uning asosiy birligi sifatida o'rganiladigan

hodicalarni, ya'ni morfema va uning turlari so'z yasalishi jarayonida ham ishtirok etadi. Shu bois so'z yasalishida morfemalar (o'zak morfema ham, affiks morfema ham) o'zgacha lisoniy qiymat bilan o'rganiladi. So'z yasalishida so'z tarkibidagi vazifadosh qismlar (morfemalar) yangi so'z hosil qiluvchi vositalar sifatida qaraladi. Mazkur qo'llanmaning (qo'lingizdagi kitobning) oldingi bobida so'z tarkibidagi morfemalarning tavsiflash maqsadida *maktabdosh* so'zi va uning tarkibiga murojaat qilingan edi. Unda so'zning *maktab* qismi o'zak morfema, *-dosh* qismi esa affiks morfema tarzida baholangandi. *Maktabdosh* tipidagi so'zlarning andoza (model)lari so'z yasalishi jarayoni uchun ham taalluqli. So'z yasalishi nuqtai nazaridan, bu so'zning *maktab* qismi yasovchi asos, *-dosh* qismi esa yasovchi vosita deb yuritiladi. So'z yasalishining morfemikaga aloqador tomonlari ana shunday xarakterda bo'ladi.

So'z yasalishining leksikologiya bilan bog'liq tomonlari ham o'ziga xos xususiyatiga ega. Ma'lumki, leksikologiya til leksikasini, lug'at tarkibini o'rganadi. Leksika yoxud lug'at tarkibi deyilganda, muayyan tildagi barcha so'zlar majmuasi tushuniladi. Har qanday yangi so'z eng avvalo lug'at tarkibiga – leksikaga yangi lug'aviy birlik sifatida qo'shiladi, uni kengaytiradi. So'z yasalishi va uning jarayonlari tufayli tilda yangi so'zlar paydo bo'ladi. So'z yasalishi bilan bog'liq yangi so'zlarning paydo bo'lishi tilning ichki qonun-qoidalariga asoslanadi.

Tildagi har bir sath o'z birligiga ega bo'ladi. Bunday birlikka ega bo'lishlik so'z yasalishi uchun ham tegishli. So'z yasalishining asosiy birligi yangi so'z (derivat)ni hosil qiluvchi unsurlardir. Bu unsurlar yasovchi asos va yasovchi vosita kabi ikki turga ajraladi: yasovchi asos va yasovchi vositaning mantiqiy-lisoniy munosabatidan yangi so'z, yangi lug'aviy birlik vujudga keladi. Yasovchi asos tushunchasiga nisbatan motivlovchi asos, yasovchi vositaga tushunchasiga nisbatan motivlovchi vosita atamallari ham qo'llanadi. So'z yasash jarayonining hosilasi – yangi so'zga nisbatan yasalma, motivlangan birlik, derivat atamallari ishlatiladi. So'z yasalishi ayrim ilmiy manbalarda derivatologiya deb ham ataladi.

Soʻz yasalishi sathida yasovchi asos (motivlovchi asos), yasovchi vosita (motivlovchi vosita) tushunchalaridan tashqari, soʻz yasash usullari ham oʻrganiladi. Bu tushunchalarning majmuasidan tilning soʻz yasalishi tizimi hosil boʻladi.

Oʻzbek tilida ham, tojik tilida ham soʻz yasashning ikki asosiy usuli yordamida yangi soʻzlar hosil qilinadi. Ular affiksial (morfologik) va noaffiksial (sintaktik, kompozitsion) usullar deb yuritiladi. Bu ikki usul soʻz yasash tizimida eng faol hisoblanadi va soʻz yasashning sinxron jabhasiga tegishli boʻladi.

Tilning boshqa sathlarida kuzatilganidek, oʻzbek va tojik tillarining soʻz yasash tizimida oʻxshash jihatlar bilan bir qatorda, qiyosan oʻrganilayotgan har bir tilning xos tomonlarini boʻrttiruvchi farqli jihatlar ham yoʻq emas. Xususan, tojik tilida, oʻzbek tilidan farqli oʻlaroq, affiksial (morfologik) usulda soʻz yasashning prefiksli va infiksli turlari mavjud. Oʻzbek tilida affiksial soʻz yasashning faqat suffiksli koʻrinishi amal qiladi, xolos. Tojik tiliga xos prefiksli usulda soʻz yasalganda, yasama soʻz (derivat) yasovchi vosita + yasovchi asos andozasida hosil boʻladi.

Yasovchi vosita mavqeida prefiks qoʻllanadi: *хамроҳ, ҳамсоя, ҳамчинс, ҳамхона; ҳамнишин, ҳамнишаст; бамаъни, бофаҳм, босавод; беоб, безабон; ношод, ношинос, даргузар; баровардан, баркашидан; даромадан, даррасидан; боздоштан, бозхостан; вохӯрдан, нонамудан, фууромадан* va boshqalar. Keltirilgan misollar xarakteridan prefikslar yordamida ot (*хам-*) sifat (*бо-, бе-, но-, дар-*) va feʼl (*бар-, дар-, боз-, но-, фуур-*) yasalishi haqida tasavvur hosil qilish mumkin.

Tojik tilining ot turkumiga xos *сарулибос* (сар-у-либос), *сарутан* (сар-у-тан), *обуранг* (об-у-ранг); sifat turkumiga xos *чоночон* (чон-о-чон), *дуродур* (дур-о-дур), *пурпечутоб* (пурпеч-у-тоб); ravish turkumiga xos *саросар* (сар-о-сар), *саропой* (сар-о-пой), *сар ба сар* (сар-ба-сар) singari soʻzlarning yasalishi *-у-, -о-, -у-, -ба-* singari infikslar yordamida amalga oshgan.

Oʻzbek va tojik tillarining soʻz yasalishi sathiga xos aloqalari ham oʻziga xos xususiyatlariga ega. Bu sohadagi aloqadorlik ham oʻzbek va tojik tillarining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Oʻzbek va tojik tillarining soʻz yasalishi sathiga xos



aloqa bu tillarning rivojlanish manbai sifatida ularning lug'aviy sathga xos aloqalaridan keyingi ikkinchi o'rnida turadi. O'zbek tilining ta'sirida tojik tili so'z yasalishi tizimida, tojik tilining ta'sirida o'zbek tili so'z yasalishi tizimida ijobiy o'zgarishlar yuz bergan. So'z yasalishi sathiga xos aloqa tufayli tojik tiliga o'zbek tilidan ayrim so'z yasovchi qo'shimchalar (suffikslar) o'zlashgan. O'zbek tilidan o'zlashgan affikslar tufayli tojik tilida so'z yasashning o'zbekcha qolip (andoza)lari vujudga kelgan. Masalan, o'zbek tilidan so'z yasovchi *-chi*, *-loq*, *-chak* affikslarining o'zlashishi natijasida tojik tilida yasovchi asos + *chi*, yasovchi asos + *loq*, yasovchi asos + *chak*, andoza (qolip, model)sidagi so'z yasash tipi vujudga kelgan: *амадчи//солчи*, *анбарчи//омборчи*, *андовачи//андавачи*, *чойхоначи*, *доторчи*, *дуруғчи*; *санглоқ//тошлоқ*, *пўстлоқ*; *келинчак*, *бузичак* va b.

O'zbek tilida shakl yasovchi vazifasida otlarning kichraytish, erkalash ma'nolarini hosil qiluvchi *-cha* affiksi (suffiksi) tojik tilida so'z yasovchi affiks xarakterini kasb etgan. Professor sh.Rustamov ham bu affiks (*-cha*)ning shakl yasovchi morfemadan so'z yasovchi morfemaga aylanganligini alohida qayd etadi. Shuningdek, *-cha* affiksi yordamida tojik tilida *олуча*, *мўрча*, *ҳиссача*, *тоқча*, *остинча*, *думча*, *буғча*; *алоча*, *сурхча* singari bir qator so'zlar yasalganligi e'tirof etiladi.

O'zbek tili so'z yasalishi sohasida ham tojik tilining ijobiy ta'siridan katta va cheksiz bahramand bo'lgan. Tojik tilining ta'sirida o'zbek tili so'z yasalishi tizimida kutilmagan o'zgarish yuz berdiki, bu hol o'zbek tilining tashqi omillar ta'sirida rivojlanishida katta voqea hisoblanadi. Bu ta'sir natijasida o'zbek tilida ham affiksali so'z yasashning prefiksli usuli vujudga keldi. Tojik-fors tiliga mansub prefikslar o'zbek tiliga lug'aviy o'zlashmalar tarkibida (alohida mustaqil yo'sinda o'zlashmagan) o'tgan bo'lsa-da, keyinchalik ular analogiya qonuniyati asosida o'zbek tiliga xos so'z hosil qilish imkoniyatiga ham ega bo'ldi (*be-ish*, *no-tinch* kabilar).

Tojik tilidan o'zlashgan affikslar va ularning amali haqida professor J.Muxtorov shunday fikr bildiradi: «So'z yasovchi affikslarning asosiy qismini o'zbek tilining o'z affikslari tashkil qiladi. Shu bilan birga, o'zbek tilida boshqa tillardan o'zlashgan affikslar ham qo'llanadi. Masalan, *-don*, *-dor*, *ba-*, *no-*, *-kor*, *-zor*

kabi affikslar tojik tilidan o'zlashtirilgan. Bu yasovchi affikslar dastlabki vaqtlarda tojik tilidan qabul qilingan so'zlar tarkibida bo'lib, keyinchalik so'z yasash vositasi sifatida, o'zbek tilidagi so'zlarga ham qo'shib, yangi so'z yasash vazifasini o'tay boshladi. Masalan, *tuzdon, kuldon, salmoqdor, paxtakor, sersuv, noo'rin* va b.

Tojik tilining suffiks xarakteridagi so'z yasovchi affikslarining o'zbek tili so'z yasalishi tizimidagi amali alohida va muhim ahamiyatga ega. Suffiks xarakteridagi tojikcha so'z yasovchi affikslarning o'zbek tili so'z yasalishi jabhasidagi faolligi o'zbek tilining o'ziga tegishli bo'lgan suffiks xarakteridagi so'z yasovchi affikslaridan qolishmaydi.

Tojik tilidan o'zlashib, o'zbek tili so'z yasalishi jarayonlarida faol ishtirok etuvchi so'z yasovchi affikslar ikki guruhga ajraladi: 1) prefiks xarakteridagi so'z yasovchilar; 2) suffiks xarakteridagi so'z yasovchilar.

Prefiks va prefiksoid xarakteridagi so'z yasovchi affikslarga quyidagilar kiradi: *be-* (*bebosh, beiz, beto'xtov, beo'xshov* va b.); *no-* (*nokerak, notekis, notanish, notinch, noo'rin* va b.). Professor E.Begmatovning hisobiga qaraganda, o'zbek tili tarkibida *no-* prefiksi ishtirok etgan to'rt yuzdan ortiq so'z bor); *ser-* (*sersuv, serbutoq, serbola, seryog', serquyosh* va b.); *nim-* (*nimrang, nimqora, nimko'k* va b.); *kam-* prefiksoidi (*kamyog'in, kamgap, kamunum* va b.); *ham-* prefiksoidi (*hamtavoq, hamyurt, hamgap, hamqishloq, hamkurs* va b.); *xush-* prefiksoidi (*xushovoz, xushfe'l, xushbichim, xushyoqmas, xushxulq* va b.). Professor E.Begmatovning yozishiga qaraganda, o'zbek tilida *xush-* prefiksoidli so'zlar miqdori yuz ellikdan ortadi).

Suffiks va suffiksoid xarakteridagi so'z yasovchi affikslar quyidagilardan iborat: *-zor* (*o'tzor, tutzor, ko'kalamzor, to'qayzor* va b.); *-don* (*bilimdon, qalamdon, suvdon, kuldon, tuzdon* va b.); *-dor* (*unumdor, chiqimdor, yarador, bo'ydor, etdor* va b.); *-vor* (*ulug'vor, inivor* va b.); *-soz* (*uysoz, yo'lsoz, kemasoz, aravaso, ko'priksoz* va b.); *-kor* (*o'ymakor, tariqkor, bug'doykor* va b.); *-do'z* (*etikdo'z, yo'rmado'z, do'ppido'z* va b.); *-kash* (*tuyakash, belkash, chizmakash* va b.); *-bop* (*kiyimbop, ko'ylakbop, ishbop* va b.); *-xo'r* (*emxo'r, salqitxo'r, tekinxo'r* va b.); *-paz* (*baliqpaz, dimlamapaz* va b.); *-simon* (*yulduzsimon, oysimon,*

*qalqonsimon, o'tsimon* va b.); *-shunos//shinos* (*tilshunos, o'lkashunos, yershunos* va b.); *-ona* (*botirona, turkona, sharqona* va b.); *-bon//von* (*tuyabon, qo'ybon, yetimbon* va b.); *-parvar* (*bolaparvar, tinchlikparvar, yurtparvar* va b.); *-furush* (*olmafurush, o'rikfurush, tovuqfurush, o'rdakfurush, ko'katfurush, qaymoqfurush* va b.); *-noma* (*so'roqnoma, buyruqnoma, tilaknoma, ishonchnoma* va b.); *-xona* (*o'tinxona, suvxona, quyonxona, qo'yxona, qo'riqxonona* va b.); *-vachcha//bachcha* (*boyvachcha, o'g'rivachcha, itvachcha, qulbachcha* va b.).

Pofessor Yo.Tojiev «O'zbek tilida affiksial sinonimiya» deb nomlanuvchi doktorlik risolasida (Toshkent, 1991) hamda shu mavzuda yozilgan alohida ishlarida tojik tilidan o'zlashgan so'z yasovchi affiks va affiksoidlarning o'zaro va o'zbekcha affikslar bilan ma'nodoshligi (sinonimligi) haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Masalan, tojik tilidan o'zlashgan *-kor, -kash, -shunos, -furush, -soz, -paz, -do'z* affikslari o'zbek tilidagi *-chi* affiksi bilan ma'nodoshlikka ega: *paxtakor-paxtachi, xizmatkor-xizmatchi; gazetafurush-gazetachi; tilshunos-tilchi; soatsoz-soatchi* va b.

Tojik tilida kichraytish, erkalash ma'nosidagi so'z shakllarini hosil qiluvchi *-ak* affiksi o'zbek tiliga so'z yasovchi affiks sifatida o'zlashib, yasama (derivat)ning tarkibiga singishib ketgan: *ichak (ich-ak//oq), ipak (ip-ak//oq), yo'lak (yo'l-ak)*. Hozirgi o'zbek tili nuqtai nazaridan (ya'ni sinxronik jihatidan), *ipak, ichak, yo'lak* tipidagi so'zlarning tarkibi morfem jihatidan ham, so'z yasalishi jihatidan ham tahlil qilinmaydi. Bu so'zlar tarkibi bilan bog'liq morfem va so'z yasovchi qismlar tilning soddalashish deb ataluvchi qonuniyati ta'sirida tub so'zlar xarakterini kasb etgan.

Tojik tilidan o'zlashgan affikslarning nisbatan ko'pini ot yasovchilar tashkil etadi. Shuningdek, ularning ayrimlari sifat (*ser-, be-, ba-, no-* kabilar) va ravish (*-ona* affiksi) yasashda ham ishtirok etadi.

O'zbek tilining so'z yasalishi jarayonida tojik-fors lug'aviy o'zlashmalari ham faol qatnashadi. Tojik lug'aviy o'zlashmalari yangi so'z - yasalmaning yasovchi asos (motivlovchi asos) mavqeidagi qismi sifatida ishtirok etadi. Bu jarayonda fe'l turkumiga oid so'zlar hosil bo'ladi. Yasalma yangi so'z tarkibining yasovchi vosita xarakteridagi qismida o'zbek tiliga xos affiks yoki ko'makchi fe'llar qatnashadi: *donlamoq (don-la)*,

*lablangan (lab-lan) unli, qadrdonlashmoq (qadrdon-lash); bas bo'lmoq, paydo qilmoq, tor-mor etmoq, vayron bo'lmoq, nobud qilmoq, pushaymon bo'lmoq, farmon bermoq va h.k.*

So'z yasashning noaffixsal usuli amalida ham tojik-fors lug'aviy o'zlashmalarning munosib o'rni bor. Noaffixsal usul vositasida qo'shma va juft so'zlar yasaladi. Bunday jarayonda qo'shma yoki juft so'z tavsifidagi yasalmaning (motivlovchi) vositalaridan biri sifatida tojik tilidan o'zlashgan lug'aviy birliklar ishtirok etadi: *yer-zamin, tuz-namak, hiyla-nayrang, tilka-pora, es-hush, cho'p-xas, yor-birodar, yor-do'st, labi-lunji* va b.

Tojik-fors lug'aviy o'zlashmalari ishtirokida hosil bo'lgan qo'shma so'zlar masalasiga kelsak, o'zbek tilida bunday so'zlarning son-sanog'i yo'q.

## **2.5. O'zbek va tojik tillarining grammatik sathga xos aloqasi**

Tilning amalida grammatik qurilishi va uning lug'aviy qurilishi kabi hodisalar muhim rol o'ynaydi. Chunki leksikaning harakati grammatik qurilishi orqali amalga oshadi. Lug'aviy birliklar grammatika va uning qonun-qoidalari ta'sirida aloqalarlashuv (kommunikativ) jarayonda ishtirok etadi, gapdagi fikrni reallashtiradi. Kopengagen glossematika tilshunosligi maktabining asoschilaridan biri Lui Blumfildt ta'biri bilan aytganda, leksika (lug'at takibi) tilning tanasi bo'lsa, grammatik qurilish (morfologiya va sintaksis) uning jonidir. Jonsiz tana va uning a'zolari harakatdan to'xtaganidek, grammatik qurilishsiz leksikaning harakati ham barham topadi. Chunki leksika va uning lug'aviy birliklari nutq ixtiyoriga (kommunikatsiya jarayoniga) faqat grammatik qurilish vositasida o'tadi.

Tilning grammatik qurilishi atamasi ostida morfologiya va sintaksisni o'z ichiga olgan murakkab lisoniy tizim (sistema) tushuniladi. Grammatik qurilish yoxud grammatika tilshunoslikning eng yirik bo'limlaridan biri hisoblanadi.

Tillar grammatik qurilishining xarakteriga ko'ra farq qiladi. Ana shunday farq, qisman bo'lsa-da, o'zbek va tojik tillari munosabatida ham ko'zga tashlanadi. O'zbek tili agglyutinativ tillar guruhiga mansub bo'lsa, tojik tili flektiv tillar guruhiga kiradi. Lekin o'zbek tili agglyutinativ tilning suffiksli va sintetik guruhiga qarashli bo'lsa, tojik tili flektiv tillarning prefiksli, infiksli

va analitik guruhiga kiradi. O'zbek va tojik tillarini farqlashda agglyutinativ tillar qurilishiga xos bunday tillarning ta'siri kuchsiz, albatta. Negaki suffikslashgan tilga xos xususiyatlar tojik tilining grammatik qurilishida ham (garchand u yetakchi moya sanalmasa ham) mavjud. Shuningdek, agglyutinativ qurilishning prefiksli tipiga xos xususiyatlar, keyinchalik tojik tilining ta'siri tufayli, o'zbek tilida ham paydo bo'la boshladi (bular haqida morfemika va so'z yasalishi bobida qisqacha ma'lumot berilgan).

O'zbek va tojik tillarining keskin farqi ularning genealogik xususiyatiga ko'radir: o'zbek tili oltoy tillari oilasiga mansub bo'lsa, tojik tili Hind-Evropa tillari oilasiga qarashlidir. Bunday genealogik farqdan qat'iy nazar, o'zbek va tojik tillarining o'zaro ta'siri va uning natijasi bu tillarning grammatik qurilishida ham aniq ko'zga tashlanadi.

Shunisi ham borki, o'zbek va tojik tillarining grammatik qurilishidagi ta'sirini ularning leksika sohasida ko'zga tashlanadigan ta'siri darajasida faol deb bo'lmaydi. Chunki til grammatik qurilishiga xos o'zgarishlar anchayin uzoq davrlar mahsulidir. Zero, grammatik qurilish til yaxlit tizimining yopiq turiga, lug'at tarkibi (leksika) esa uning ochiq turiga tegishli bo'ladi. Til tizimining ochiq xarakterdagi turi elastik tavsifda bo'lib, undagi har qanday o'zgarish tez va izchil amalga oshadi, til tizimining yopiq xarakterdagi tipiga xos o'zgarish esa, aksincha, juda sust va sekinlik bilan sodir bo'ladi.

### **2.5.1. O'zbek va tojik tillarining morfologik sathga xos aloqasi**

O'zbek va tojik tillari, yuqorida aytilganidek, tipologik jihatdan farq qiladi. O'zbek tilining grammatik qurilishiga ko'proq agglyutinativ tillarga xos sintetiklik xususiyati xos bo'lsa, tojik tilining grammatik qurilishiga analitik-flektivlik xususiyati xosdir. Bundan tashqari, o'zbek tili suffiksli til sanalsa, tojik tili prefiksli tillar guruhiga kiradi. Yordamchi so'z xarakteridagi formal-grammatik kategoriyalarning amaliga ko'ra ham o'zbek va tojik tillari o'zaro farq qiladi. Chunonchi, o'zbek tilida so'zlararo grammatik munosabatlar ko'makchilar orqali ham ifodalanadi, ya'ni o'zbek tili ko'makchili tildir. Tojik tilida bunday emas: so'zlararo grammatik munosabatlar old ko'makchilar

(predloglar) yordamida ifodalanadi, ya'ni u old ko'makchili (predlogli) tillar guruhiga mansubdir.

Ayrim grammatik kategoriyalarning mavjudligi yoki mavjud emasligi jihatidan ham bu ikki til o'zaro farq qiladi. O'zbek tilida kelishik mustaqil grammatik kategoriya xarakterida bo'lsa, bu kategoriya o'ziga xos grammatik ko'rsatgichlar tizimiga ega. Tojik tilida esa kelishik kategoriyasi mavjud emas, shuningdek, bu kategoriyaning shakliy grammatik ko'rsatgichlar tizimi ham shakllamangan. Bu tilda kelishiklar vositasida ifodalanadigan grammatik munosabatlar predloglar zimmasiga yuklatilgan: *ба пеш* – *oldinga*, *дар хона* – *uyda*, *ба мактаб* – *maktabga*, *аз китоб* – *kitobdan* va boshqalar. Seziladiki, o'zbek tilida jo'nalish kelishigi orqali ifodalanadigan grammatik munosabat tojik tilida *ba*, o'zbek tilida o'rin-payt kelishigi yordamida ifodalanadigan grammatik munosabat tojik tilida *dar*, o'zbek tilida chiqish kelishigi vositasida ifodalanadigan grammatik munosabat tojik tilida *az* old ko'makchilari (predloglari) yordamida ifodalangan. O'zbek tilida qaratqich kelishigi orqali ifodalanadigan grammatik munosabat tojik tilida izofali shaklda (*mening kitobim* – *китоб-у ман*, *dugonamning maktubi* – *мактуб-у дугонау ман*) yuzaga chiqadi. O'zbek tilida tushum kelishigi vositasida ro'yobga chiqadigan grammatik munosabat tojik tilida *ro* ko'makchisi orqali ifodalanadi.

Tojik tilida grammatik munosabatlarni ro'yobga chiqaruvchi kelishik kategoriyasining yo'qligi A.Semyonov, R.A.Nemyonova, V.S.Rastorguyeva kabi tilshunoslar tomonidan ham e'tirof etilgan.

O'zbek va tojik tillari grammatik qurilishida ayrim umumiy tomonlar ham yo'q emas. Bu har ikki tilning grammatik qurilishida albatta, *ehtimol*, *darkor*, *zarur*, *aftidan*, *axir//oxir*, *ilohi*, *koshki*, *qani*, *balki* tipidagi modal so'zlar; *tanho*, *magar*, *mabodo*, *faqat*, *hatto*, *ham*, *go'yo*, *go'yoki*; *-chi*, *-mi* singari yordamchi so'z va morfemalar bir xil lisoniy qiymat kasb etadi. Akademik B.N.Niyozmuhammadovning e'tirof etishicha, tojik tilidagi *заб-зард*, *суп-сурх*, *сип-сиёҳ*, *сап-сафед*, *кап-кабуд*, *тип-торик*, *каппа-калон* tipidagi takroriy shakllar o'zbek tilidagi *sap-sariq*, *qip-qizil*, *qop-qora*, *kap-katta*, *qop-qorong'i*, *kuppa-kunduz* va h.k. so'zlarining kalkasi sifatida paydo

bo'lgan. Bundan tashqari tojik tilidagi so'roq yuklamasi –*mi* ham aslida o'zbek tilidan o'zlashgan: *Гўёдчу, ҳамин таър нему?*

Akademik B.N.Niyozmuhammadov yana e'tirof etishiga qaraganda, o'zbek va tojik tillari har xil grammatik qurilishli tillar bo'lishiga qaramay, ularda kelib chiqishi arab yoki fors tillariga borib taqaluvchi *yo, yoki, lekin//lokin, ammo, -ki, chunki* bog'lovchilari mushtarak ma'no va vazifada ishlatiladi. O'zbek va tojik tillarining undov so'zlar tizimida ham bunday o'xshashlik mavjud: *eh, e-he, oh, uh, voy, voy-dod, beh-beh, chuh-chuh* va b.

O'zbek tilining morfologik qurilishida tojik tilining morfologik qurilishiga xos ba'zi jihatlarning amalini sezish qiyin emas. O'zbek tilida otlarning erkalash va hurmat shakllarini hosil qiluvchi *-xon, -jon* kabi affiksoidlar tojik tilidan o'zlashgan: *oyijon, akajon, dugonajon, otajon, onaxon, Azizaxon, Jo'raxon, Habibaxon* va b.

O'zbek tilining takroriy so'zlar tizimida ham tojik tilining sezilarli ta'siri bor. O'zbek tilida *uyma-uy, ko'chama-ko'cha, eshikma-eshik, boshma-bosh, shaharma-shahar* ko'rinishida uchraydigan takroriy so'zlar tojik tilining *ba-* unsurli takroriy so'zlari andozasida paydo bo'lgan: o'zbekcha takroriy so'zlar oralig'ida ishlatiluvchi *-ma-* tojik tili takroriy so'zlarini hosil qiluvchi *-ba-* unsurining o'zbek tili uchun rasmiylangan muqobilidir.

O'z navbatida tojik tilining morfologik qurilishida ham o'zbek tili morfologik qurilishiga xos ba'zi jihatlari ko'zga tashlanadi. Tojik tilida ham otlarning kichraytish va erkalash shakllarini hosil qiluvchi *-cha* affiksi ishlatiladi (*дегча, суфача, писарча, духтарча*). Bu qo'shimcha tojik tiliga o'zbek tilidan o'zlashgan. Tojik tilida, o'zbek tilining ta'siri tufayli, otlarning kelishikli, ko'makchili shakllari ham vujudga kelgan. Masalan, *зимистонанда – qishda, баҳоранда – bahorda, мактабанда – maktabda, бозоранда – bozorda, хонаба//хонава – uuga, манба – menqa; модарам кату//қату – onam bilan, бародарам кату//қату – akam bilan* va b.

O'zbek tilining tojik tili morfologik tizimiga ta'sirini tojik tilida keyinchalik paydo bo'lgan ba'zi fe'l shakllarida ham ko'rish mumkin. Masalan, *istodan* fe'lining yordamchi so'zga (ko'makchi fe'lga) aylanishi o'zbek tilidagi *tur//ish, tur//moq*

fe'lining ko'makchi fe'lga aylanishi andozasida ro'y bergan: *duḍa ucmoda byḍam* – ko'rib turgan edim, *kor kapḍa ucmoda byḍam* – ishlab turgan edim, *paḍma ucmoda byḍam*

### **2.5.2. O'zbek va tojik tillarining sintaktik sathiga xos aloqasi**

O'zbek va tojik tillariga xos mushtaraklik va farqlar bu tillarning sintaktik sathida ham mavjud.

O'zbek va tojik tillarining sintaktik sathidagi mushtaraklik eng avvalo shundan iboratki, o'zbek tilining sintaktik tizimida qanday lisoniy hodisalar bo'lsa, bunday lisoniy hodisalar tojik tilining sintaktik tizimi uchun ham xosdir. Xususan, sintaktik aloqaning teng va tobe tavsifidagi ikki turi, so'z tizmasi, so'z birikmasi, sodda va qo'shma gaplar, matn singari hodisalar o'zbek tilining ham, tojik tilining ham sintaktik tizimini tashkil qiladi. Bulardan tashqari, gap bo'laklari va ularning turlari, gap bo'laklari bilan aloqador barcha sintaktik hodisalar, har ikki tilning sintaktik qurilishida mavjud. Sintaksisga daxldor bunday hodisalarning ilmiy-nazariy talqinida ham aytarli farq yo'q.

O'zbek va tojik tillarining sintaktik qurilishidagi asosiy farq sintaktik hodisalarning ifoda planida ko'zga tashlanadi: sintaktik qurilishlarning voqelanish andozalari (modellari) o'zbek va tojik tillarida bir xil emas.

O'zbek tilining sintaktik qurilishida ular tizimiga xos sintaktik butunliklar turkiy tillarning sintaktik qurilishiga xos odatiy ko'rinishga muvofiq tarzda hosil qilinadi: bu odatiy ko'rinish keng ma'nodagi aniqlovchi+aniqlanmish xarakterida bo'ladi. Bu mushtarak andoza (model) asosida qismlari tobe aloqaga tayanuvchi kommunikativ va nokommunikativ xarakterdagi butunliklar hosil bo'ladi. Masalan, gap tarkibida to'ldiruvchi va holning kesimdan oldin kelishi (to'ldiruvchi+kesim, hol+kesim); aniqlovchining ot orqali ifodalangan bo'lakdan oldin kelishi (aniqlovchi+ega//aniqlanmish, aniqlovchi+kesim//aniqlanmish, aniqlovchi+to'ldiruvchi//aniqlanmish, aniqlovchi + hol//aniqlanmish, aniqlovchi+aniqlovchi//aniqlanmish). Keyingi yillarda hukm surayotgan sintaktik qarashlarga ko'ra, ega, garchand gapda mutlaq hokim bo'lak sanalsa-da, kesimga tobe, uni kengaytiruvchi gap bo'lagi sifatida talqin etilayotir. Shunga ko'ra, o'zbek tilida ega va kesim munosabatida ham



aniqlovchi+aniqlanmish tartibi bor deyish mumkin. Sintaktik hodisalar tabiatiga xos an'anaviy (traditsion) qarashlarda gapning grammatik asosini tashkil etuvchi ega va kesim birikuvi aniqlanmish-aniqlovchi tartibida vujudga kelgan deb qaraladi (*Qush sayradi. Ukam – talaba.*) va h.k.

Tojik tilida sintaksisning nokommunikativ xarakteridagi ayrim birliklarining hosil bo'lish andozalari o'zbek tilinikidan farq qiladi. Ularning hammasi ham, o'zbek tilinikida bo'lganidek, keng ma'nodagi aniqlovchi+aniqlanmish andozasida voqelanavermaydi. Xususan, aniqlovchili birikmalar aniqlanmish+aniqlovchi tartibidagi andozaga muvofiq, vujudga keladi. Masalan, *хонаи нав – yangi uy, мактаби ултуди – boshlang'ich maktab, шароити қулай – qulay sharoit* va b. Aniqlovchili birikmalarining qaratqichli ko'rinishida ham bu tartib hukmrondir: *китоби бародарам – ukamning kitobi, сўхбату устодон – ustozlarning suhbat* va b.

Sodda gaplar va ularning grammatik asosining qurilishi jihatidan o'zbek va tojik tillari farqlanmaydi. Nutq talabi bilan ko'zga tashlanuvchi inversiya holati bu ikki tilning sodda gaplari qurilishida deyarli bir xil. O'zbek va tojik tillarida sodda gaplarning odatdagi me'yoriy tizimida kesim egadan keyin keladi. Inversiya holatida bu tartib kesim+ega ko'rinishiga ega bo'ladi. *Keldi bahor, gul bahor.*

Sodda va qo'shma gaplarning vazifaviy qismlariaro sintaktik munosabatlar so'zning turli xil morfologik shakllari va yordamchi so'zlar orqali ifodalanadi, ularga tobe ohang hamrohlik qiladi. Bu masalada ham o'zbek va tojik tillarining sintaktik qurilishida mushtaraklik mavjud. O'zbek tilida ham, tojik tilida ham sodda gapning uyushgan bo'laklari, bog'langan (parataktik) qo'shma gaplarining predikativ qismlari teng bog'lovchilar yordamida birikadi.

O'zbek va tojik tillarining farqlanishini sodda gap qismlarining tobe aloqali (tobelangan) vazifaviy unsurlari (bo'laklari) va ularning shakllanishi masalasida ko'rish mumkin. O'zbek tilida sodda gap tarkibining tobelangan unsurlari, ayniqsa, to'ldiruvchi va hol tushum, jo'nalish, o'rin-payt va chiqish kelishiklari yordamida shakllanadi. Bundan tashqari, ular so'zlarning analitik shakllari vositasida ham ifodalanadi. To'ldiruvchi va hol kabi vazifaviy unsurlarning, so'zlarning

analitik shakllari yordamida ifodalanishida ko'makchilar muhim o'rin egallaydi.

Tojik tilida esa, sodda gap tarkibining to'ldiruvchi va hol tavsifidagi vazifaviy unsurlari, o'zbek tilinikidan farqli o'laroq, so'zlarning old ko'makchili (predlogli) analitik shakllari yordamida ifodalanadi: *Ба об омадам – Suvga (suv uchun) keldim. Аҳмад маҳдум ба ин чо барои дамгурӯ меомад (С.Айнӯ) – Ahmad maxdum bu erga dam olish uchun kelardi. Аз Урганҷ то Тахиятош дар масофаи бештар аз ду сад километр роҳи оҳан кашуда шудааст (А.Деҳотӯ) – Urganchdan Taxiyatoshgacha ikki yuz kilometrdan ko'proq temir yo'l qurildi.*

O'zbek tilida ko'makchilar orqali ifodalanadigan sintaktik munosabatlar tojik tilida mustaqil so'zlarning yordamchi so'zlarga (predlog, peshoyand) aylangan *aqib, bolo, ba'd, bayn, berun, darun, pesh, taraf, so'y, tag, gird, nazd, qarib, zer, miyon, pahu, bar, ro', dast, sar, lab* singari birliklari vositasida ifodalanadi. Misollar: *Роҳи оҳан аз болои кўпрук мегузарад – Temir yo'l ko'prik ustidan o'tadi. Дар пеши Чамила ягон кас набуд – Jamilaning oldida hech kim yo'q edi. Сўҳбат асосан байни Қорӯ-ака ва мезбон мегузашт (Ф.Муҳаммадиев) – Suhbat asosan Qoriaka va mezbon o'rtasida bo'lib o'tdi. Он ба тарафи Тахиятоши кўҳна омад (А.Деҳотӯ) – U eski Taxiyatosh tarafiga keldi va b.*

Tojik tilida, garchand predlog (peshoyand)lar kabi ko'p va faol bo'lmasa-da, ko'makchi (pasoyand)lar xarakteridagi yordamchi so'zlar ham mavjud. Bunday yordamchi vositalarga -*ro, kati//qati, barin, boz* kabilar kiradi. Bular sodda gaplarning to'ldiruvchi va hol singari bo'laklarini shakllantiradi, ular bilan bog'liq sintaktik munosabatlarni ifodalaydi: *Гулрӯ кўзаро гурифт – Gulru ko'zani oldi. Ман бародарам кати омадам – Men akam bilan keldim. Ман шумо барин шуданро мехоҳам – Men sizday bo'lishni istayman. Ман як ҳафта боз аз дарс маҳрум шудам – Men bir haftadan bo'yon darsdan mahrumman.* Misol uchun keltirilgan gaplarning birinchisida -*ro* yordamchisi (pasoyand) o'zbek tilidagi tushum kelishigi qo'shimchasining vazifasini bajargan. Keyingi gapda ishlatilgan *kati* yordamchisi o'zbek tilidagi *bilan* ko'makchisiga vazifadosh. Uchinchi gap tarkibida kelgan *barin* yordamchisi o'zbek tilida

shakl yasovchi sanaluvchi *-day//dek* qo'shimchalarining vazifasida kelgan. Eng oxirgi gap tarkibidagi *boz* yordamchisining vazifasi va ma'nosi o'zbek tilidagi *buyon* ko'makchisining vazifasi va ma'nosiga tenglashadi.

Bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplarning tasnifi va tuzilishi jihatidan o'zbek va tojik tillarining sintaktik qurilishi farq qilmaydi. *Ham, ammo, lekin, goho, goh-goh, xoh-xoh, na-na, yo-yo* bog'lovchilari yordamida o'zbek tilida ham, tojik tilida ham bog'langan (parataktik) qo'shma gaplar hosil bo'ladi. *Дар он наздикиҳо на деҳа буд, на девор, на дарахт, на киштзор (С.Айнӯ) – Бу yaqin o'rtada na qishloq bor edi, na devor, na daraxt, na ekinzor. Дар ҳамин вақт асп аз дастам ҷудо шуд, лекин дастам сўзиш мекард (С.Айнӯ) – Shu vaqt ot qo'limdan chiqib ketdi, lekin qo'lim og'rirdi* va b.

Ana shu xususiyatni ergash gapli qo'shma gaplarning hosil bo'lishida ham ko'rsa bo'ladi. O'zbek tilida ham, tojik tilida ham ergash gapli qo'shma gaplarning katta bir qismi *-ki, zero, zeroki, chunki, toki, chunonki, go'yoki, agar, agarchi* singari ergashtiruvchi bog'lovchilar ishtirokida hocil bo'ladi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, bog'langan va ergash gapli qo'shma gaplarni hosil qilishda faol bo'lgan bu bog'lovchilar o'zbek tiliga tojik tilidan o'zlashgan. Ular hozirgi vaqtda o'zbek tili sintaktik qurilishining o'z shakliy-grammatik vositalari sifatida qaraladi. Ularning ba'zilar aslan arab tiliga qarashli bo'lgan, o'zbek tiliga esa tojik tili vositasida o'zlashgan.

Xulosa tarzida aytish mumkinki, ayrim lahja yoki sheva materiallarini nazarda tutmaganda, o'zbek va tojik tillarining sintaktik qurilishiga xos ta'sirdoshligi ularning sintaksisdan boshqa sathlariga xos ta'sirdoshligiga nisbatan ancha kuchsiz va nofaoldir.

## ҚИСМИ АВВАЛ

### МАСЪАЛАҲОИ УМУМИИ МУОШИРАТИ ЗАБОН

#### 1.1. Мавзӯъ, ҳадаф ва вазифаҳои курси “Робитаи забонҳои тоҷикӣ ва ўзбекӣ”

Гарчанде, ки таҷрибаҳо оид ба омӯзиши муқоисавии забонҳо аз замонҳои қадим оғоз шуда бошанд ҳам, забоншиносон дар забоншиносии ҷаҳонӣ ба ҳалли мушкилоти робитаҳои забон дар охири асри XIX ва ибтидои асри XX шурӯъ карданд. Аз ҷумла Г.Шухардт, И.А.Бодуэн де Куртенэ мустақилона ба забоншиносӣ мафҳуми «омехтаи забонҳоро» ворид карданд.

Тибқи гуфтаи Г.Шухардт имкониятҳои даҳолати забон ҳудуд надоранд; он метавонад ба фарқиятҳои максималӣ ва минималии забонҳо оварда расонад. Бодуэн де Куртенэ тавсифи забонҳои аз ҷиҳати иртиботӣ, аз ҷиҳати ҷуғрофӣ ва иҷтимоӣ - таърихӣ алоқамандро ҳамчун вазифаи асосии назарияи забон, инчунин тавсифи забонҳои марбутро дар асоси усули муқоисавӣ –таърихӣ баррасӣ кард.

Г.Паул инчунин истилоҳи даҳолати забонро истифода мебарад. Дар доираи ин истилоҳ, ӯ чунин падидаҳоро мефаҳмад ба монанди таъсири як забон ба забони дигар, таъсири як лаҳҷа ба лаҳҷаи дигар инчунин аз нав ассимилятсия дар забони маводи дар марҳилаҳои қаблии рушд мефаҳмад. Г.Паул дар бораи ғояҳо, ҳамкориҳои забонҳо дар навбати худ дар бораи раванди пайдоиши дузабонӣ сабабҳо ва оқибатҳои он дараҷаи таъсир муфассал сухан ронд.

Бояд гуфт, ки ӯ ба сатҳи луғавии забон таваҷҷӯҳ зоҳир кард. Он танҳо бо додани ғояҳои умумӣ дар бораи таъсири мушоирати забонӣ ба сатҳҳои дигар маҳдуд аст.

Л.Блумфилд ба мисли Г.Паул таваҷҷӯхро ба истилоҳот дар заминаи дузабонӣ равона мекунад. Нуқтаҳои танқидиро дар бораи падидаи асоси шарҳ медиҳад, яъне сустии ғояҳоро дар бораи таъсири беруна ба системаи фонетикӣ таъкид мекунад .

Аммо далелҳои объективии забон нишон медиҳанд, ки назарияи Л.Блумфилд дуруст нест. Л.Блумфилд бе ягон сабаб ба масъалаҳои монанди табиат ва намудҳои

дузабонӣ таваҷҷӯҳ зоҳир намекунад. *Истилоҳи даҳолати забон аз ҷониби бисёр забоншиносон барои таҷрид танқид шудааст.*

Дар забоншиносии ҷаҳонии муосир ба ҷои истилоҳи даҳолати забон маҷмӯи алоқаҳои забонӣ васеъ истифода мешавад. Истилохро бори аввал А.Л.Мартин ба забоншиносӣ ворид намуда, аз ҷониби У.Вайнрайх маълум гаштааст.

Л.В.Шчерба дар асари назариявии худ оид ба робитаҳои забон, аҳамияти омӯзиши муқоисавии забонҳо, ҷанбаҳои умумии назариявии дузабонӣ, моҳият, намуди зоҳирӣ, хусусиятҳои мушаххас дар минтақаҳои гуногун, аҳамияти дузабонӣ шахсро баён мекунад. Дар ин асарҳо забонҳои русӣ ва фаронсавӣ ҳамчун объекти таҳқиқот таҳлил карда шудаанд.

Омӯзиши муқоисавии забонҳо дар Туркология, аз ҷумла забоншиносии ўзбек, аз асри XI бо асари «Девону луғотит турк»и Маҳмуд Қошғарӣ ва дар асри XV бо асари Алишери Навоӣ бо номи «Муҳокаматул луғатайн» оғоз ёфт. Дар ҳоле, ки Маҳмуд Қошғарӣ забонҳои туркиро, ки ба як хонавода тааллуқ доранд, муқоиса намуда умумиятҳо ва тафовутҳои онҳоро нишон додааст.

Мир Алишери Навоӣ забонҳои туркӣ ва форсиро, ки ба оилаҳои забонҳои гуногун ва системаҳои гуногуни забон тааллуқ доранд омӯхтааст. Дар дидгоҳҳои худ А.Нурмонов Алишери Навоиро падари забоншиносии муқоисавӣ ва Маҳмуд Қошғариро асосгузори забоншиносии муқоисавӣ-таърихӣ мешиносанд.

М.Ставролли, Е.Д.Поливанов, В.В.Решетов, А.К.Боровков ва як қатор забоншиносон дар бораи ҳамбастагӣ ва таъсири забонҳои ўзбеку тоҷик дар туркология шарҳи мухтасар додаанд.

Е.Д.Поливанов ин масаларо аз лиҳози таъсири забони тоҷикӣ ба шиваҳои ўзбеки омӯхта бошад, М.Ставролли бар акси ин аз лиҳози таъсири забони ўзбекӣ ба шиваҳои тоҷикӣ таҳлил карда буд.

А.К.Боровков гуфта аст, ки рушт ёфтани забонҳо мутааллиқ ба имкониятҳои даруни мебошад.

Дар забоншиносии тоҷикӣ забоншуносони, ки номашон дар назар гирифта мешавад чанд китобҳо навештаанд, ки ин асарҳо мутаалиқ ба масалаи робитаи забонҳо мебошад. Аз ҷумла:



Забоншиносони ўзбеки асари зиёди мутаалиқ ба робитаи забонҳо навештаанд. Аз ҷумла:

1. Юсупов К. Ўзбек ва тоҷик тилларининг ўзаро таъсири.
2. Раҳмонбердиев К. Ўзбек тили контактлари.
3. Нурмонов А. Танланган асарлар.
4. Бердиалиев А. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Морфемика. Сўз ясалиши. Морфонология.
5. Бердиалиев А., Зокиров М. Ўзбек ва тоҷик лисоний алоқаси асослари.
6. Зокирова С. Тиллар тадқиқида контрастив лингвистика илмий парадигмасининг ўрни

Дар забони ўзбекӣ М.Миртожиев, Ҳ.Неъматов, А.Абдуазизов, А.Ҳожиев, Ш.Раҳматуллаев, Э.Бегматов, Б.Бафоев, Н.Маҳмудов дар бораи хусусиятҳои лексикӣ, морфологикӣ, семантикии лисон назарияи илмии худро ба забоншиносии ўзбеки ворид карданд.

Чанд нафар аз забоншиносони русӣ ҳам бо масалаи робитаи забонҳо машғул шудаанд. Аз ҷумла:

И. Зарубин, Л.П.Якубинский, А.Баранников,  
Л.С.Пейсиков, Р.А.Будагон, И.К.Овчинникова,  
Н.З.Гаджиева, В.И.Абаев, М.Н.Боголюбов, В.С.Расторгуева,  
Э.Ф. Володарская, Г.Гайсина, Л.И.Жирков, Г.А.Казакбаева.

## 1.2. Маълумоти умумӣ дар бораи робитаи забон.

Яке аз масъалаҳои асосии омӯзиши сотсиолингвистика мафҳуми “контакти (тамос) забонӣ” мебошад. Контакт аз калимаи латинии “contactiss” гирифта шудааст, ки маънои “тамоси мустақим”, “пайвасти мустақим” ро дорад.

Муносибат ва робитаи зобонҳое, ки ба сохтори фонетикӣ, лексикӣ-семантикӣ ва синтаксисии ду ва ё зиёда забонҳо таъсир мерасонанд, тамоси (контакти) забонӣ маҳсуб мешавад.




Дар ин замина, дар зери мафҳуми робита ва таъсири байни ҳамдигарии сатҳи забонии ду ва ё зиёда забонҳо мафҳумҳое, ки муносибатҳои забонӣ ифода мекунанд, дарк карда мешавад. Дар ин лаҳза, бояд истилоҳоти тамоси (контакти) забонӣ ва забони тамосӣ-ро фарқ кард.

Забоне, ки муносибати лингвистикии коммуникат ва коммуникантро ба вуҷуд меорад, забони тамосӣ ҳисобида мешавад. Дар инҷо ду тафовут мавҷуданд:

Забони тамосӣ забони яке аз миллатҳои, ки бо ҳам тамос гирифта шуда. Аз лиҳози вазъи лингвокоммуникативии ҷомеаи мазкур ин ҳолат метавонад дар забони миллати яқум ё дуюм бошад.

Забони ду миллати мутақобила забони тамоси нашуданашон ҳам мумкин. Дар ин ҳолат, муносибати коммуникативӣ тавассути забони сеюм сурат мегирад. Дар чунин ҳолатҳо, забони тамосӣ забони миёнарав номида мешавад.



Истилоҳи "тамоси забон" ро забоншиноси фаронсавӣ Андре Мартин ба илм ворид кардааст. Уриел Вайнрайх онро ҳамчун истилоҳи сотсиолингвистӣ маъмул кардааст. Тамоси (робитаи) забонӣ мафҳуме мебошад, ки ба амалияи забон марбут аст.

Пайвасти тамоси забонӣ бо амали забон дар он аст, ки он дар раванди нутқ рух медиҳад. Маълум аст, ки асоси раванди нутқ муошират мебошад. Муошират табодули афкор дар байни ду нафар аст.



Яке аз иштирокчиёни раванди муошират гўянда ва дигаре шунаванда номида мешавад. Гўяндаро дар забони илмӣ адресант ва шунавандаро адресат меноманд. Суханро гўянда-адресант тавассути объектҳои забон интиқол медиҳад. Он (андешаро) аз ҷониби шунаванда-адресат қабул карда мешавад. Ин равандро муошират меноманд. Ин раванд характери индивидуал-психики дорад.

Табиати падидаи рӯҳии забонро инчунин фаъолияти нутқ муайян мекунад. Агар гўянда-адресант ва шунаванда-адресат намояндагони як забонҳо бошанд, дар муошират тамоси забонӣ ба амал намеояд. Барои ба амал омадани тамоси забонӣ, гўянда-адресант ва шунаванда-адресат бояд ба ҷомеаҳои гуногуни забон тааллуқ дошта бошанд. Ғайр аз ин, зарур аст, ки гўянда-адресант забони шунаванда-адресат ва шунаванда-адресат забони гўянда-адресантро мукамал донад. Дар акси ҳол, тамоси забон ба амал намеояд. Масалан, агар шахсе, ки ба ҷамъияти забонҳои тоҷикӣ тааллуқ дорад, бо шахсе, ки ба ҷамъияти забони ўзбекӣ тааллуқ дорад, муошират кунад, бояд забони ўзбекӣ ё забони тоҷикӣ ҳамчун воситаи муошират амал кунад. Аз ин рӯ, агар гўянда-адресант ба ҷомеаи забонҳои ўзбекӣ тааллуқ дошта бошад, бояд забони тоҷикиро низ хуб донад.

Агар гўянда-адресант ба ҷамъияти забонҳои тоҷикӣ тааллуқ дошта бошад, ӯ бояд инчунин забони ўзбекиро хуб донад. Аз ин рӯ, барои он ки муошират дар асоси тамоси забонӣ бошад, коммуникаторон бояд на танҳо забони худро, балки забони воситаи муоширатро низ донанд. Забоне, ки ҳамчун воситаи муошират амал мекунад, забони тамосӣ номида мешавад. Агар ду нафаре, ки ба ҷамъиятҳои забонҳои тоҷикӣ ва ўзбекӣ тааллуқ дошта, бо забони ўзбекӣ муошират кунанд, забони ўзбекӣ забони тамосӣ аст. Вақте, ки бо забони тоҷикӣ гузаронида мешавад, забони тоҷикӣ ҳамчун забони тамосӣ амал мекунад.

Агар гўянда-адресант забони шунаванда-адресат ва шунаванда-адресат забони гўянда-адресантро надонад, пас вазифаи забони воситаи алоқа ба забони сеюми дигар

вогузор карда мешавад. Забони сеюм, ки ҳамчун воситаи муошират амал мекунад ва ҳам ба гӯянда-адресант ва ҳам ба шунаванда-адресат тааллуқ надорад, забони миёнарав номида мешавад. Масалан, агар ду нафаре, ки ба ҷамъиятҳои забонҳои тоҷикӣ ва ўзбекӣ тааллуқ доранд, бо забонҳои русӣ ё англисӣ муошират кунанд, забони русӣ ё англисӣ забони миёнарав аст.

Барои тамоси забонӣ дар як минтақаи муштарак зиндагӣ кардани ду ё се ҷомеаи гуногуни забон зарур нест. Тамоси забоние, ки бар асоси он, ки ду ё се ҷамъияти забонҳо дар як минтақаи муштарак зиндагӣ мекунанд, мустақиман сурат мегирад. Тамоси забонии байни ҷомеаҳои забон, ки аз ҷиҳати ҳудудӣ ба якдигар наздик нестанд, одатан тавассути омӯхтани ҳама гуна забони хориҷӣ аз ҷониби донишҷӯён ва омӯзгорон дар равандҳои таҳсилоти миёна, миёнаи махсус ва олий ба амал меояд.

Масалан, тамоси забонии дар сатҳҳои гуногуни таҳсил, ки донишҷӯе, ки яке аз забонҳои англисӣ, олмонӣ, фаронсавӣ, испанӣ, арабӣ ё чиниро меомӯзад, дар асоси ҳамин қоида ба вуҷуд меоварад. Инчунин: тамоси ўзбекӣ-арабӣ аз ҳисоби миқдори зиёди калимаҳое, ки аз арабӣ ба ўзбекӣ гирифта шудаанд, ба вуҷуд омадааст. Ин тамоси забонӣ инчунин тавассути таълими динӣ ва забони форсӣ-тоҷикӣ ба вуҷуд омадааст.

Маълум аст, ки дусти байни халқҳои ўзбек ва тоҷик аз замони қадим рушд ёфтааст. Раиси ҷумҳури Ўзбекистон Шавкат Мирзиёев дар бораи дусти байни ду халқ гуфтааст: “Халқҳои ўзбек ва тоҷик мисли ду шохи як дарахт ҳастанд. Зеро, ки мо як дин, як замини муқаддас дорим. Мо бояд ин дусти қадимии худро таҳким бахшем ва ҳифз кунем”.



### 1.3. Намудҳои муоширати забони

Хусусиятҳои, ки падидаҳои мураккаби иҷтимоӣ ба табиқи забонҳои гуногун ба воситаи муошират алоқаманданд, инчунин падидаҳои мураккаби иҷтимоӣ мебошанд. Дар ин раванд, як забон ба дараҷаи гуногун ба забони дигар таъсир мерасонад (ё "ҳамкориҳои мутақобилаи" ду забон). Бинобар, аз ин рӯ тамоси забонҳо, натиҷаҳои хусусияти гуногун ба назар мерасанд. Дар асоси ин хусусият, намудҳо ва намудҳои гуногуни алоқа бо забон муайян карда мешаванд.

Сарчашмаҳои илмии табиати иҷтимоӣю лингвистӣ ду намуди асосии алоқаи забониро қайд мекунанд:

1) Алоқаи прогсималии забон

2) Алоқаи дисталии забон

1. Алоқаи прогсималии забон.

Шакли прогсималии забон одатан дар як кишвари сермиллат ё давлатҳои ба амал меояд, ки ҷамъиятҳои гуногуни ҷамъии забонро ташкил мекунанд. Чунин кишвар ё давлатҳо дузабона (дузабонӣ) ё бисёрзабона (полилингвизм) мебошанд. Дар алоқаи прогсималии забон намоёндагони ду ва ё зиёда забонҳои дорои системаҳои гуногуни фонетикӣ, лексикӣ ва грамматикӣ забони миллати

ҳамсоияи худ ва инчунин забони модарии худро азхуд хоҳанд кард. Муошират тавассути забони модарии шахс ва бо забони дигар сурат мегирад. Намунаҳои алоқаи прогсималии забонҳои ўзбекӣ ва тоҷикӣ, тоҷикӣ ва ўзбекӣ, русӣ ва тоҷикӣ, тоҷикӣ ва русӣ, ўзбекӣ ва русӣ, русӣ ва ўзбекӣ, инчунин дигар шаклҳои муоширати дузабонаи якхела дар Ўзбекистон ва Тоҷикистон мебошанд.

Ғайр аз ба даст овардани воҳидҳои забонӣ аз як забон ба забони дигар бо сабаби алоқаи прогсималии забон, таҳти таъсири як забон метавонад ҳолати тағирёбанда дар сохтори фонетикӣ, грамматикӣ забони дигар ва ҳатто системаи сифатан фарқкунандаи забон ба амал ояд.

## 2. Алоқаи дисталии забон.

Шакли алоқаи дисталии забон, одатан ба муносибати забонҳои ҷамъиятҳои ғайримарказии этникӣ асос меёбад. Ин шакли алоқаи забонӣ дар ҳолатҳои татбиқ мешавад, ки забонҳои мухталифи ҷамъиятии этникӣ робитаи мустақим надоранд. Аз ин рӯ, алоқаи дурафши забон хусусияти хоси контексти лингвистӣ мебошад. Дар ин раванд танҳо воҳидҳои забонӣ (одатан калимаҳо) аз як забон ба забони дигар омӯхта мешаванд. Масалан, дар муносибатҳои ўзбекӣ ва арабӣ, ўзбекӣ ва чинӣ, ўзбекӣ ва муғулӣ шакли дисталии робитаи забон вучуд дошт. Зеро дар луғати забони ўзбекӣ азхудкунии луғавии хоси чинӣ, муғулӣ, арабӣ мавҷуд аст. Аз ҷумла, азхудкунии луғавии арабӣ дар лексикаи забони ўзбекӣ як қабати калонро ташкил медиҳад. Бисёре аз онҳо моликияти лингвистии забони муосири ўзбекӣ шудаанд.

Азхудкунии луғавии арабӣ низ дар раванди ташаккули калимаҳои забони ўзбекӣ фаъолона ширкат варзида, бори дуввум ба ғайр гардонидани луғати луғавии забони ўзбек саҳми босазо дорад. Аммо, дар Ўзбекистон ва ё дар Тоҷикистон, Қирғизистон ё Қазоқистон, ки дуввумин аҳолии таҳҷой ўзбеканд, дузабонаи "ўзбекӣ ва арабӣ" ё "арабӣ ва ўзбекӣ" вучуд надора.

Ба ғайр аз ин ду намуди робитаи забон, боз ду намуди дигар мавҷуданд, ки бо вақт ва фазои муштаракӣ худ фарқ мекунанд. Онҳо:

### а) алоқаи бевоситаи забон

б) алоқаи билвоситаи забон.

1. Алоқаи бевоситаи забон.

Алоқаи бевоситаи забон ба муоширати рӯ ба рӯ ба афроди мансуб ба ҷомеаҳои гуногуни забон асос ёфтааст. Муоширате, ки дар раванди муоширати рӯ ба рӯ сурат мегирад, фазо ва вақти муштарак дорад: адресат ва адресат дар муоширати рӯ ба рӯ мебошанд. Алоқаи бевоситаи забон танҳо дар шакли шифоҳии сухан асос ёфтааст.

2. Алоқаи билвоситаи забон.

Даралоқаи билвоситаи забон, муошират байни ду нафаре, ки ба ҷамъиятҳои гуногуни забонҳо тааллуқ доранд, ё тавассути телефон ё тавассути компютере, ки ба Интернет пайваст шудааст, сурат мегирад. Дар ин ҳолат, забони яке аз коммуникаторон ҳамчун забони алоқа амал мекунад. Афроде, ки ба сӯҳбат ворид мешаванд, умумияти умумӣ нахоҳанд дошт.

Алоқаи билвоситаи забон ду шакл дорад:

а) шакли шифоҳӣ;

б) шакли хаттӣ.

Шакли шифоҳии тавассути телефон ё Интернет сурат мегирад. Шакли хаттӣ дар шакли мактубҳо, барқияҳо, телефаксҳо, "огоҳиномаҳо" дар Интернет аст. Дар муоширати хаттӣ, адресатсия (нависанда) мактубро истифода мебарад, агар ӯ хоҳад ҳадафи худро муфассалтар баён кунад. Агар он танҳо хусусияти паём бошад, он тавассути телеграмм, факс ё телефон анҷом дода мешавад.

Дар айни замон, шакли шифоҳии муоширати билвосита фаъолтар аст, асосан телефонҳои мобилӣ васеъ истифода мешаванд. Дар ин ҳолат, вазифаи забони миёнаро бо забоне, ки ба он яке аз шахсони муошират тааллуқ дорад, иҷро карда метавонад.

#### **1.4. Падидаҳои лингвистикаи иҷтимоӣ, ки аз робитаи забон бармеоянд**

